

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**KASBIY PEDAGOGIKA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi:** 100000-Gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 110000 – Pedagogika  
**Ta'lim yo'nalishi:** 5410200-Agronomiya  
(dehqonchilik mahsulotlari turlari)

**Guliston – 2018**

Ushbu o'quv-uslubiy majmua 5410200 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari) bakalavryat ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. O'quv- uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 8.08. 2016 yil tasdiqlangan **kasbiy pedagogika** fani namunaviy dasturi (№ BD – 5111000- 3.03) talablari asosida tayyorlangan

**Tuzuvchi: Xoliqov U.K** GulDU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o’qituvchisi  
\_\_\_\_\_ (imzo)

Taqrizchilar: Adukarimov H. GulDU “Pedagogika va psixologiya ” kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi \_\_\_\_\_ (imzo)

Raximov B.X GulDU “Pedagogika va psixologiya ” kafedrasida Ped.fan.dok., prof.  
\_\_\_\_\_ (imzo)

O’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan (...- bayonnoma  
.....2017 yil) ko’rib chiqilgan va o’quv jarayonida qo’llashga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
O’QUV MATERIALLARI .....	5
AMALIY MASHG’ULOTLARI .....	132
MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI .....	154
GLOSSARIY .....	158
ILOVALAR .....	164
Fan dasturi.....	164
Ishchi fan dasturi.....	178
Test savollari.....	199
Qo’shimcha didaktik materiallar.....	206

## **KIRISH**

Amaldagi 5410200- Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi davlat ta'lim standarti (2015) hamda «KASBIY PEDAGOGIKA» fanning o'quv dasturiga (2016) muvofiq talabalar Pedagogika fanining muammolaridan biri bo'lgan kasbiy fani mazmuni aks eturuvchi hamda bo'lajak agrono-pedagoglarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, pedagogik va talaba o'rtasidagi ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish, ularning pedagogik mahoratlarini oshirish, darslarni tashkil etishning yangi usulblarini ishlab chiqarish masalalariga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasb ta'limi asoslari, o'rta – maxsus va kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish to'g'risida asosiy normativ hujjatlari, o'rta –maxsus va kasb-hunar ta'lim mazmuni va uning ishlab chiqarishiga qo'yiladigan talablar bilan bog'liq masalalarni qamraydi.

“KASBIY PEDAGOGIKA ” kursining vazifalariga :

O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limni rivojlanish tarixi, ta'limning uzluksizligi va davomiyligi, uzluksiz ta'limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi, uzluksiz kasbiy ta'lim tushunchalarini, o'rta maxsus kasbiy ta'limni tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi asosiy normativ hujjatlar, o'rta maxsus, kasb ta'limi mazmuniga qo'yiladigan talablar, kasb-hunar kollejarini boshqarish tizimi, talabalarga pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida tadbiiq etishni o'rgatishdan iborat.

“KASBIY PEDAGOGIKA” fanidan darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazilishi, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan samarali foydalanish, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammo savollarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar fan mavzularini chuqur egallashni ta'minlaydi.

Manzilimiz: 120100. Guliston shahri, IV mavze, Universitet,  
«Pedagogika va psixologiya» kafedراس

## O'QUV MATERIALLARI

### 1-MA'RUZA. "KASBIY PEDAGOGIKA" FAN SIFATIDA

#### Asosiy savollari

O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining o'rni.

Kasbiy pedagogika fanining maqsad va vazifalari.

Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: kasbiy ta'lim, kasbiy tayorgarlik, kasbiy tarbiya, kasbiy mahorat, kasbiy pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Integratsiya, mehnat uslublari, metodik vositalar, maqsad, vazifa, kasb, ta'lim, uslubiyot, fan, metod, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot.

**Darsning maqsadi:** O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohatlari. O'rta maxsus, kasb xunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarisar sharoitida. "Kasbiy pedagogika" fanining maqsad va vazifalari. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: kasbiy ta'lim, kasbiy tayorgarlik, kasbiy tarbiya, unumli mehnat, professionallik, kasbiy mahorat. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar: maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, androgogika - kattalarni o'qitish pedagogikasi. "Kasbiy ta'lim pedagogikasi" fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.

#### 1-savol bayoni

O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohatlari asosida ta'limga oid meyoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizomda maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish masalalari yoritilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish<sup>1</sup>

Kasb-hunar bo'yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim berish, intellektual rivojlanishini va ularning qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlagan kasb-hunar to'yicha mutaxassisliklarni egallashini ta'minlash maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari hisoblanadi:

davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish;

o'quvchilarning uzluksiz ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishi, tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur va yetarli bilimlar hamda kasb tayorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda kunduzgi o'qish shaklida amalga oshiriladi.

Akademik litsey - o'qitish muddati uch yil, davlat ta'lim standartlariga muvofiq maxsus ma'lumot beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan holda ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar oliy ta'lim muassasida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarish maqsadida bilimlar darajasini oshirishni va maxsus kasb-hunar alarim shakllantirishni ta'minlaydigan o'qish yo'nalishini (ta'lim fanlari va kurslarini puxta o'zlashtirish sohasi: gumanitar, tabiiy- ilmiy) ixtiyoriy ravishda tanlaydilar.

Akademik litseylar, qoidaga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etiladi, ularning munosabatlari ularning ustavlari hamda boshqa meyoriy hujjatlar bilan tartibga solib boriladi.

Soha bo'yicha, tabaqalashtirilgan holda puxta amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va maxsus ta'lim vazirligi bilan bitim asosida akademik litseylarga homiylik qiladilar.

---

<sup>1</sup> O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizom. O'ZR VM (07.07.2007 y. 139-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan)13.05.98 y. 204-son Qarori 1-ilova

Kasb-hunar kolleji muddati uch yil, davlat ta'lim standarti doirasida maxsus, kasb-hunar ma'lumoti beradi, o'quvchilarning kasb-hunar layoqatlarini, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni, ularning tanlangan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir nechta mutaxassislikka ega bo'lishni ta'minlaydi.

Kasb-hunar kollejlarda kasbga yo'naltirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq, respublika hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, shuningdek mehnat bozorining kichik mutaxassislarga ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Kasb-hunar kollejlari uchun ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari tomonidan barqaror ishlaydigan korxonalar va tashkilotlardan vasiylar belgilanadi, shuningdek turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularga homiylik amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejida kasb-hunar va ta'lim dasturlarini bajarish ikki tomonlama tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin, bunda o'quv-ta'lim jarayoni va kasb-hunarga tayyorlash tegishli ravishda kollejda va korxonada olib boriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va xodimlarining ijtimoiy kafolatlari, ularni qo'llab-quvvatlash va ularga beriladigan imtiyozlar qonun hujjatlariga va tegishli meyoriy hujjatlarga, shuningdek ta'lim muassasasi Ustaviga muvofiq belgilanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli soha mutaxassislariga mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, oiladan uzoqlashtirmasdan imkoni boricha ko'proq qamrab olish sharoitlaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

Akademik litseylarga va kasb-hunar kollejlarga o'quvchilar qabul qilish. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga qabul qilish umumiy o'rta ta'lim negizida maktablarning 9-sinfini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va umumiy o'g'l ta'limni tugatishda ular tomonidan olingan reyting natijalari bo'yicha, ularning akademik litseyda va kasb-hunar kollejida o'qish ixtiyoriy ravishda tanlashini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Qabul qilish chog'ida bitiruvchiga uning qobiliyatini, kasb-hunarga ishtiyoqini va qiziqishini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari tomonidan beriladigan tavsiyanomalar hisobga olinadi.

Akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda umumiy ta'lim va kasb-hunar dasturlari uch kursda amalga oshiriladi. O'quvchilar kurslari bo'yicha guruhlariga, o'qish yo'nalishlari bo'yicha esa bo'linmalarga birlashtiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasida yili 2 semestrda bo'linadi. O'quvchilar uchun kamida 10 hafta va ko'pi bilan 12 hafta davom etadigan ta'tillar belgilanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi kunduzgi o'qish shaklida amalga oshiriladi. Darslarning davom etish muddati, guruhlarning to'ldirilishi, o'quvchilarning o'quv yuklamasi hamda o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirishning boshqa masalalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartiga muvofiq belgilanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlari davlat ta'lim standarti bilan belgilanadigan quyidagi bo'limlarni ichiga oladi:

umumta'lim dasturlari - akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun;

fanlar va o'qish yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan, soha bo'yicha va ixtisoslashtirilgan ta'lim dasturlari - akademik litseylar uchun;

o'qish bo'yicha umumtexnikaviy kasb-hunar va maxsus dasturlar - kasb-hunar kollejlari uchun.

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqiladi. (O'zR VM O7.O7.2007 y. 139-son Qarori taxriridagi band), (Oldingi taxririga qarang)

O'qitish sifati va darajasining davlat ta'lim standartiga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat tartibotlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

- joriy nazorat - so'rovlar, kollokviumlar, seminarlar, kontrol ishlar va testlar tarzida bilimlar, malaka va ko'nikmalar tekshiriladi;
- oraliq nazorat - semestr tamom bo'lganda va dasturining tegishli o'1 tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Uning asosida reytinggi aniqlanadi. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarni baholash uchun oraliq nazorat imtihonlar, testlar, sinovlar, kurs va malaka ishlari shaklida o'tkaziladi;
- yakuniy nazorat - akademik litseyda, kasb-hunar kollejida o'qish tugallangandan keyin davlat attestatsiyasi: imtihonlar, testlar, malaka ishlari, diplom loyihalarini himoya qilish shaklida amalga oshiriladi.

Har bir kursda o'qish tugagandan keyin reyting nazorati va attestatsiya natijalariga ko'ra keyingi kursga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi. O'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji direktorining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Shartli ravishda o'tkazishlarga qo'yilmaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining bir turidan boshqasiga o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Oliy va maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan meyoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturining umumiy ta'lim va maxsus bo'limlarini (kasb-hunar dasturlaridan tashqari) mustaqil ravishda o'zlashtirgan yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq eksternat tartibida yakuniy attestatsiyadan o'tish huquqi berilishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida kadrlar tayyorlash ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan hamkorligi asosida:

ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va bo'yicha maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarining filiallarini chiqarish komplekslari va markazlarini tashkil etish;

yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni uchun tajriba maydonchalarini tashkil etish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

korxonalaridagi unumli mehnat bilan birlashtirish asosida kadrlar tayyorlash va ularni tarbiyalashning ikki tomonlama tizimini rivojlantirish, kasb- hunar kollejlari qo'shma ishlab chiqarishlar tashkil etish, ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun o'quvchilarni ish PP bilan ta'minlash;

korxonalar va ular birlashmalarining ham alohida mutaxassislarini va guruhlarni maqsadli tayyorlash, ham har xil turdagi va darajadagi muassasalarini muassis, vasiy, homiy sifatida mablag' bilan ta'minlashda qatnashishi;

yurtlarini zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar va anjomlar bilan jihozlash, akademik litseylarda o'qiyotganlarga oliy ta'lim muassasasi va ilmiy-tadqiqot tashkilotining, kasb-hunar kollejlari qo'shma o'qiyotganlarga-tegishli vasiy va oliy ta'lim muassasasining o'quv-moddiy bazasidan foydalanish imkonini berish;

o'qiyotganlarning mehnat faoliyatiga va tovar mahsulot chiqargan holda ishlab chiqarish jarayoniga faol kirishlari uchun sharoitlar yaratish;

ilg'or texnologiyalar sohasi pedagoglarini bevosita ishlab chiqarishda tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uo'l bilan amalga oshiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitiruvchilarga maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda: akademik litseylar uchun - fanlar to'yicha soha; kasb-hunar kollejlari uchun - Klassifikatorga muvofiq mutaxassislik (mutaxassisliklar) to'yicha berilgan malaka satii.

Diplomlarga umumta'lim va maxsus (kasb-hunar) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo'yicha baholar (reytinglar), shuningdek bitiruvchining umumiy reytinggi va yakuniy davlat attestatsiyasining natijalari rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi.

Akademik litseyni tugatganlik to'g'risidagi diplom oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish

hamda olingan bilimlarni mehnat faoliyatida ra'yobga chiqarish huquqini beradi. Kasb-hunar kollejini tugatganlik to'g'risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat faoliyatini amalga oshirish hamda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish huquqini beradi.

## **2-savol bayoni**

“Kasbiy pedagogika” fanining asosiy tushunchalari kasbiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, unumli mehnat, professionallik, kasbiy mahorat mavjud.

*Kasbiy tarbiya* - inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni.

*Kasbiy ta'lim* - muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

*Kasbiy tayyorgarlik* - ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon.

*Kasbiy mahorat* - ta'lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta'limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi.

*Kasbiy motivatsiya* - kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga uo'naltirishga oid faoliyat ta'sirida shakllanuvchi mayl.

*Kasbiy tajriba* - avlodlarning ijtimoiy tajribasini va ularni boshqaruv amaliyotida qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo'lib, rahbarning faoliyati davomida fan-texnika yangiligiga, ilg'or tajribalarga tayanish hamda mazkur tajribalar asosida sh ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishi bilan bir qatorda jamoa faoliyatini boshqarish tajribasi.

*Kasbiy o'z-o'zini aniqlash* - shaxs fikrining tanlangan, shp yoki bajarilgan mehnat faoliyatida ifodalanishi.

*Kasb-hunar kolleji (KHK)* muayyan kasb-hunarni egallashga ixtisoslashtirilgan o' maxsus ta'lim muassasasi; 2) o'quvchilarning kasb- hunar moyilligini, layoqatlarini, bilim va alarni rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb tanlash imkonini beradigan ta'lim muassasasi.

## **3-savol bayoni**

“Kasbiy pedagogika” mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy UO'PVVG quyidagilardan iborat:

*Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi* - kasb-hunar kollejlari o'quv tarbiya jarayoniga ixtisoslashgan pedagogika fanining alohida tarmog'i.

*Kasb-hunarga yo'naltirish* - o'quvchilarga muayyan kasb-xunar haqida ma'lumot berish orqali ularni shu kasbga qiziqtirish, uo'l jarayoni.

*Katta yoshdagilar pedagogikasi (androgogika)* - pedagogika fanining oliy yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiquvchi alohida tarmog'i.

*Oliy maktab pedagogikasi* - pedagogikaning oliy yurti shart- sharoitlarida talabalarga ta'lim-tarbiya berishning nazariy asoslari va metodikasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan tarmog'i.

Ta'lim jarayonida *fanlararo aloqadorlik* bir fan misolida sh yaqin o'p mavzularning yaqinlashishi, bir mavzu yuzasidan fanlarning o'zaro bog'lanishi, bir muammo yuzasidan fan turkumlarining bog'lanishi, masalaning aynan o'quv reja va dasturga mos o', ta'lim jarayonining shakllantiruvchi shakllari asosida nazariy bilimlarni amalda qo'llashda o'z ifodasini topadi.

Demak, ta'lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik pedagogik muammo, prinsip, metod, muhim samarali vosita xizmat qiladi. Integratsiya esa jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot MA'RUZA. yuzasidan fanlararo aloqadorlikka doir tadqiqot ishlari mavjud, ular quyidagicha tahlil etilgan:

- bir fan misolida aloqadorlikni o'rganish;



- bir va ikki fan misolida aloqadorlikni o'rganish;
  - fan turkumlari asosida fanlararo aloqadorlikni tahlil etish;
  - integratsiyaga oid tadqiqot ishlari;
  - tadqiqot MA'RUZA. asosida fanlararo bog'lanish yuzasidan tavsiyalar berish.
- 'Kasb-hunar pedagogikasi' MA'RUZA.dagi o'quv-metodik qo'llanmada predmetlararo aloqadorlik masalasi nazariya va amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etilayotganligini to'rsatadi:

Muammoning nazariy asoslari - P.R.Atutov, S.Y.Batqshv, A.P.Belyayeva, SH.I.Ganelin, R.S.Guryevich, N.I.Dumchenko, YE.I.Martqnova, I.D.Zverev, A.A.Kqveryalg, V.N.Maksimova, M.I.Maxmutov, A.V.Usova, O.F.Fedorova va shu kabilar.

O'quv dasturiy hujjatlar tuzilmasida aloqadorlik imkoniyatlarini tadqiq etish

P.M.Badueva, G.S.Gutorov, X.F.Rashidov, B.F.Boyarchuk, I.I.Babkin,

P.Belyayeva, V.I.Andriyanova, I.D.Klochkov, Y.K.Vasilyev, I.Y.Kuramshin, Q.Olimov, K.A.Zoyirov va ularning onli maslakdoshlari.

Predmetlararo aloqadorlik prinsipidan foydalanishning turli shakl usul va vositalarning imkoniyatlari - I.P.Kulyagin, V.A.Polyakov, L.V.Savelyeva,

Y.Kuramshin, A.Aliyev, D.G.Davqdova, V.I.Palamarchuk, V.A.Skakun, G.Jumasheva,

G.S.Gutorov, O'.Tolipov, A.Z.Shakirzyanov, B.I.Muranov,

M.Mirzaxmedov, O.L.Musurmonov, F.Musayev, O.Abduxalilov, G.F.Fedorets,

N.M.Berulova, A.Ibragimov, I.Aliyev, R.Zaynobiddinova va boshqalar.

Mutafakkirlardan Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalotssi, A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar fanlararo o'zaro aloqadorlik prinsipiga turli xil yondashuvlari bilan dunyoni bilishga o' bilimlar sistemasidagi aloqadorlikni, xabardorlikni o'quvchilar mushohadasiga berishga va shu bilan birga qo'yilgan ta'limiy maqsadni amalga oshirishga harakat qildilar.

M.N.Skatkin, asosan uch ko'rinishdagi bog'lanishni tavsiya etadi, ya'ni:

1. Oldindan bog'lanish;
2. Keyindan bog'lanish;

3. Davomli bog'lanishlarga ajratadi va har bir bog'lanishlarni o'ziga xos tavsifnomasini keltiradi. Lekin, N.V.Verzilin, P.G.Kulagin, Y.Keytkeviguslar qarayotgan tushunchaning o'quvchilar bilish faoliyati bilan aloqadorligini e'tiborga olgan holda, bog'lanishni ikki kategoriyaga, ya'ni: sinxronli bog'lanish; asinxronli bog'lanishlarga ajratadi. K.P.Korolev bog'lanishlarni asosan quyidagi tartibda belgilaydi: 1) tushuncha va faktlar orasidagi bog'lanish; 2) tekshirish metodlari va ilmiy tafakkur orasidagi bog'lanish; 3) umumiy ko'nikma va malakalarini shakllanishidagi bog'lanish; 4) o'qitishning bilish usullari orasidagi bog'lanishlarga ajratadi. Shuningdek, fanlararo aloqadorlikda ichki va tashqi aloqadorlik, uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, aloqadorlik hamda integrativ aloqadorlik tushunchalaridan ham foydalanildi. Ma'lumki, predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan obyektни har tomonlama chuqur o'rganisni ta'minlaydi. U pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, aloqadorlik hamda integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi. Bola faqat yillarida narsa va hodisalarning mohiyati haqida tushunchaga ega, ularga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini to'liq, erkin bayon eta oladi. V.G.Belinskiy gumanitar fanlar (ona tili, adabiyot, tarix)ni maktabda o'qitiladigan fanlar orasida eng muhimi: kishilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga, ularni 'odam qilishga' yordam beradigan fanlardir, deb hisoblar edi. Shu xususda 'Kasbiy pedagogika' fani 'Adabiyot' fanlarida turli xil janrdagi asarlarni hikoya, ertak, masalni o'qish she'r va uni uslubiyoti, ilmiy- ommabop maqollar hamda hadislar, hikmatlar, tez aytish va topishmoqlarni o'rganish asosida kasbga yonaltirish ishlari olib borildi. Mazkur metodikalarda kasb mazmundagi materiallar tanlab olindi.

Shuningdek, tadqiqotlarda oldindan, keyindan va davomli bog'lanishlar, ichki va tashqi, sinxron, asinxron, integrativ, uzviy bog'lanishlar, tushuncha va faktlar orasidagi, tekshirish metodlari va ilmiy tafakkur orasidagi, amaliy to'nikma va malakalar shakllanishidagi, o'qitishning bilish metodlari orasidagi bog'lanishlar o'rganilgan, lekin ekologik tarbiya berish asosida fanlararo bog'lanishlarga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligini ko'rsatadi.

Uzviylik - bilim, ko'nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammalashib borishida ko'zda tutiladi.

Predmetlararo aloqadorlik - mohiyatiga ko'ra keng tushuncha, o'rganilayotgan obyektning turli jihatlari, xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

O'zaro aloqadorlik - mohiyatiga ko'ra o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi.

Integrativ aloqadorlik - esa nisbatan yuqori darajadagi aloqadorlik hisoblanadi.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan "Madaniyatshunoslik", "Huquqshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Falsafa", "Sotsiologiya", "Pedagogika-Psixologiya", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Siyosatshunoslik" kabi fanlarga ham katta ahamiyat berarilishi kasb to'g'risida talabalarga juda to'p foydali ma'lumot berishi jihatidagina g'oyat muhimdir. Shuningdek, umumkasbiy fanlar hamda ixtisoslik fanlari bilan bog'lanish mazkur fanni chuqur o'rganishda muhim hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, har bir fanining 'Kasbiy pedagogika' fani bilan aloqadorligi 1-rasmda shakllantirildi:

#### Nazorat savollari:

1. "Kasbiy pedagogika" fanining asosiy maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering?
2. Uslub va uslubiyot tushunchalariga izoh bering.
3. O'zbekiston Respublikasida qanday umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohatlari olib borilmoqda?
4. Ta'lim jaryonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati qanday?
5. 'Kasbiy pedagogika' fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yuzasidan
6. "Klaster" texnologiyasini ishlab chiqing
7. "Kasbiy pedagogika"ning rivojlanish bosqichlarini sanab bering.

#### Mustaqil ish topshiriqlari:

Quyidagi "Toifalash jadval"larini to'ldiring:

1-jadval

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish

2-jadval

Akademik litseylarga o'quvchilar qabul qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni	Kasb-hunar kollejlariga o'quvchilar qabul qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni

O'qitish sifati va darajasining davlat ta'lim standartiga muvofiqligini ta'minlash uchun qanday nazorat tartibotlari o'tkaziladi va jadvalni to'ldiring:

3-jadval

Nazorat turlari	Nazorat tartibotlar

## 2-MA'RUZA. KASBIY PEDAGOGIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

### Asosiy savollari

1. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari.
2. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim.
3. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati.

### Tushunchalar va tayanch iboralar:

Kasb, ta'lim, metod, metodologiya, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot.

**Darsning maqsadi:** Milliy g'oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, halq pedagogikasi tajribasiga tayanish. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari. Ular barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va halq xunarmandchilik ustalari tajribasi va rivojlanishini aks etadi. O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim. Turkistonda VIII-XIII asrlarda jamiyat ta'lim asos bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqin bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribasi. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati: ta'limning O'zbekiston halqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an'analar va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish, boshqa halqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi sifatida tan olinishi.

### 1-savol bayoni.

Milliy g'oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun halq pedagogikasi tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslarini bilish maqsadida barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va halq xunarmandchilik ustalari tajribasi va rivojlanishini tahlil etishni taqozo qiladi. Quyidagi 1-5-jadvallarda tarixiy manbalar va mutafakkirlarni kasb, hunarga oid tushunchalari keltirilgan.

1-jadval

Tarixiy manbalarga kasb, hunarga oid tushunchalar

Tarixiy manbalar	Kasb, hunarga oid tushunchalar
Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz: Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.	Dastlabki urug'chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug'ning aarcha a'zolari jamoa harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a'zolarining yosh jihatlariga te'ra quyidagi uch guruh asosida tashkil etganlar: a) bolalar va o's mirlar; v) ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar; s) keksalar.
Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz: Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.	Dastlabki urug'chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug'ning aarcha a'zolari jamoa harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a'zolarining yosh jihatlariga te'ra quyidagi uch guruh asosida tashkil etganlar: a) bolalar va o's mirlar; v) ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar; s) keksalar.

<p>Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.</p>	<p>Ibtidoiy jamiyatda bola uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish. Bu holat og'ir sharoitda kechgan. Bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini edilar. Hech qayerda yozilmagan odat va an'analarga te'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi. Ushbu an'ana, ya'ni, bolalarni ma'lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham te'zga tashlanadi</p> <p>Urug'chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnatining ko'lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari te'payib boradi</p> <p>Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich finishlm yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega O'SH taqozo etar edi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka ega kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar</p> <p>Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga O'P ehtiyojni yuzaga keltirdi</p>
<p>Avesto</p>	<p>Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qayerda ekanini so'raganda, u shunday javob beradi: u shunday joyki, kishilar u yerda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona)lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, bola-chaqali bo'ladilar; men</p>

	<p>bilan mehnat qiluvchi kishini qo'llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag'ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi deb ko'rsatiladi</p> <p>Biroq baxt-saodatga erishish uchun mehnat qilish lozim. Shu bois, baxtga erishishning yagona va ishonchli yo'li mehnat qilish ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi: "Chorvadorlar to'q bo'lsin uchun chorvani muttasil parvarish qilmoq lozim"</p>
<p>Islom dini</p>	<p>Islomiy g'oyalar odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda yer yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi</p>

2-jadval

Mutafakirlarning kasb, hunarga oid fikr-mulohazalari

<p><b>Mutafakkirlar</b></p>	<p><b>Kasb, hunarga oid tushunchalar</b></p>
-----------------------------	--

Yassaviya tariqati “Hikmat” asari	Bu asarda Yassaviya ta’limotidagi poklik, halollik, to’g’rilik, mehr-shafqat, o’z qo’l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo’lida nisonni ham btinan, ham zohiran har mtomonlama takomillashtirish kabi umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.
Bahouddin Naqshband	“Dil ba yoru, dast ba kor” (Dil yorda, qo’l ish (mehnat)da) shiori fikrimizning yorqin isbotidir. Shuning uchun ham Naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar mehnat qilish evaziga hayot kechirar edilar. Tunu kun toat-ibodat bilan shug’ullanib, oila, jamiyat yumushlarini tark etish emas, balki oilani farovon, mamlakatni obod etish yo’lida mehnat qilish talab etilar edi.
Abu Nasr Forobiy	<p>Ta’lim - degan so’z xalqlar va shaharliklar o’rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o’rtasidagi tug’ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so’zdir.</p> <p>Ta’lim faqat so’z va o’rgatish bilangina bo’ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo’lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo’lishi, o’rganishidir</p> <p>Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo’l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi - qanoatbaxsh so’zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so’zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g’ayrat, qasd- intilish harakatga aylantiriladi.</p> <p>Ikkinchi yo’l (yoki usul) - majbur etish yo’li. Bu usul gapga ko’nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo’llaniladi. Chunki ular o’z istaklaricha so’z bilan g’ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy</p>
	bilimlarni o’rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi o’l. Kasb hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo’lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir.
Abu Rayhon Beruniy	Eng muhimi, mutafakkir, inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga o’l. Og’ir mehnat sifatida binokor, ‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli - olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, hayrixoh bo’lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo’suvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og’ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag’batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g’amho’r o’ kerakligini alohida eslatadi. Chunki, ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta’kidlaydi.
	Olim bolalarni mehnatga o’rgatish metodlari, uoChkp haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o’rgatish kerak deydi. Mehnat tarbiyasida o’sha davr tarbiya an’anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi.

	<p>Hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika Fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta yetishishida katta ahamiyatga ega.</p>
Abu ali ibn Sino	<p>Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudho'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi.</p>
Yusuf Xos Hojib	<p>Insonga bilim nechog'lik zarur, kasb-hunar egallash ham shunchalik muhimligini asarida alohida ta'kidlaydi. Shunga te'ra u asarda turli toifadagi kishilar borasida fikr yuritar ekan, hunarmandlar haqida ham iliq fikrlar bayon etadi.</p> <p>Jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o'ringa ega O'P dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o'gshsh rsatib beradi.</p> <p>Jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan har bir kasb, hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi.</p>
Kaykovus	<p>... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim</p> <p>Kitobda juvonmardlar egallashi zarur O'P quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:</p> <p>Kaykovus bilim olish haqida.</p> <p>Hunar va turli kasb egalari haqida.</p> <p>Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.</p> <p>Jismoniy yetuklik haqida.</p> <p>Kaykovus ilmni uchga o'l: biror kasb-hunarga bog'liq ilm; ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat.</p> <p>Birinчисiga, ya'ni biror kasb bilan bog'liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, yer o'lchash, shoirlik va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar, har qanday usta O' ham bu boradagi ilmni bilmasa, hech ish qila olmasligi ta'kidlanadi.</p> <p>uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda muhimligi bilan diqqatga sazovor</p>

	dehqonchilik ilmini egallash, mazkur ishda yerni tarbiya qilish, tezkor va g'ayratli o'sh ta'kidlaydi. Boshqa hunarlarni egallashda ham rostgo'y o', xiyonat qilmaslik, muhtojlarga yordam qilish kabi xislatlarga ega bo'lishga undaydi. Ayniqsa, uning bozor bilan bog'liq kasb-hunar kishilariga bergan qiziqarli. Masalan, u: "Bozor xalqi bila bozori. Tosh va tarozini rost qilg'il. O'z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo'lmag'il. Sheriklaringga xiyonat qilmag'il, har peshakim qilsang, unga hiyla qilmag'il va hamisha hamma ishingni birdek qilg'il. Agar moldor bo'lsang, muhtojga qarz bermoqni g'animat bilg'il", — deb to'g'ri ta'kidlaydi. Bu pandlar ham hukmdorga, ham oddiy fuqaroga bab-baravar zarur hisoblanadi. Bu bilan Kaykovus yoshlarda mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi, jismoniy mehnat bilan ham aqliy mehnat kabi shug'ullanish lozimligini bayon etadi.
Muslihiddin Sa'diy	Ulug' murabbiy bilim olish bilan birga hunarning ham inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. Chunki "...hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, deydi u, - agar hunarmand molidan mahrum o', qayg'usi uh chunki hunarning davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uying to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi"

## 2-savol bayoni.

Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim kasb, hunar haqidagi fikr-mulohazalarga asoslandi. Turkistonda VIII- XIII asrlarda jamiyat ta'lim asos bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqin bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribalari mutafakkirlarning fikr- mulohazalari asosida rivojlandi. Quyidagi 3-jadvalda berilgan:

3-jadval

Mutafakkirlarning kasb, hunarga oid tushunchalari

<b>Mutafakkirlar</b>	<b>Kasb, hunarga oid tushunchalar</b>
Amir Temur	"Belda kamar va tilda sano", ya'ni ish va so'z bir bo'lsin deyishni xush ko'rardi
Abdurahmon Jomiy	Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o'tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ilmu hunar sirlarini o'rganishga, bu yo'lda sabrli, matonatli bo'lishga undaydi. Shuningdek, hunar o'rganishi har bir kishi uchun u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, deb ta'kidlaydi.
Alisher Navoiy	Bolalarga yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga - muallimga berish lozimligini ta'kidlaydi. Shu bilan bolalarga yoshligidanoq fanlar va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidlaydi.
Husayn Voiz Koshifiy	Insonni kamolga yetkazish maqsadida unda tarkib toptirish uchun zarur bo'lgan xislatlarni o'nga bo'lib turkumlashtiradi. Shu lardan biri kasb-hunat, ilm-ma'rifatni egallashga chaqiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur	Yoshlar shaxsini hayotning o'zi shakllantiradi, lekin bunda mehnat va mehnatda toblanish muhim rol o'ynaydi.
---------------------------	--

### 3-savol bayoni

Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati: ta'limning O'zbekiston halqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an'analar va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish, boshqa halqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi sifatida tan olindi.

#### Nazorat savollari:

1. "VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslariga misollar keltiring.
2. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'limni izohlang.
3. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati.
4. Mutafakkirlarning fikrlaridan namunalar keltiring.
5. Mutafakkirlarning fikrlarini amaliyotdagi holatini tahlil qiling.

#### Mustaqil ish topshiriqlari:

Quyidagi "Toifalash jadval"larini to'ldiring:

1-jadval

O'rta Osiyoda miloddan oldingi 6 asrdan miloddimizning 3 asrigacha bo'lgan davrda ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya		
Eng kadimgi yorgorliklarda inson tarbiyasi	Zardushtiylik ta'limotida ta'lim-tarbiy. 'Avesto'	Eng kadimgi yozma ma'rifiy yodgorliklar

2-jadval

6-8 asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy va madaniy hayot, maktab hamda pedagogik fikrlar			
Islomda ta'lim-tarbiya		So'fiylik ta'limoti	
Imom Ismoil al		Yassaviya	
Abu Iso at Termiziy		Naqshbandiya	
		Kusroviya	

3-jadval

Sharq mutafakkir		arning pedagogik fikrlari	
Mutafakkirlar	Kasb-hunarga oid fikrlari	Mutafakkirlar	Kasb-hunarga oid fikrlari
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy		Unsurul-Maoliy	
Ahmad Farg'oniy		Kaykovus	
		Az-Zamaxshariy	

Abu Nasr Forobiy		Umar Xayyom	
Abu Ali ibn Sino		Abu Rashod Ahmad al-Axsikatiy	
Abu Rayhon Beruniy		Ahmad Yugnakiy	
Mahmud Qoshg'ariy		Sulaymon Boqirg'oniy	
Yusuf Xos Hojib		Muslihiddin Sa'diy	



4-jadval

<b>9-15 asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, maktab va pedagogik fikrlar</b>	
<b>Mutafakkirlar</b>	<b>Kasb-hunarga oid fikrlari</b>
Sohibqiron Amir Temur	
Muhammad Tarag'ay - Mirzo Ulug'bek	
Abdurazzoq Samarqandiy	
Alisher Navoiy	
Abdurahmon Jomiy	
Jaloliddin Davoniy	
Husayn Voiz al-Koshifiy	

### **3- MA'RUZA.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI.**

#### **Asosiy savollari**

1. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.
2. Uzlüksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari.
3. Uzlüksiz ta'lim tizimi va turlari.
4. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim siyosatining tamoyillari.
5. Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
6. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari

#### **Tushunchalar va tayanch iboralar.**

Uzlüksiz ta'lim, ta'lim tizimi, isloh qilish, prinsip, kasb, hunar. Milliy dastur, tamoyil, rivojlanish, bosqich, milliy modelb, shaxs, davlat va jamiyat, fan, ishlab chiqarish, uzlüksiz ta'lim.

**Darsning maqadi:** Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrifiylik. Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati: izchillik, ochiqlik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 'Uzlüksiz ta'lim' tushunchasi. Uzlüksiz ta'lim tuzilishi. Uzlüksiz ta'lim tizimi va turlari. Kasbiy ta'lim turi va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari. Uzlüksiz, kasb-hunar ta'limi tizimida o'rta maxsus ta'limining o'rni va ahamiyati.

#### **1-savol bayon:**

Uzlüksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-

muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalq'analar va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;  
iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

### **3-savol bayoni:**

Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:  
ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;  
davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;  
ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;  
majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;  
maxsus, kasb-hunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;  
ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar to'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;  
milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;  
ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;  
ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy-ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;  
ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;  
ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;  
uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;  
ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;  
tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;  
ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

### **3-savol bayoni:**

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.  
Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.  
Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim;  
oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;  
kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;  
maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalvriat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

#### **4-Savol bayoni:**

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining majburiyligi;
- maxsus, kasb-xunar ta'limi uo'nalishi; akademik litseyda yoki kasb- xunar kollejida sh tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish .

#### **5-savol bayoni:**

1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash
2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
3. Ta'lim jarayonini mazmunan islox qilish
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar
5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar
6. Ta'lim tizimini boshqarish
7. Kasb-xunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish
8. Ta'lim tizimini moliyalash
9. Moddiy-texnika ta'minoti
10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish
11. Ta'lim xizmati to'rsatish bozorini rivojlantirish
12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash xamda bu soxani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
13. Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish
14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish
15. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro xamkorlik

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi ustuvor uIgt qamrab oladi:

*Ta'limning uzluksizligini ta'minlash.* Ta'limning o'z ichiga maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta'limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha raqobatbardosh ta'lim muassasalari vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi

ta'minlanadi.

*Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.* Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta'limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko'zlovchi tizimi vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlariga mos yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha maxsus fakultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

*Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish.* Kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Pedagog kadrlarning obro'-e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv, shu jumladan differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

*Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar.* Yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

O'zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o'zaro puxta hamkorlik qiladilar. (O'zR O9.O4.2007 y. O'RQ-87-son Qonuni taxririidagi xat boshi)

*Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar.* Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniqyo'nalishlari O'UYUYA o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

*Ta'lim tizimini boshqarish.* Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan yaT va ularni izchil rivojlantirish davlat uo'N bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari 'Ta'lim to'g'risida'gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning normativ-huquqbazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo'jalik faoliyati olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat to'rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarning, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta'lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

*Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish.* Ta'lim boshqaruvi organlariga bog'liq bo'lmagan, kasb-hunar ta'limi sifatini attestatsiyadan o'tkazuvchi davlat xizmati tashkil etiladi. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbol talablariga monand davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi. yurtlari faoliyatini, professor-pedagog kadrlar sifatini hamda ta'lim oluvchilarning bilimini reyting asosida baholash tizimi tadbiquetiladi. Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilishning davlat va jamoat shakllari rivojlantiriladi.

Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyalash tizimi takomillashtiriladi.

*Ta'lim tizimini moliyalash.* Ta'limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtiriladi, uning ko'p variantli (byudjetdan ajratiladigan va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi pul bilan ta'minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etish rag'batlantiriladi.

Respublika fuqarolari uchun keyinchalik ularni to'lashning moslashuvchan tizimiga asoslangan ta'lim kreditlari berish mexanizmi shakllantiriladi. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda donorlar va homiylarning mavqei kuchayib boradi.

Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qo'yilgan vazifalarga muvofiq boshqa tarzdagi faoliyat hisobidan ta'lim muassasalarining daromadlari ko'payishi ta'minlanadi.

*Moddiy-texnika ta'minoti.* Har bir mintaqaning demografik va jo'g'rofiy xususiyatlaridan kelib chiqib, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tarmog'i barpo etiladi. Ta'lim oluvchilarni oiladan ajralmagan holda o'qishga imkon qadar ko'proqqamrab olinadi.

Mavjud ta'lim muassasalarini kapital ta'mirlash va yangi ta'lim muassasalari qurish, ularni normativ talablarga muvofiq, zamonaviy texnika va texnologiyalarning darajasini hisobga olgan holda jihozlanishini ta'minlash choralari ko'riladi.

O'quv-tarbiya muassasalarini zarur uskunalar, inventarlar, ashyolar, ta'limning texnikaviy, dasturiy va didaktik vositalari bilan jihozlash yuzasidan ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish qo'llab-quvvatlanadi. Barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi.

*Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish.* Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televideniye va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

*Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.* Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan ta'lim xizmati ko'rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalari rivojlantiriladi, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta'lim xizmati ko'rsatish bozori davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Asosiy ta'lim dasturlarida nazarda tutilmagan konsultativ va qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan iborat pullik ta'lim xizmati ko'rsatish tizimi rivojlantiriladi.

*Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.* Pedagogik faoliyatning obro'-e'tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro'yobga chiqariladi. Ta'lim oluvchilarning va pedagoglarning o'qishi, sog'ligi va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash organlari bolalar hamda o'quvchi yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko'radilar. o'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirishga qaratilgan yo'nalishini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar ta'minlanadi. Ta'lim oluvchilarning tibbiy-gigiyena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi ffaolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

*Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish.* Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi, ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiqkelishini tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki rag'batlantiriladi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi ta'minlanadi. Yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

*Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish.* O'quv- ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblardan jihozlash rag'batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab-quvvatlanadi. Ilg'or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

*Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.* Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor uyayap ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi, ilmiy-pedagog kadrlar, talabalar va almashish kengayadi. Ta'lim to'g'risidagi milliy hujjatlar xalqaro miqyosda e'tirof etilishi uchun asos yaratiladi. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalarining kadrlar tayyorlash sohasiga chet el investitsiyalarini bevosita va bilvosita keng jalb qilish borasidagi faoliyat kuchaytiriladi.

## **6-savol bayoni.**

*Milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.* Milliy dasturni amalga oshirish maqsadida:

Milliy dasturning uo'nalishi va bosqichlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta'minoti ifodalangan yechim va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi.

Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalari belgilanadi.

Milliy dasturning aniq yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlari jalb etiladi.

Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvi tashkil etiladi.

Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritiladi.

Ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modeli ro'yobga chiqarilishini ta'minlash masalalari yuzasidan seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali Milliy dasturning prinsipial yondashuvlari hamda asosiy qoidalari keng ko'lamda tushuntirish ishlari olib boriladi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqalarining faol ishtiroki ta'minlanadi.

Ommaviy axborot vositalarida Milliy dasturning bajarilishi muntazam yoritib boriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan Respublika komissiyasi tashkil etiladi, bu Komissiyaning zimmasiga dasturni bajarishga doir barcha ishlar va tadbirlarni

tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, shu jumladan quyidagi vazifalar yuklanadi:

uzluksiz ta'limning tegishli turlari uchun davlat ta'lim standartlariga qo'yiladigan umumiy talablarni ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim uchun davlat ta'lim standartlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan iborat ta'lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

o'rta umumiy ta'limga ega bo'lgan o'quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to'la qamrab olish tadbirlarini, bu tizimni hududlarning demografik, jo'g'rofik xususiyatlari va kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirish, uning moddiy-texnika asosini yaratish;

akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ishlaydigan o'qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta'lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloh qilish, bu borada tegishli davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bolalar tarbiyasida va ularni maktabga tayyorlashda oila, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining mas'uliyatini oshirish;

ta'lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish, ta'lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish;

professor va pedagog kadrlarni rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi ta'lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus Respublika jamg'armasi tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni faol o'rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, o'zbekcha-chet tillar lug'atlarini, davlat tilidagi maxsus adabiyotlarni nashr etish;

uzluksiz ta'lim sohasi o'qituvchilari va pedagog kadrlarini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatiga haqto'lash va rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalash, kadrlar tayyorlashning malaka talablarini aniqlash hamda sifatini baholash ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha ta'lim tizimi boshqaruviga bog'liqbo'lmagan yagona davlat xizmatini tashkil etish;

ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash; kasb-hunar ta'limi sohasida kadrlarga O'YAP talab va taklifni o'rganishni tashkil etish, ta'lim xizmati to'rsatish va kasbiy mehnatning raqobatga asoslangan bozorini hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni shakllantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ra'yobga chiqariladi. *Birinchi bosqich* (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish. Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

'Ta'lim to'g'risida'gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-ahloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

-shu majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun zarur moddiy-texnika, shu va kadrlar bazasini tayyorlash; ta'lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta'lim xizmati to'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha real chora- tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan holda izchil tayyorlanadi. Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

*Ikkinchi bosqich* (2001-2005 yillar) Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini 2005-yilda ikkinchi va uchinchi bosqichlarni amalga oshirish yillari uzaytirilib, ikkinchi bosqich 2001-2007 yillar va uchinchi bosqich esa 2007-va undan keyingi yillar deb belgilandi.

axborotlashtirish amalga oshiriladi. Ta'lim xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

*Uchinchi bosqich* (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi. Milliy oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi.

Shaxs - Milliy modelning asosiy komponenti.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

- ✓ *shaxs* - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;
- ✓ *davlat va jamiyat* - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;
- ✓ *uzluksiz ta'lim* malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;



- ✓ *fan* yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;
- ✓ *ishlab chiqarish* kadrlarga ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy- ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liqbo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi mehnat qilish huquqi ra'yobga chiqariladi.

'Ta'lim to'g'risida'gi Qonun umumiy va maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o' huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb- hunar tayyorgarligi to'rish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat to'rsatish sohasida faoliyat to'rsatadi va bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari nimalardan iborat?
2. Uzluksiz ta'limni qanday islox qilish yo'nalishlari mavjud?
3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlarini sanab bering.
4. "O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim siyosatining tamoyillarini ta'riflang
5. Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining qanday asosiy yo'nalishlari mavjud?
6. Milliy dasturni amalga oshirishning nechta bosqichlari bor?
7. Shaxs - Milliy modelning asosiy komponenti ekanligini isbotlab bering.
8. Milliy modelning qanday komponentlari mavjud?

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

Quyidagi "Toifalash jadval"larini to'ldiring:

1-jadval

<b>Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari</b>	<b>Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari mazmuni</b>

2-jadval

<b>Uzluksiz ta'lim turlari</b>	<b>Uzluksiz ta'limni turlari mazmuni</b>

3-jadval

<b>Uzluksiz ta'limni islox qilish yo'nalishlari</b>	<b>Uzluksiz ta'limni islox qilish yo'nalishlarining mazmuni</b>


Quyidagi “Toiflash jadval”larini to’ldiring:

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim siyosatining tamoyillari	O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim siyosatining tamoyillarining mazmuni

2-jadval

Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo’nalishlari	Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo’nalishlarining mazmuni

Milliy dasturni amalga oshirishning qanday bosqichlari mavjudligini bo’ycha jadvalni to’ldiring:

3-jadval

Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari (yillari)	Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlaridagi ishlar

#### **4-MA’RUZA.UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O’RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA’LIMINING O’RNI VA AHAMIYATI**

##### **Asosiy savollari**

1. “O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi” (O’MKHT) tushunchasi.
2. O’MKHT ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji tushunchalari.
3. O’rta maxsus, kasb-xunar ta’limi haqidagi diplom.

##### **Tushunchalar va tayanch iboralar.**

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, kasb-hunar kollejalari, akademik-litsey, madaniyat, san’at

**Darsning maqsadi:** ‘O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi’ (O’MKHT) tushunchasi. O’MKHT rivojlanishi maqsadi. O’MKHT rivojlanishi tamoyillari: ilgarilanma, kasbiy ta’lim, uzluksizlik, ketma-ketlilik, insonparvarlik, demokratiklik. O’MKHT tizimining tavsifi va o’ziga hos jihatlari: majburiylik, 9-yillik ta’limdan so’ng barcha uchun kafolatlangan kirish, ta’lim maskanini erkin tanlash huquqi (akademik litsey, kasb- hunar kolleji), bepul ta’lim, davlat byudjetidan moliyalashtirish, byudjetdan tashqari daromat keltiruvchi faoliyat yuritish huquqi. O’MKHT ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji tushunchalari. O’MKHT ta’lim muassasalari maqsad va vazifalari. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi haqidagi diplom.

##### **1-savon bayoni:**

Umumiy ta’lim negizida muddati uch yil majburiy maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turdir. Maxsus, kasb-hunar ta’limi uo’t akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Qonunning 3-moddasida O’rta maxsus, kasb-xunar ta’lim olish maqsadida xar kim umumiy ya ta’lim asosida akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o’qishning uo’nalishi ixtiyoriy ravishda tanlash xuquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari egallangan kasb-xunar bo’ycha ishlash xuquqini

beradigan xamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-xunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-xunar kolleji o'quvchilarning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-xunar o'quv yurtidir.

## **2-savol bayoni.**

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-xunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur: akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb- hunar dasturlari, o'quv- uslubiy majmualar ishlab chiqish;

akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

*O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish*

Kasb-hunar kollejlarida chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim berish, o'quvchilarning

intellektual rivojlanishini va ularning qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlagan kasb-hunar bo'yicha mutaxassisliklarni egallashini ta'minlash maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari hisoblanadi:

davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish;

o'quvchilarning uzluksiz ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishi, tanlangan mutaxassisliklar mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur va yetarli bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga ehtiyojini qondirish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda kunduzgi o'qish shaklida amalga oshiriladi.

Akademik litsey - muddati uch yil, davlat ta'lim standartlariga muvofiq maxsus ma'lumot beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan holda sh ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'qishni oliy ta'lim muassasida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ra'yobga chiqarish maqsadida bilimlar darajasini oshirishni va maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydigan o'qish yo'nalishini (ta'lim fanlari va kurslarini puxta o'zlashtirish sohasi: gumanitar, tabiiy- ilmiy) ixtiyoriy ravishda tanlaydilar.

Akademik litseylar, qoidaga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etiladi, ularning o'zaro munosabatlari ularning ustavleri hamda boshqa meyoriy hujjatlar bilan tartibga solib boriladi.

Soha bo'yicha, tabaqalashtirilgan holda puxta o'qitishni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan bitim asosida akademik litseylarga homiylik qiladilar.

Kasb-hunar kolleji-o'qitish muddati uch yil, davlat ta'lim standarti doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti beradi, o'quvchilarning kasb-hunar layoqatlarini, ko'nikma va o'quvlarini rivojlantirishni, ularning tanlangan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir nechta mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Kasb-hunar kollejlarda kasbga o'qitish yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq, respublika hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, shuningdek mehnat bozorining kichik mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Kasb-hunar kollejlari uchun ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari tomonidan barqaror ishlaydigan korxonalar va tashkilotlardan vasiylar belgilanadi, shuningdek turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularga homiylik amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejida kasb-hunar va ta'lim dasturlarini bajarish o'qitishning ikki tomonlama tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin, bunda o'quv-ta'lim jarayoni va kasb-hunarga tayyorlash tegishli ravishda kollejda va korxonada olib boriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va xodimlarining ijtimoiy kafolatlari, ularni qo'llab-quvvatlash va ularga beriladigan imtiyozlar qonun hujjatlariga va tegishli meyoriy hujjatlarga, shuningdek ta'lim muassasasi Ustaviga muvofiq belgilanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli soha mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni

hisobga olgan holda, o'quvchilarni oiladan uzoqlashtirmasdan imkoni boricha ko'proq qamrab olish sharoitlaridan kelib chiqib tashkil etiladi .

### 3-savol bayoni:

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitiruvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda:

akademik litseylar uchun - fanlar bo'yicha o'qitilgan soha;

kasb-hunar kollejlari uchun - Klassifikatorga muvofiq mutaxassislik (mutaxassisliklar) bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.

Diplomlarga o'zlashtirilgan umumta'lim va maxsus (kasb-hunar) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo'yicha baholar (reytinglar), shuningdek bitiruvchining umumiy reytingi va yakuniy davlat attestatsiyasining natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi.

Akademik litseyni tugatganlik to'g'risidagi diplom oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish hamda olingan bilimlarni mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejini tugatganlik to'g'risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat faoliyatini amalga oshirish hamda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish huquqini beradi<sup>2</sup>.

Respublikadagi madaniyat va san'at KXX ruyxati quyidagicha berilgan:

1. Toshkent madaniyat kolleji.
2. Respublika Estrada-sirk kolleji.
3. Bekobod san'at kolleji.
4. Guliston san'at kolleji.
5. Jizzax san'at kolleji.

№	Tushunchalarga topshiriqlar	Tushunchalar
1.	Ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l- yo'riqlar, usullar majmui (5 ta)	Metod
2.	Ta'lim nazariyasi (9 ta)	Didaktika
3.	Shaxsning o'zaro bir-biri, jamiyat a'zolariga nisbatan qabul qilingan meyorlar asosidagi munosabatlari, hatti-harakatlari majmui, jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq meyorlari; 2) xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab (5 ta)	Axloq
4.	O'quvchi yoki talabaning individual salohiyati, imkoniyatlari ifodasi (8 ta)	Qobiliyat
5.	O'quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi (6 ta)	Ta'lim
6.	O'quvchi yoki talabada muayyan o'quv materiali va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahorat (6 ta)	Malaka
7.	Ilm-fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan oliy ilmiy muassasa (8 ta)	Akademiya
8.	Pedagogik amaliyotda o'z tavsifiga ko'ra ommaviy tajribalardan farqlanuvchi (7 ta)	Yangilik
9.	O'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallashga yo'naltirilgan o'quv muassasasi (6 ta)	Kollej

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizom» 204-son qarori.

## 5-MA'RUZA.TA'LIMNI STANDARTLASHTIRISH. O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

### Asosiy savollari

1. Standart, standartlashtirish meyorlari tushunchalari.
2. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari.
3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni (davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalar va dasturlari).

### Tushunchalar va tayanch iboralar.

standart, standartlashtirish, davlat ta'lim standarti, reja, dasturi

**Darsning maqsadi:** Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich davrlarida standartlashtirish ko'rsatkichlarini vujudga kelishi. Xalqaro va milliy standartlar. Standart, standartlashtirish meyorlari tushunchalari. Ishlab chiqarishda standartlashtirish. O'zbekiston Respublikasida "Standartlashtirish to'g'risida" gi Qonun. Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O'MKHT davlat ta'lim standartlarining funksiyalari O'MKHT DTS maqsadi, funksiyalari, vazifalari, tamoyillari. O'MKHT DTS. DTSga, uni ishlab chiqish va amalda qo'llashga qoyiladigan talablar. DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari. DTSning tarkibiy qismlari. Standartlashtirish obyektlari. DTS mazmuni. DTSning Davlat va milliy-mintaqaviy tarkibiy qismlari. Bozor munosabatlariga o' sharoitlarida kasbiy ta'lim sifatiga talablar. DTS kiritilishi kasb-hunar kollejlari malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholashning asosiy maqsadi sifatida. "Ta'lim sifati", "ta'lim sifatini nazorat qilish", "ta'lim sifatini baholash" tushunchalari. Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKHT ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni (davlat ta'lim standartlari, rejalar va dasturlari). O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari turlari va ulardagi ta'lim-tarbiya jarayoni.

### 1-savol bayoni.

*Standart* - muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjat.

*Standartlashtirish* - mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalaniladigan qoidalarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan faoliyat.

*Davlat ta'lim standarti* (DTS) - ta'lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunini o'zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, nizomlar, o'quv rejasi va boshqa meyoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. DTSni, uning talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysinishdan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizomning umumiy qoidalarida quyidagilardan iborat: 'Ta'lim to'g'risida'gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qoidalariga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

DTS - standartlashtirish obyektiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilaydi hamda 'Standartlashtirish to'g'risida'gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi.

DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv

yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa meyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga xamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilashi berilgan.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

## **2-savol bayoni.**

DTS ning tarkibiy qismi sifatida umumiy o'rta (kasb - hunar va oliy) ta'lim muassasalari uchun tayanch o'quv rejasi ishlab chiqiladi. Tayanch o'quv reja ta'lim sohalarini meyorlash hamda ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini ta'minlashga asos bo'luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini ta'lim oluvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini belgilaydi.

*Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:*

ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

ta'limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish; sifatli ta'lim xizmatlari to'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

ta'lim jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash;

mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

*Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:*

ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi meyoriy negizni yaratish; xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish ularning yash bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;

---

<sup>3</sup> Davlat ta'lim standard to'g'risidagi Hizom. O'zR VM 05.01.98 y. 5-son Qarori 1-ilova

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkredetatsiya qilishni joriy qilish;  
kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;  
milliy standartlar talabini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash<sup>4</sup>.

*Ta'limning standartlashtirish obyektlari.* Quyidagilar ta'limning standartlashtirish obyektlari hisoblanadi:

Ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasi hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorgarlik sifati.

Talablar, meyorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vositalari, shuningdek ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar.

Ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga va kasb-kor malakasiga tashxis qo'yish tartibi, bitiruvchilarning sifatini, ta'lim faoliyati, pedagog va ilmiy-pedagog xodimlar sifatini baholash.

*Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.* Quyidagilar DTSni ishlab chiqishga qo'yiladigan asosiy talablar hisoblanadi:

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlari, vazifalari va qoidalari so'zsiz amalga oshirilishiga qaratilganlik.

Ta'lim va kasb-hunar dasturlarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy madaniy an'analar, xalqning intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar prinsiplarini hisobga olish.

Ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlash.

Xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fan rivojlanishi darajasi, kadrlar tayyorlashga nisbatan amaliyot tomonidan qo'yiladigan talablar hisobga olingan holda ta'lim standartlarining ilmiy asoslanishi.

Ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha standartlarning kelishilganligi va izchilliligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda ularning kompleksligini ta'minlash.

O'quv yuklamasi maqbulligiga qaratilganlik, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda ta'limning tabaqalashtirilishi imkoniyatlarini hisobga olish.

Ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, ta'lim faoliyatini sifatini baholash mezonlari va tartibotini belgilash.

Standartning texnologikligi - uning bajarilishini nazorat qilish va uning meyorlari va talablari buzilishining oldini olish imkoniyati;

Standartlarga tajribada tekshiruvdan o'tgan ta'lim faoliyatining ilg'or meyorlarini kiritish.

Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtirishi kerak.

*Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi.*

DTSni ishlab chiqish tanlov shartlarida yoki ta'lim boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan e'lon qilingan innovatsiya loyiqalari asosida amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasi DTS loyihasi ekspertiza qilinishini va eksperimental tekshirishdan o'tishini tashkil etadi, ularning natijalari bo'yicha xulosani rasmiylashtiradi.

DTS Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasining xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

DTS ular tasdiqlangan sanadan boshlab amalga kiritiladi va ta'lim boshqaruvi vakolatli organlari va ta'lim muassasalari tomonidan majburiy ijro etish uchun qabul qilinadi.

Tasdiqlangan DTSga muvofiq ta'lim muassasalariga ega O'YAP vazirliklar va idoralar ta'lim

---

<sup>4</sup> Davlat ta'lim standarti to'g'risidagi Hizom. O'zR VM 05.01.98 y. 5-son Qarori 1-ilova



va kasb-hunar dasturlarini ishlab chiqadi va ularning amaliy ra'yobga chiqaradi.

Ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda yuklamasini tabaqalashtirish, DTS tomonidan belgilangan meyorlardan ortiqcha ta'lim mazmunini belgilash ta'lim boshqaruvi vakolatli organlari va ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari vakolatiga kiradi.

DTSga o'zgartirishlar kiritish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq ta'lim darajasi va kadrlar tayyorlashga nisbatan qo'yiladigan talablar o'zgarishi davomida DTSni tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **3-savol bayoni.**

Davlat ta'lim standarti maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun quyidagilardan iborat:

So'z boshi

I. Asosiy qoidalar

II. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

III. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar

*So'z boshi.* O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari Oliy va ya maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan 'Ta'lim to'g'risida', 'Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida', 'Standartlashtirish to'g'risida'gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda Vazirlar Mahkamasining 'Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida' 1998 yil 5 yanvardagi 5-son, 'O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida' 1998 yil 13 maydagi 204-son qarorlariga muvofiq ta'lim turlari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida Xalqta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan.

Ushbu standartni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsatisiz to'liq yoki qisman ko'chirib olish, ko'paytirish va rasmiy nashr sifatida tarqatish mumkin emas.

*I. Asosiy qoidalar.*

Qo'llanish sohasi

Ushbu standart o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari majmuining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning:

maqsad va vazifalarini;

asosiy tushunchalarini, tamoyillarini va standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishni;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirish sohasidagi meyoriy hujjatlarning toifalarini aniqlab beradi.

Ushbu standart:

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarining tuzilishini;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishni;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari talablarining bajarilishini nazorat qilishni belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasining 16.10.2000. 40-sonli qaroriga 2-ilova.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari ta'limni boshqarish davlat organlari hamda idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo'llanilishi majburiydir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi qonunlar va meyoriy hujjatlar asos qilib olindi:

'Ta'lim to'g'risida'gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

'Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida'gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 'Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida' 1998 yil 5 yanvardagi 5-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 'O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida' 1998 yil 13 maydagi 204-son qarori;

O'Z DST 1.0-98. 'O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar';

O'z DST 1.1-92. 'O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari';

O'z DST 1.10-93. 'O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar';

O'z DST 1.5-93. 'Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ishlar olib borish qoidalari. Standartni tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar';

O'z DST 1.8-94. 'O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Yetakchi hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartiblari';

O'z DST 1.9-95. 'O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Soha standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va davlat ra'yxatidan o'tkazish tartiblari';

O'z DST 1.8-94. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Amal qiladigan hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, davlat ra'yxatidan o'tkazish tartibi va tavsiyalar.

O'z DST 6.01.1-95. O'zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar.

O'z DST 6.01.2-95. O'zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.

Ta'riflar

Mazkur standartda quyidagi ta'riflar va atamalar qo'llanilgan:

O'zbekiston uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi ta'lim jarayonini belgilab berish, t asosiy mazmunini, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malaka talablarini, kadrlar

tayyorlash sifati va ta'lim muassasalari faoliyatini baholash mezonlari va mexanizmlarini aniqlash orqali kadrlar tayyorlash sohasida eng maqbul tartibga solish darajasiga va ya maxsus, kasb-hunar ta'limining kafolatlangan darajasi va sifatiga erishishga qaratilgan meyoriy hujjatlar majmui.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) tarmoq standarti malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov uo'tSh va kasb-hunar O'UYUYA ta'lim mazmunining majburiy minimumini va so'nggi maqsadlarini, yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi meyoriy hujjat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (O'MKHTTYKIUT) o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

Kasb faoliyati sohasi kasbga doir bilim, malaka va ko'nikmalarning qo'llanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiyot sohalari bilan muvofiqlashtiriladi.

O'MKHT muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari aniq kasb faoliyati sohasida mutaxassislarga kasb ta'limi berish doirasidir. Mutaxassislarni kasb faoliyatining aniq sohasi bo'yicha tayyorlash yo'nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni bilan belgilanadi.

O'MKHT ning umumiy ta'lim dasturi umumiy ta'lim tayyorgarligi mazmunini aniqlovchi hujjatlar to'plami. Umumiy ta'lim dasturini muvaffaqiyatli egallash akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga ularning oliy ta'lim muassasalarida ta'limni davom ettirishlari

uchun teng imkoniyat va huquqlarni ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ta'limning navbatdagi pog'onalarida bilim olishga tayyorlashni ta'minlash hajmidagi ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va aniq fanlarni o'z ichiga oladi.

O'MKHT ning kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar ta'limi tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi hujjatlar to'plami. Kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi bo'yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi ma'lum kasbga doir umumkasbiy va maxsus fanlarni hamda ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini o'z ichiga oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturini muvaffaqiyatli egallash kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kasbi va ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlaydi.

Maxsus kasb-hunar ta'limi dasturi maxsus kasb-hunar ta'limi tayyorgarligi mazmunini belgilovchi, akademik litseylarning tayyorlov yo'nalishiga mos keladigan va o'quvchilarning aqliy rivojlanishini jadallashtiradigan, ularda maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantiradigan, o'quvchilarning oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishini yoki ularni mehnat faoliyatiga yo'llashni nazarda tutgan fanlarni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan hujjatlar to'plamidir.

Maxsus kasb-hunar ta'limi dasturi fanlarni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan alohida ijtimoiy, tabiiy-ilmiy yoki ilmiy-texnik va aniq fanlarni o'z ichiga oladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirishning maqsadi va vazifalari

O'MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

O'MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

O'MKHTning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish; sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

O'MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash;

mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

O'MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, tosatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

O'MKHTga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi meyoriy negizni yaratish; xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

O'MKHT o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirish tamoyillari. O'MKHT standartlarini ishlab chiqishda quyidagilarni ta'minlash zarur:

ta'limning uzluksizligi va uzviyligi;

mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, fan-texnika va texnologiyalarning istiqbolli

rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish;  
ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mujassamligi;  
matnlar bayonining aniqligi va yagona qiymatliligi;  
fan, texnika hamda texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga, respublikadagi va chet ellardagi  
ilg'or tajribalarga mos kelishi;

*O' MKHT maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi.*

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirish O'UYUYA ishlarni tashkil qilish  
Respublikada O'MKHT ni standartlashtirishni tashkil qilish, muvofiqlashtirish, unga metodik  
rahbarlik qilish va uning maqbul darajasini ta'minlash Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli  
davlat organi (TBBVDO) tomonidan amalga oshiriladi.

O'MKHT standartlarining mazmuni, Davlat standartlari tizimining O'Z DSt 1.O-98  
'O'zbekiston Respublikasi standartlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va  
ro'yxatga olish tartibi'ga to'g'ri kelishi zarur.

O'MKHT davlat standartlari va ularga kiritiladigan o'zgartirishlar O'zbekiston davlat  
standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalash markazi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi  
taqozo etiladi.

O'MKHTning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari bo'yicha ta'lim standartlarini  
tasdiqlash 3 yillik to'liq ta'lim sikli mobaynida pedagogik tajriba-sinov ishlarini  
muvaffaqiyatli yakunlab, ularga ekspert baho berilgach, amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Davlat ta'lim standartlari (DTS)ga o'zgartirishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi tomonidan respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga mos ravishda, ta'lim  
darajasi va kadrlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarini e'tiborga olgan holda, DTSlarini  
tasdiqlash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirish sohasidagi meyoriy hujjatlarning  
toifalari, standart turlari

O'MKHT standartlari quyidagi toifa va turlarga bo'linadi:

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari (O'z DTS) O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan standartlar.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar bo'yicha tarmoq standartlari (TSt) O'zbekiston  
Respublikasi TBBVDO tomonidan tasdiqlangan standartlar. Ular quyidagilardir:

akademik litseylar tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ta'lim standartlari;

kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisoslar bo'yicha ta'lim  
standartlari;

'O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqishga  
qo'yiladigan talablar' standarti.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar bo'yicha tarmoq standartlari (TSt) ilmiy-tadqiqot  
va ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilotlar va ta'lim faoliyatining boshqa subyektlari  
tomonidan ishlab chiqiladi.

*O' rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoq standartlarining tuzilishi*

Akademik litseylar tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ta'lim standartlari quyidagi tuzilishga  
ega:

Zarvaraq (Titul varag'i)

Qo'llanish sohasi Meyoriy hujjatlar Standartning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylarda ta'lim mazmunining majburiy minimumi Akademik litsey  
bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar Akademik litsey tayyorlov yo'nalishlari  
bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi (fanning nomi, asosiy o'quv elementlari)

Standart talablari bajarilishini nazorat qilish

Kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo'yicha ta'lim  
standartlari quyidagi tuzilishga ega:

Zarvaraq (Titul varag'i)

Qo'llanish sohasi Meyoriy hujjatlar Standartning maqsadi va vazifalari Ta'riflar

Kasbiy tavsifnoma:

tayyorlov yo'nalishi, kasb va ixtisosliklarning nomlari;

tayyorlov uo'tSht qo'llanish sohasi va vazifalari;

malaka;

o'qishga qabul qilish shartlari (mazkur mutaxassislikni egallash uchun shaxsning tayanch hisoblanuvchi ruhiy-fiziologik sifatlari minimumi, yosh va jinsiy xususiyatlari, tibbiy cheklanishlar bo'yicha ishga qabul qilish tartibi haqida ma'lumotlar triadi).

Kasb-hunar tayyorgarligi mazmunining majburiy minimumi 'quv davrlari, fan sohalari, shuning-dek mazkur fan sohalarining elementlari va ularni : darajalari satii).

Namunaviy o'quv reja quyidagi qismlardan tashkil topadi:

umumiy ta'lim qismi;

kasbiy ta'lim qismi (umumkasbiy, maxsus fanlar);

va ishlab chiqarish amaliyoti;

fakultativ mashg'ulotlar va (yoki) muassasasi ixtiyoridagi soatlar.

Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish.

*O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish*  
O'MKHT davlat standartlari talablariga rioya qilish ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Nazorat qilishning bosh vazifasi, O'MKHT davlat standartlari va tarmoq standartlari talablarining buzilishini aniqlash, oldini olish va bartaraf qilishdir.

Ushbu standart talablariga rioya qilish ustidan nazorat quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

davlat ta'lim standartlari asosida turli muassasalarida bitiruvchilar egallashi lozim O'YAP bilim, to'nikma va malakalarga baho berish;

reja va dasturlarni tahlil qilish;

muassasasida foydalaniladigan pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish.

9.4. Standart talablarining buzilganligi uchun javobgarlik amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.

*O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar.*

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni standartlashtirish:

O'MKHT muassasalari bitiruvchilarining bilim sifati va kasbiy malakasiga qo'yiladigan talablarni standartlashtirishning maqsad va vazifalarini belgilashdan;

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni standartlashtirish sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashdan;

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar, shu jumladan malaka talablari mazmunini belgilashdan;

Standart talablarining bajarilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirishdan iborat.

'O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar' idoraviy bo'ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yakka shaxslarni ham hisobga olgan holda barcha davlat boshqaruv organlari va ta'lim faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan subyektlar tomonidan bajarilishi shart.

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni standartlashtirishning maqsad va vazifalari

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni standartlashtirishning maqsadi davlat va jamiyat, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorlari talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashning davlat kafolatlarini ta'minlashdir.

Ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni standartlashtirishning vazifalari quyidagilar:

kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislar darajasida kadrlar tayyorlash ko'rsatkichlarini belgilab berish;

akademik litseylar bitiruvchilarini o'rta maxsus ta'lim darajasida tayyorlash ko'rsatkichlarini belgilab berish;

O'MKHT muassasalari uchun pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, ta'lim beruvchilarni ishonchli axborot bilan ta'minlash.

O'MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar  
O'MKHT muassasalari bitiruvchilarga qo'yiladigan talablar quyidagi ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan tavsifnomasidan iborat:  
fundamental fanlar va aniq kasb sohasi doirasida nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish;  
kasbiy mohirlik va tafakkur doirasining yetarli shakllanganligi;  
tashkilotchilik va tadbirkorlik xislatlarining shakllangan bo'lishi;  
davlatning tuzilishi, uning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi haqida aniq bilimlarga ega bo'lish, xalqaro voqea, hodisa va muammolarni tushuna olish;  
mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalari shakllangan bo'lishi;  
turli vaziyatlarni tanqidiy baholash, yangiliklarga doimiy intilish;  
o'zbek tilini mukammal bilish, davlat tilida yozma va og'zaki ravishda erkin muloqotda bo'lish;  
umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarini hurmat qilish;  
kompyuterlar va boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish;  
rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda, boshqa chet tilini mukammal bilish;  
o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga, boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni kundalik hayotga, turmushga tatbiq eta olish;  
jismoniy baquvvat, sog'lom bo'lish, harbiy xizmatga va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishga layoqatli bo'lish;  
ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan o'zini o'zi doimo takomillashtirish xislatlariga ega bo'lish; bilimlarni doimo oshirib, yangilab borishga intilish, va mehnat faoliyatiga ijodiy, mustaqil yondashish sifatlariga ega;  
mantiqiy fikrlashning uslublari va usullarini bilish, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish malakasiga ega;  
huquqiy bilimlar asoslariga ega;  
iqtisodiy bilimlar asoslariga ega to'lish;  
zamonaviy axborot vositalari bilan ishlashning amaliy alarim mustahkam egallash;  
ma'naviy-axloqiy madaniyatga ega;  
siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burch va mas'uliyat hislari shakllangan bo'lishi;  
ekologik madaniyatga egalik kasbiy faoliyatda ekologik mas'uliyatni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega;  
fanlari bo'yicha oliy ta'lim muassasasida tahsil olish uchun zarur O'YAP bilimlar majmuiga ega O'SH.

*O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayanch o'quv rejasi*

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartining tayanch rejalari ta'lim mazmunidan kelib chiqib akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nilishi bo'yicha alohida tuziladi.

Tayanch rejalari O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ishchi rejalari ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch rejasida yili 40 hafta va 2 semestrda iborat. Har bir semestr 20 haftani ichiga oladi.

Tayanch rejalari umumiy 4560 soatdan 80-220 soat ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.

Ta'lim muassasalari o'quvchilarining haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soati mustaqil ishlashga ajratiladi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o'quv rejaları 2, 3 va 4 jadvallarda keltirilgan.

Ta'lim muassasalari ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o'quv rejalarini tuzishda tayanch o'quv rejalarini ta'lim standartlari talablari doirasida 15-20% gacha o'zgartirish huquqi beriladi.

4-jadval

Akademik litseylar uchun tayanch o'quv rejasi

<b>F anlar</b>	<b>Soatlar soni</b>	<b>Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida</b>
<b>Umumta'lim fanlari</b>	<b>1940</b>	<b>42,5%</b>
<b>Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar</b>	<b>1400</b>	<b>30%</b>
<b>Qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar</b>	<b>650</b>	<b>14,2%</b>
<b>Maxsus fanlar</b>	<b>290</b>	<b>5%</b>
<b>Davlat attestatsiyasi</b>	<b>70</b>	<b>1,6%</b>
<b>Fakultativ kurslar</b>	<b>270</b>	<b>6%</b>
<b>Jami</b>	<b>4560</b>	<b>100%</b>

*Izoh:* Akademik litseylarning o'quv rejaları tayyorlov yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida tuzilib, chuqurlashtirilib va qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar uchun ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga nisbatan 5% gacha o'zgarishi mumkin.

*O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish*

O'MKHT sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

ichki nazorat O'MKHT muassasasi tomonidan amalga oshiriladi;

o'qitish sifatining ichki nazorati ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida'gi Nizom asosida reyting-nazorat shaklida o'tkaziladi. Nazoratning reyting tizimi quyidagi nazorat tadbirlari o'tkazilishini ko'zda tutadi:

joriy nazorat og'zaki so'rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya'ni

o'qituvchi o'z amaliyotida qo'llaydigan barcha so'rov turlarini o'z ichiga oladi.

oraliq nazorat fanning ma'lum bir qismi, bo'limi yakunlangandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

yakuniy nazorat semestr tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

tashqi nazorat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat test markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan 'Ta'lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom' va amaldagi meyoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi;

davlat-jamoat nazorati ta'limni boshqaruvchi vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;

yakuniy davlat attestatsiyasi davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi (loyiha)ni himoya qilish bilan yakunlanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitiruvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi, unda:

akademik litseylar uchun fanlar bo'yicha o'qitilgan soha;

kasb-hunar kollejlari uchun O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi (O'MKXTTYKIUT)ga muvofiq kasblar va

ixtisosliklar bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.

Diplomlarga o'zlashtirilgan umumta'lim va maxsus (kasb-hunar) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo'yicha baholar (reytinglar), shuningdek, bitiruvchining umumiy reytingi va yakuniy davlat attestatsiyasining natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi.

Akademik litseyni tugatganlik to'g'risidagi diplom oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish hamda olingan bilimlarni mehnat faoliyatida ra'yobga chiqarish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejini tugatganlik to'g'risidagi diplom olingan mutaxassislikka muvofiq mehnat faoliyatini amalga oshirish hamda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish huquqini beradi.

*Klassifikator* - bu oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ruyxati. U 8 ta bilim sohasidan iborat (ta'lim, gumanitar fanlar va san'at, ijtimoiy fanlar, biznes va huquq, fan, muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlar, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, xizmatlar). Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish o'uyuya yagona tuzilma tarkibiga kiradi va vazirlar mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 1998 yil 5-yanvar 5-son qarori asosida tayyorlangan.

*O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.*

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalisari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichining maqsad va vazifalari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalisari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi (O'MKXTTYKIUT)ning maqsadi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi tayyorlov yo'nalisagi, kasblar va ixtisosliklar bo'yicha malakali kichik mutaxassislarni tayyorlashning tizimlashtirilgan ra'yxatini belgilashdir.

O'MKXTTYKIUTning asosiy vazifalari:

O'zbekiston Respublikasi hududida kasb faoliyati sohalari bo'yicha bir xil tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarga ega O'YAP kichik mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash;

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar foydalanishlari majburiyligini ta'minlash;

O'MKXTTYKIUTni ta'lim haqidagi meyoriy hujjatlar (ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) va Oliy ta'limning yo'nalishlar va ixtisosliklar tasniflagichi)ni indeksatsiyalash maqsadida boshqa ta'lim turlari bilan muvofiqlashtirish.

Kichik mutaxassislarning kasb faoliyati sohalari

O'MKXT muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash quyidagi sohalar bo'yicha amalga oshiriladi:

Sanoat (mashinasozlik, energetika, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, metallurgiya, geologiya va foydali qazilmalarni ishlab chiqish, kimyo sanoati, yengil sanoat, matbaa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish)

Transport

Aloqa

Qurilish

Uy-joy va kommunal xo'jaligi Qishloq va o'rmon xo'jaligi Sog'liqni saqlash Ta'lim

Madaniyat va san'at Ijtimoiy va iqtisodiy soha

Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalari.

O'MKXTTYKIUTning tasniflash obyektlari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududidagi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar hisoblanadi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari umumdavlat tasniflagichining kodlari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarni



tasniflash olti raqamli sonlar bilan kodlanadi.

Koddagi birinchi uchta raqam ixtisosliklarning kasbiy sohalari; to'rtinchi, beshinchi va oltinchi raqamlar tayyorlov yo'nalishlari hamda kasblarning tartib raqamini ifodalaydi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar kodi kasb faoliyati sohasiga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ro'yxatining raqamli belgisi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat) orasidagi uzviylikni aniqlash va uni ta'minlash maqsadida O'MKHTTYKIUTda oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishlari kodlari ham qavs ichida keltiriladi.

O'MKHTTYKIUTda tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning kodlariga mos keladigan 'Ta'limning xalqaro standartlashtirish tasniflagichi' (MSKO) kodlari ham keltirilishi lozim.

Tasniflagichni tuzishda davlat, jamiyat va mehnat bozori talablari, kasbiy tayyorgarlikdagi tajribalar, ijtimoiy hamkorlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar talablari hisobga olinishi lozim.

3.5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichiga o'zgartirishlar kiritish tartibi

Tasniflagich tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo'luvchi ro'yxati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish vakolatiga ega bo'lgan davlat organiga taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish vakolatiga ega bo'lgan davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari ishlab chiqish bo'yicha yo'riqnomada dastur talablari berilgan.

Umumiy qoidalar. Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2002 yil 21 maydagi 154-sonli 'Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, fan dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to'g'risida'gi buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilib, yaratilayotgan o'quv dasturlarining tarkibi va mazmunini yoritishga qaratilgan hamda barcha bilim sohalari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

O'quv dasturlari 'Kadrlar tayyorlash milliy dasturi'dagi vazifalar asosida uzluksiz ta'lim turlari (umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limning bakalavriati) o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, fanlarda mavzular ketma-ketligi va takrorlanmasligiga alohida e'tibor bergan holda ishlab chiqiladi. O'quv dasturi davlat ta'lim standarti (DTS) ning o'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalariga muayyan fan bo'yicha qo'yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan uslubiy-meyoriy hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturining tarkibi va mazmuni. Namunaviy o'quv dasturining tarkibi quyidagilardan iborat:

-kirish;

-asosiy qism;

-amaliy, seminar, laboratoriya va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar;

-kurs ishlari (loyihalari);

-fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi (mavzular ketma-ketligi va bilim olish dasturi) ning tarkibi;

-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kerakli jihozlar;

-o'qitishning texnik vositalari;

-tavsiya etilayotgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Kirish. Kirish qismida o'qitiladigan fanning maqsadi, dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fanning ahamiyati qisqacha ochib beriladi. Fanni sh maqsad va vazifalari, uning boshqa fanlar bilan yago bog'liqligi (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari, kurs ishi va loyihalari) satii.

Kirish qismining hajmi 14 shrift bilan 1 interval oraliqda O,5 betgacha o' tavsiya etiladi.

Asosiy qism. Fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Mavzular DTS talablari asosida yetkazilishi zarur O'YAP bilim va mami to'la qamrab olishi kerak.

Mavzularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlag, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Asosiy qismda har 2 soatga mo'ljallangan bir mavzuga 14 shrift bilan 1 interval oraliqda O,25 betgacha joy ajratilishi tavsiya etiladi.

Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish O'UYUYA atmar. Asosiy qismda keltirilgan mavzularga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya, kurs ishi (loyihasi) mashg'ulotlarining mavzulari tartib raqami O'UYUYA keltiriladi. Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari soni dasturida keltirilgan mashg'ulotlar sonidan oshib ketmasligi tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mavzuga tegishli bo'lgan jixozlari, laboratoriya jihozlari, o'qitishning texnik vositalaridan (kompyuter, kodoskop, elektron multimediali qo'llanma, elektron darsliklar, maketlar va h.k.) maqsadli ravishda samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni qisqacha ochib beriladi. Mustaqil ishga mo'ljallangan topshiriqlar (mavzular) ma'ruzalar mavzulari, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga qaratilishi tavsiya etiladi.

Mavzular soniga qarab 14 shrift bilan 1 interval oraliqda O,3 dan 2 betgacha joy ajratilishi tavsiya etiladi.

Kurs ishlari (loyihalari)ni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar. Fan bo'yicha kurs ishlari (loyihalari) o'quv rejasida belgilangan bo'lsa, kurs ishlari (loyihalari)ni tayyorlash uslublari va ularning namunaviy mavzulari keltiriladi. Kurs ishlari (loyihalari)ning kengaytirilgan mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar fan o'qituvchilari tomonidan alohida uslubiy ko'rsatma ko'rinishda ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Mavzular soniga qarab 14 shrift bilan 1 interval oraliqda O,3 dan 2 betgacha joy ajratilishi tavsiya etiladi. Har bir o'quv dasturining umumiy hajmi fanga ajratilgan soat miqdoriga qarab 5-15 betgacha bo'lishi mumkin.

Tavsiya etilayotgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini keltirishda zamonaviy xorijiy va mahalliy adabiyotlardan, Internet, turli axborot kommunikatsiya resurslaridan hamda boshqa o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar manbalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

5-jadval

Fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi

№	Fanning bo'limlari va mavzular nomi	Umumiy yuklama, soat							
		Hammasi	Darslar taqsimoti		Turi b	Bo'yicha soatlar o'riya yuklamasi)			Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (ma'ruza)		Amaliy	Laboratoriya ishi	Seminar	
1									

O'quv dasturining ekspertizasi va tasdiqlanishi. O'quv dasturining eksperizasi va tadbig'i quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'quv dasturi tayanch oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining tajribali

professor-o'qituvchilari, yetuk pedagoglari va mutaxassislaridan tegishli bilim sohalari bo'yicha tashkil etilgan, sho'ba kengashlarida muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida O'quv dasturiga ekspertlar guruhidan kamida 2 ta taqriz olinadi.

Barcha fanlar bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlar oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etiladi.

Muhokamadan o'tgan O'quv dasturlari oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

O'quv dasturlarini ro'yxatga olish va amalda qo'llash. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan O'quv dasturi bosh varag'iga tartib raqami qo'yilib ro'yxatga olinadi. O'quv dasturining asl nusxasi O'rta maxsus kasb- hunar ta'limi Markazning DTS bo'limida saqlanadi. O'quv dasturiga o'zgartirishlar kiritilishi lozim bo'lgan taqdirda qayta ishlab chiqilib, yuqorida keltirilgan tartibga asosan dastur qayta ekspertiza va tasdiqdan o'tishi lozim. O'quv dasturi tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi.

O'quv dasturiga mualliflik huquqi. O'quv dasturini tuzish bo'yicha ijodiy guruh tarkibida ishtirok etgan mualliflar o'zlarining ilmiy-uslubiy ishlar ro'yhatiga ushbu dasturni kiritishlari va ushbu dastur bilan tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin. Boshqa mualliflar va uslubchi-olimlar ushbu o'quv dasturlaridan foydalanganligi haqida ma'lumot berishlari shart.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari ishlab chiqish bo'yicha yo'riqnoma. O'MKHT 29.05.2006y. 91-sonli buyru-i 1-ilova.

#### **Mustaqil ish.**

*Quyidagi "Toifalash jadval" "ini bajarang:*

1-jadval

<b>O'quv dasturining tarkibi</b>	<b>O'quv dasturining mazmuni</b>
<b>Kirish</b>	
<b>asosiy qism</b>	
<b>amaliy, seminar, laboratoriya va mustaqil ishlarni tashkil etish O'UYUYA rsatmalar kurs ishlari (loyihalari)</b>	
<b>fan mavzulari yicha rejasi (mavzular ketma-ketligi va bilim olish dasturi) ning tarkibi</b>	
<b>amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kerakli jihozlar</b>	
<b>p texnik vositalari</b>	
<b>tavsiya etilayotgan asosiy va dya adabiyotlar</b>	

*Quyidagi "Tushunchalar tahlili" metodini bajarang:*

<b>Standart</b>	
<b>Standartlashtirish</b>	
<b>Davlat ta'lim standarti</b>	
<b>O'quv reja</b>	
<b>O'quv dastur</b>	
<b>Klassifikator</b>	

## **6- MA'RUZA.O'ZBEKISTON XALQ XO'JALIGINING ASOSIY TARMOQLARI.**

### **Asosiy savollari**

**1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari (sanoat - qishloq xo'jaligi) kichik korxonalar, kichik biznes.**

**2. O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi.**

**3. O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi.**

### **1-savol bayoni**

Xalq xo'jaligi mamlakatimizda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik asosida vujudga kelgan ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidir.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq xalq xo'jaligi ikki katta sohasini – ishlab chiqarish (moddiy ishlab chiqarish) va noishlab chiqarish sohaslarini o'z ichiga oladi.

Ana shu sohalarning tarkibi o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi mamlakatimiz xalq xo'jaligi strukturasi tashkil etadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan yoki iste'molchilarga yetkazib beradigan hamma tarmoqlar kiradi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish jamiyat uchun zarur ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, materiallar, inshoot va hokazolar) hamda iste'mol mollari (oziq-ovqat mollari, kiyimlar, poyabzal va hokazolar) yaratiladi.

Yuk transporti, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha aloqa, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy texnika ta'minoti tayyorlanish va sotish hamda moddiy ishlab chiqarish sohasiga kiradi, chunki bular mahsulotlarni yaratishda yordam beradi va ularning qayta qurilishini ta'minlaydi.

Moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i – sanoatdir. Mamlakatimiz iqtisodiy qudratining asosi og'ir sanoat bo'lib, u ishlab chiqarish vositalarining (materiallar, mashinalar, asbob-uskunalar, priborlarning) ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Yengil va oziq-ovqat sanoatda iste'mol mollari (oziq-ovqat mahsulatlari, gazlama, poyabzal, kiyim va hokazolar) tayyorlanadi. Aholi uchun maishiy madaniy va xo'jalikka mo'ljallangan xilma-xil tovarlarni tayyorlash bilan asosiy mahsulot chiqarishdan tashqari sanoatning iste'nosiz barcha tarmoqlari shug'ullanadi.

Qishloq xo'jaligi sanoatni xom ashyo bilan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. U o'simlikshunoslik (dalachilik, sabzavotchilik, mevachilik, yem-xashak tayyorlash va hokazolar) hamda chorvachilik (qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik, parrandachilik, baliqchilik va hokazolar)ni o'z ichiga oladi.

Qurilishning vazifasi ishlab chiqarish binolari, inshootlar, turar joylar, yo'llar, kasalxonalar, maktablar va boshqa obyektlarni qurish va qayta qurishdir. Transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa qurilishlar bir-biridan farq qiladi.

Transport xalq xo'jaligi va aholini xilma-xil yuklarni tashish ehtiyojini uzluksiz hamda o'z vaqtida ta'minlaydi.

Aloqa jamiyatning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatida, aholining madaniy maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. U axborotlarning uzatilishini ta'minlaydi va pochta, telegraf, telefon, radio, televideniyaning o'z ichiga oladi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari strukturasi to'xtovsiz takomillashmoqda. Masalan, sanoatda atom energetikasi va atom mashinasozligi kabi yangi tarmoqlar, elektron, mikrobiologiya sanoati va hokazolar vujudga keldi.

Xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirish – tarmoqlararo xalq xo'jaligi komplekslarini vujudga keltirishdir. Bunday komplekslarning bir nechta tulari bor.

Mashinasozlik kompleksi mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini mehnat vositalari bilan ta'minlaydi, shunga ko'ra ularning rivojlantirish sur'atini va ishlab chiqarish

samaradorligini ham ko'p darajada belgilaydi. Bu kompleksga energetika, og'ir mashinasozlik va transport, kimyo va neft, qurilish, yo'l mashinasozligi, stanoksozlik va asbobsozlik, elektrotexnika, elektron sanoat, priborsozlik, avtomobil sanoati va boshqa ayrim tarmoqlar kiradi. Bu kompleksga energetika, og'ir mashinasozlik va transport, kimyo va neft, qurilish, yo'l mashinasozligi, stanoksozlik va asbobsozlik, elektrotexnika, elektron sanoat, priborsozlik, avtomobil sanoati va boshqa ayrim tarmoqlar kiradi.

Mashinasozlik kompleksini, birinchi navbatda stanoksozlik, hisoblash texnikasi ishlab chiqarish, priborsozlik kabi tarmoqlarni, elektrotexnika va elektron sanoatni jadal rivojlantirish mo'ljallangan. Fan texnika taraqqiyoti eng avvalo mana shularning rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Konstruksion materiallar ishlab chiqarish kompleksiga qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft, sellyuloza va yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari kiradi.

Xalq xo'jaligi kompleksini dinamik va proporsional rivojlantirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish tomon keskin burilish yo'liga o'tish, uning sifati va samaradorligini oshirish vazifasini qo'ydi. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy vositalari fan texnika taraqqiyoti jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tubdan o'zgartirish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bazasida xalq xo'jaligini chuqur rekonstruksiyalashdir. Bunday rekonstruksiyalash barcha tarmoqlar va xalq xo'jaligi komplekslariga, birinchi navbatda mamlakat iqtisodiyotining poydevori – og'ir sanoatga taalluqli bo'lib, mashinasozlikning rivojlanishi birmuncha tezlashtirish chiqarilayotgan mahsulotlarning texnikaviy darajasini tubdan yuksaltirish talab qilinmoqda.

Agrosanoat kompleksi tarmoqlarini jadal va proporsional rivojlantirish qishloq xo'jaligini industrial bazasiga o'tishini tugallash, barcha tarmoqlarini xo'jalik ekinlarini hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini ta'minlashga mo'ljallangan.

Yengil sanoat va bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan tarmoqlarni, transport va aloqani jadal rivojlantirish zarur. Kapital qurilishni sifat ihatdan yangi industrial va tashkiliy darajaga ko'tarish rejalashtirilmoqdaki, busiz xalq xo'jaligini texnik rekonstruksiyalash mumkin emas.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishda, xo'jalik masalalarini oqilona hal qilishda rejalashtirish katta rol o'ynaydi. Rejalashtirish – zamonaviy sharoitda xalq xo'jaligini boshqarishning markaziy zvenosidir. Xalq xo'jaligi rejalarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, besh yillik va yarim yillik rejalaridir. Har qanday korxonalar faoliyati rejaga asoslanadi. Yuqori tashkilotlar (vazirliklar, idoralir)korxonalar rejalarining faqat eng zarur ko'rsatkichlarini: mahsulot ishlab chiqarish hajmi va muddati, buyumlarining asosiy turlari hamda boshqa ba'zi narsalarni tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari uchun qishloq mahsulotlarini xarid qilishda erkinlik va davlat rejaları belgilanadi. Xo'jalik va turli ekiladigan maydonlarini, chorva mollari boshini, har xil ishlarini amalga oshirish muddatlarini o'zlari mustaqil holda rejalashtiriladi.

Korxonalar xo'jalik hisobi sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi uchun mehnatni yaxshi tashkil etish, tejamkorlikning g'oyat jiddiy rejimi zarur. Bunday vazifa xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, elektro-energiya, yer-mulk va ishchilardan kam miqdorda foydalanib ko'p mahsulot olishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimining ma'nosiham shundadir. Bu rejim oddiy narsalardan vujudga keladi.

Ishlab chiqarishda buyumlarni kam material ketadigan qilish, qimmat tabiiy materiallar o'rniga sun'iy materiallar ishlatish, buyumlarning chidamliligini oshirish, kam chiqindiligi, resurslari iqtisod qiladigan texnologiyani joriy etish orqali materiallarni tejashga erishiladi.

Har bir ishchining ish vaqtidan rasional va to'liq foydalanish – ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimini kuchaytirishning asosiy shartlaridan biridir. Ish vaqti bunday foydalanish bir yo'la ko'p mahsulotlar tayyorlash, shu orqali uning tan narxini arzonlashtirish va korxonaning foydasini ko'paytirish imkonini beradi.

Ish vaqti mehnat sarflanishning eng muhim o'lhovidir. Mehnat sarflashning samaradoligi – mehnat unumdoligidir. U vaqt birligi ichida tayyorlangan buyumning miqdorida o'z ifodasini topadi.

Mehnat unumdorligi anchagina omillarga, ya'ni texnika va ilg'or texnologiyani joriy etishga, ishlarni sifatli tashkil qilishga, mehnat intizomini mustahkamlash, ishchilarni malakasini oshirish va hokazolar orqali sarflanadigan ish vaqtini qisqartirishga bog'liq. Mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini yuksalishining asosiy omillaridir.

Kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: byudjet orqali bevosita yordam puli. Pul hajmi kichik biznes sug'urta qilinmagan zararlarni qoplash uchun belgilangan bo'lishi kerak. Yordam puli innovasiyaning xavfli loyihalarini qoplaydi va katta biznes talab qilmaydigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Davlat bank kreditlarni olishda kafil sifatida chiqadi. Shuning uchun mayda biznesga kredit olish ancha yengilroq kichik biznes soliq imtiyozlariga ega bo'lishi kerak. Agar firma ijtimoiy tarmoqqa yoki ishlab chiqarish rivojlanishiga ajratilgan mablag'ini ko'paytirsa, soliq solinadigan ulushni qisqartirishi mumkin.

## **2-savol bayoni**

Tasniflagich loyihasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining Davlat ta'lim standartlari bo'limi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tasniflagich loyihasi:

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot, moliya, qishloq va suv xo'jaligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalq ta'limi, madaniyat ishlari bo'yicha, ichki ishlar, favqulotda holatlar va adliya vazirliklarida;

O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va davlat mulkini boshqarish, statistika, raqobatchilikni rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish, soliq, davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mineral manbalar va geologiya, qurilish va arxitektura, jismoniy va sport, davlat kadastri va kartografiya, geodeziya, yer resurslari davlat qo'mitalarida;

O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalari bo'yicha, iqtisodiy aloqalar, O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va aloqalar, axborotlar va matbuot standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, O'zkommunxizmat, avtomobil va daryo transport vositalari «O'zarxiv» agentliklari va O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqlari agentliklarida;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazida;

O'zbekiston Respublikasi: uchish xavfsizligini nazorat qilish, elektroenergiyani nazorat qilish, tog' va sanoat xavfsizlik ishlarini olib borishini nazorat qilish, yuklarni temir yo'l orqali tashish xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha Davlat inspeksiyalari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va muhim suv xo'jalik obyektlarini va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat inspeksiyasi, gaz va neft mahsulotlaridan foydalanishni nazorat qilish, Davlat non inspeksiyalarida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari Tasniflagichning tasniflash obyektlari hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

## **Qo'llanish sohasi**

Mazkur Tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari va boshqa meyoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari, Respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlari mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar uchun mo'ljallangan.

**Tasniflagichda quyidagi to‘qqizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

*100000 – ta’lim;*

*200000 – gumanitar fanlar va san’at;*

*300000 – ijtimoiy fanlar;*

*400000 – fan;*

*500000 – muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;*

*600000 – qishloq ho‘jaligi;*

*700000 – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot;*

*800000 - Xizmatlar;*

**Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi**

Hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish.

Milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarni taxminlash va tartibga solish.

Ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketadigan sarflarni aniqlash.

Mehnatga haq to‘lashni tartibga solish va meyorlashtirishni takomillashtirish.

Xalq xo‘jaligining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash va asoslangan uzluksiz ta’lim dasturini ishlab chiqish.

Mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta’minlash.

**«Kichik mutaxassis» malakasi toifasiga kirmaydigan shaxslarni mutaxassisliklarining belgilanishi**

Tasniflagichning 4-ustunida intellektual layoqati(aqliy rivojlanish xususiyatlari) buzilgan shaxslarni o‘qitish mumkin bo‘lgan birdan-bir ixtisosliklar bitta yulduzcha (\*) bilan ko‘rsatilgan. Ushbu mutaxassisliklar O‘zbekiston Respublikasi mehnat va ijtimoiy ta’minot vazirligi tomonidan tasdiqlangan aqliy va jismoniy jihatdan kamchilikka ega shaxslarni o‘qitish mumkin bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklar asosida belgilangan. O‘qish muddati kasallik darajasiga qarab 1 yildan 2 yilgacha.

### **Nazorat savollari**

1. Kasb-hunar ta'limining qanday didaktik tushunchalari mavjud?
2. Mazkur didaktik tushunchalarga izoh bering.
3. Kasb-hunar ta'limida qanday umumdidaktik tamoyillar mavjud?

*Mustaqil ish topshiriqlari:*

Quyidagi "Toifalash jadvaHarini to'ldiring:

1-jadval

<b>Kasb-hunar ta'limining asosiy didaktik tushunchalari</b>	<b>Kasb-hunar ta'limining asosiy didaktik tushunchalari mazmuni</b>

2-jadval

Kasb-hunar ta'limining didaktik tamoyillari	Kasb-hunar ta'limining didaktik tamoyillar mazmuni

## 10-MA'RUZA.KASBIY PEDAGOGIKADA QO'LLANILADIGAN ILMIY TADQIQOT METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

### Asosiy savollar:

1. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari.
2. Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari.

### Tushunchalar va tayanch iboralar.

Uslubiyot, metod, usul, yo'l

**Darsning maqsadi:** Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga o'zi tanlangan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish. Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari bilan talabalarni tanishtirish ularda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

### 1-savol bayoni.

*Metod* (yunoncha *metodos* - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) - ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l - yo'riqlar, usullar majmui [30; 78].

*Metodologiya* - tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan meyoriy-huquqiy, nazariy- falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig'indisi.

*Tadqiqot metodi* - 1) bilimlarning ijodiy qo'llanishini ta'minlash metodi; 2) ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida ularning o'zlashtirilishiga qaratilgan metod.

*Kuzatish metodi* - 1) obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni; 2) psixologik- pedagogik tadqiqotlardagi asosiy empirik metodlardan biri. Psixologik- pedagogik hodisani maqsadga qaratilgan tizimli o'rganishda muayyan sharoitlarda ulardagi xususiy o'zgarishlar va ularning sabablarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi; 3) voqelikni ta'lim jarayonida idrok qilish imkoniyatini beradigan pedagogik tadqiqot metodi.

*Suhbat* - o'quvchi, talaba va orasida ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan yago so'zlashuv, muloqot usuli.

*Tajriba* - pedagogik voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni.

*'Tajriba vositasida o'qitish sikli' metodi (D.Kolb g'oyasi)* - reflektiv kuzatish, abstrakt xulosalash (konseptuallashtirish), tajriba vositasida o'qitish sikli, faol tajriba olib borishga tayyorlanish, aniq tajriba o'tkazish kabi metodlar turkumi.

*Tahlil* - muayyan obyekt, voqea-hodisani har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o'rganish.

*Tahlil metodi komponentlari* - axborotni anglab idrok etish; ma'lum va noma'lumning muhim belgi va munosabatlar elementlariga ajratish va boshlang'ich tarkibli birlikni topish; aloqalarni anglash va tushuntirishdan iborat o'zgaruvchi metod.

*Empirik metod* - tajriba-sinov metodikasiga ma'lum o'yap adabiyotlar, g'oyalar, tajribalarni o'yash chiqish asosida tug'iladigan farazlar, modellar, bajarilishi kerak o'yap ishlar loyihasini sinab rish va amaliyotga tadbiq qilish metodi.

*Dars berish usullari* - ta'lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir, usullari esa, ta'lim oluvchining faoliyatini tashkil qilish vositasidir.

Usullar tizimini ta'lim maqsadlariga erishish bo'yicha o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilish uslublari quyidagi belgilari bo'yicha guruhlarga ajratilgan:

*Birinchi guruh* - o'quvchilarning o'zlashtirish, tushunib yetish, bilimini mustahkamlash bo'yicha perseptiv (o'zlashtirish) ish faoliyatini ta'minlaydigan, tayyor holatda o'quvchilarga bayon qilingan o'qitish va bilim olish usullari:

ma'ruza, hikoya, tushuntirish;

namoyish, illyustratsiya, videousul.

*Ikkinchi guruh* - o'quvchilarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani algoritm (namuna) bo'yicha o'quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olish usullari:

❖ kitob bilan ishlash;

❖ laboratoriya usuli;

❖ mashqlar.

*Uchinchi guruh* - ta'limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta'lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta'minlovi dars berish va o'qitish usullari:


*To'rtinchi guruh* - o'quvchilar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar:

muammoli topshiriqlar usuli;

individual (amaliy) usul;

loyiha usuli.

“Kasbiy pedagogika” fanining tadqiqot metodlari quyidagi 2-rasmda ifodalangan:



## 2-savol bayoni.

Ta'lim tarixida ta'limni tashkil etishga turli shakllardan foydalanilgan. Didaktik g'oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o'ziga xos tizimlar ko'rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta'lim turlari o'quv jarayonini

tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagi 7-8-jadvallarda ifodalangan:

7-jadval  
Pedagogik tizimlarning asosiy turlari

Arxaik	Ibtidoiy
Qadimgi	Shumer, Misr, Xitoyda Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik
Avestit	Baqtiriya, Sug'diyona, Xorazmda - Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar
Yunon	Ellins, rim - yunon, rim - eramizdan avvalgi V-I asrlar
O'rta asr	dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar
Yangi	tushuntirish, tushuntirish - rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali , muammoli - dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog'idan foydalanib va shu kabilar
Xorijiy	tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali , muammoli - dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog'idan foydalanib o'qish va shu kabilar

8-jadval  
Ta'lim shakllari

<i>“Avesto ”</i>	yoshlarni diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash; jismoniy jihatdan tarbiyalash; yoshlarni o'qish va yozishga o'rgatish orqali ularning savodxonligini shakllantirish
<i>Suqrotcha suhbat metodi</i>	eng avval o'quvchisida qiziqish uo'sht va bilishga intilishini o'yg'otadigan savollardan foydalanilgan; keyin esa mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea - hodisalarning mohiyatini idrok etishga undagan. Demak, suqrotcha suhbat metodida qiziqishdan bilishga, bilishdan idrok etishga qarab induktiv metod asosidagi faoliyat dinamikasi shakllantirilgan. Mazkur jarayonda t mulohazasi pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirib turilgan. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi
<i>Dogmatik o'qitish</i>	bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi o'N, u o'Gv asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ularning ilk I'misUari iste'molda o'N, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'gt tutgan. Bu borada <i>musulmon pedagogik konsepsiyasi</i> sezilarli darajadagi ma'naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun - mohiyatga ega o'yap. Demak, dogmatik o'qitishda yoshlarning asosiy faoliyatlarini tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma - so'z takrorlashlar tashkil etgan.
<i>Tushuntirish, tushuntirish - namoyish etish kabi ta'lim shakllari</i>	Uning asosiy metodi ko'rgazmalilik asosida tushuntirishdan iborat o'N, uning asosini tinglash va eslab qolish tashkil etadi. Bu ta'lim turi vaqtni tejash, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning vaqtni tejash, qiyin bilimlarni tushunishini osonlashtirish, ta'lim jarayonini optimal boshqarishni ta'minlaydi. Biroq bu ta'lim turida ayrim kamchiliklar mavjud, ya'ni, “tayyor” bilimlarni berish va ta'lim oluvchilarni bilimlarini o'zlashtirishida mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiyallashtirish imkoniyatlarining kamligi.

<i>Muammoli o'qitishda</i>	o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Bunday ta'lim texnologiyasi turli tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki ta'lim oluvchilarni faol ishtirok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma - ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi, chunki mazkur jarayonda fikrlash jarayonida qiyinchilik his qilinadi. Muammoli o'qitishda muammoni ilgari
<i>Dasturiy ta'lim (Dasturlashtirilgan ta'lim)</i>	harakat (operatsiya) lar ketma - ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. <i>Dastur</i> - bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim - tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi. <i>Dasturlashtirilgan ta'lim</i> - o'quv jarayonini muayyan tartib (dastur) asosida
<i>Kompyuterli ta'lim</i>	Ma'lumki, o'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta'lim vujudga keldi. <i>Kompyuter</i> - (ing. Computer - hisoblayman) - oldindan berilgan dastur bo'yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta'lim - tarbiya jarayonlarini kompyuterlashtirishda zamonaviy kompyuterlar universal didaktik vositalar (qurilma) bo'lib hisoblanadi va ularning ta'lim - tarbiya jarayonlarining optimal variantlarini topishdagi roli beqiyos. Shuningdek, kompyuter ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda yangi
<i>Innovatsion ta'lim</i>	bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim - tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim - tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi.
<i>Masofaviy ta'lim</i>	(lotincha <i>distancia</i> - masofa) Bu masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Yer sun'iy yo'ldosh, televideniye, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlar majmuidan iborat.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratilib ko'rsatiladi: individual; individual - guruhli; sinf - dars; ma'ruza - seminarli; sinfdan tashqari; auditoriyadan tashqari; maktab va maktabdan tashqari.

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil variantlari paydo bo'ladi. Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

- ✓ Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- ✓ O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
- ✓ Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi;



- ✓ Takroriy - umumlashtiruvchi dars.
- ✓ Aralash dars.

*Ma'ruza.* Bugungi kunda zamonaviy o'quv muassasalari faoliyatida o'qitish shakllaridan biri bo'lish ma'ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Ma'ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan faoliyatdir. Ma'ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahoratga ega O'YAP ta'lim beruvchining intellektual salohiyati asosida tashkil etiladi. Ta'lim amaliyotida ma'ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda: ma'ruza - hikoya; ma'ruza - suhbat; ma'ruza - munozara; ommaviy ma'ruza. Ma'ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Shu bois ma'ruza - tomonidan ma'ruza MA'RUZA. yuzasidan reja va ma'ruza matni tayyorlanadi. Umumiy qoidaga binoan ma'ruza bir dars davomida oxiriga yetmay qolsa, u yangi mashg'ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu O'UYUYA ma'ruza materiallari tushuntirib O'NYAP, ta'lim oluvchilar bilan savol - javob o'tkaziladi. Shuningdek, har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim O'YAP adabiyotlar ra'yxati taqdim etiladi.

*Fakultativ mashg'ulotlar* - bu ta'lim oluvchining qiziqish va xohishlariga to'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy - nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Fakultativ mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga va ijtimoiy faoliyatini faollashtirishga, aqliy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

*Seminar mashg'ulotlari.* Ijtimoiy - gumanitar yo'nalishidagi predmetlar o'uyuya seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish keng qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlari ta'lim beruvchilar tomonidan u yoki bu mavzu o'uyuya ma'ruzalar tayyorlash hamda uni dars mashg'ulotidagi ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilish uo'li bilan olib boriladi

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish to'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq to'ladi. Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 ismga ajratish mumkin: uchun; uchun; dars o'tkazish uchun. Quyidagi chizmada ta'lim vositalarini tanlash bo'yicha atmar berilgan:

1. *O'qituvchi uchun vositalar:* o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.
2. *O'quvchi uchun vositalar:* darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar.
3. *Dars o'tkazish uchun vositalar:* plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar.

Quyidagi 3-rasmda ta'lim vositalarining turlari keltirilgan:



**3-rasm. Ta'lim vositalari.**

Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi va uyg'unlashuvi kerak. Bundan tashqari ta'lim vositalarining hususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar. Ta'lim vositalari olti turga bo'linadi:

- ✓ Matnli vositalar;
- ✓ Tasvirli vositalar;
- ✓ Audiovizual vositalar;
- ✓ Yordamchi (jihaz) vositalar;
- ✓ Modelli vositalar;
- ✓ Haqiqiy vositalar.

*Matnli vositalar* - ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- ✓ o'quv dasturlari;
- ✓ mutaxassislik adabiyot (darslik);
- ✓ ma'ruza matnlari;
- ✓ tarqatma materiallar;
- ✓ imtihon va nazorat varaqalari.

*Tasvirli vositalar* - umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun foydalaniladi va quyidagilardan iborat:

- ✓ fotosuratlar;
- ✓ eskiz, chizma, sxemalar;
- ✓ ramziy tasvirlar, reja jadvallar, simvollar;
- ✓ diagramma va grafiklar.

*Audivizual vositalar* - jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurlarni vujudga keltirish uchun kerak bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- ✓ videofilmlar;
- ✓ kompakt disklar;
- ✓ audiokassetalar;
- ✓ audiomagnitafon, videomagnitafon;
- ✓ videokamera;
- ✓ televizor.

*Yordamchi vositalar* - tasvir va matnni yozish va saqlash uchun foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- ✓ Doskalar (oq doska, magnit doskasi);
- ✓ 'Pinbord' doskasi;
- ✓ Videoproektorlar, videoproektor ekrani;
- ✓ Kodoskop;
- ✓ Kompyuter;
- ✓ Flipchartlar.

*Modelli vositalar* - o'rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun kerak bo'ladi va quyidagilardan iborat:

- ✓ Modellar;
- ✓ Maketlar;
- ✓ Trenajerlar.

*Haqiqiy vositalar* - o'rganilayotgan obyektlar haqida real tasavvurni vujudga keltirish uchun ishlatiladi va quyidagilardan iborat:

- ✓ Asbob-uskunalar;
- ✓ Stanoklar;
- ✓ Yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar;
- ✓ Xom-ashyolar.

### *Nazorat savollari*

1. Uslub va uslubiyot tushunchalariga izoh bering.
2. Kasb ta'lim metodikasi faning tadqiqot metodlari va ularga izoh bering.
3. Ta'lim jaryonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati qanday?
4. Kasb ta'limi metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yuzasidan "Klaster" texnologiyasini ishlab chiqing.

## **11-MA'RUZA. KASB TA'LIMI METODLARI VA ULARNING TAVSIFNOMASI**

### Asosiy savollari

Metod haqida tushuncha. Kasbiy ta'lim metodlari va ularning umumiy tavsifnomasi.

Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'limi metodlari.

Faollik metodi. Ta'lim metodlarini guruhlash

#### 1-savol bayoni

Kasb ta'limi metodlari deganda - o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – og'zaki metod (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metod (ko'rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog'liq holda quyidagi metodlar qo'llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish.

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O'qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari* eng avvalo, o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

*Reproduktiv metodlar* birinchi navbatda, o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o'qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta'rifini tayyor holda beradi, u asosiy e'tiborini mustahkam o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma'ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o'qituvchi muayyan ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

*Muammoli ta'lim deyilganda*, o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. O'quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo'layotgan muammoni hal qilish uchun, u o'rganilayotgan qoidalarni to'g'ri tushunib olishga intiladi.

Ta'lim metodini 3 ta asosiy guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.
2. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi.
3. Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlarning har bir turi guruhlariga bo'linadi va ularning alohida metodlari bor, bular esa ta'lim jarayonining quroli hisoblanadi.

O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko'rgazmali va amaliy metod, o'qituvchi boshchiligida induktiv yoki deduktiv, reproduktiv yoki produktiv yo'nalishlardagi metodlar kiradi.

O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodiga – o'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o'qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan.

Har bir metod boshqa bir metod yordami bilan qo'llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli izlanish metodi suhbat, ko'rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo'llaniladi. Shu navbatda suhbat, ko'rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo'llanilishi mumkin.

Hayotiy o'quv jarayonida esa eng muhimi bu metodlarni turlarga bo'lish emas, balki o'qituvchining chuqur bilimga ega bo'lishi, metodlardan unumli foydalana olishi, ta'lim oluvchilarga o'quv ishlab chiqarish, o'quv faoliyatida metodlarni to'g'ri qo'llay olishga o'rgatishdir.

## 2-savol bayoni

O'quv muassasalarida boshlang'ich kasbiy ta'limni o'qitishning nazariy qismi quyidagi fanlarni 3 ta tsiklini tashkil qiladi: umumiy ta'lim, umumiy texnik ta'lim va kasbiy ta'lim.<sup>1</sup>

Umumiy ta'lim fanlari bo'yicha ta'lim metodining umum didaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik aspektlari pedagogik adabiyotlarda chuqur bayon qilib berilgan.

Umumtexnika va kasb fanlarini o'qitish metodlari ko'pincha o'ziga xos mazmunga ko'ra aniqlanadi:

- ko'p komponentli tuzilma, ob'ektlarni turli xil yo'nalishlarda o'rganish;
- ta'lim oluvchilarni ishlab chiqarish ta'limi bilan o'zaro bog'liqligi;
- materialning keng qamrovliligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan, xizmat ko'rsatish usullarini amaliy o'rganish;
- o'quv materialini mazmuniga yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, mahalliy shart-sharoitni aks ettirish.

Ta'lim metodlarida bularni inobatga olish zarur.

### 1. *Ta'lim oluvchilarni o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi.*

Suhbat metodi. Og'zaki bayon. Umumtexnika va kasbiy fanlarni o'rganish jarayonida o'quv materialini og'zaki bayonini gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzu to'liq taqqoslanadi, isbotlanib, misollar bilan tushuntiriladi.

Bayon qilinayotgan material ta'lim oluvchilarning tushunishi uchun qiyin bo'lgan, yangi ma'lumotlar xabar qilingan, mehnat usullarini bajarish yo'llarini tushuntirib berish talab qilingan hollarda og'zaki bayon qilish metodidan foydalaniladi.

*Umumiy talablardan quyidagilarni ajratib olamiz:*

- ilmiy-texnik aniq mazmun;
- mantiqiy tuzilishi va ketma-ketligi;
- ta'lim oluvchilarga tushunarli va oson etib boradigan;
- har bir bosqichda fikrni aniq va ravshanligi;
- ta'lim oluvchilarning e'tiborligini, faolligini oshirish.

*Suhbat* – bu kasb ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida ta'lim oluvchilarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlar hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

<sup>1</sup> Ў.Қ.Толипов. ва бошқалар. Касбий педагогика. – Т.:ТДИУ, 2001.

Ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilishi va boshqarish savol-javob metodi orqali amalga oshiriladi. Bunday suhbat *evristik suhbat* deyiladi.

Umumiy o'tkazilgan suhbatlar ta'lim oluvchilarni qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarni yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat metodi og'zaki bayon metodidan ko'ra murakkabroqdir, ya'ni o'qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Umumtexnik va kasb fanlarini o'rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini ko'rsatish mumkin:

- o'quv materialining mazmuni mantiqiy to'g'ri tuzilgan bo'lishi shart;
- yangi o'quv materialini o'rganishda ko'proq texnik va texnologik hujjatlarni muhokama qilishga qaratish kerak;
- suhbatni boshqa metodlar va o'quv ishlari turlari bilan birga o'tkazish kerak (tushuntirish, kitob bilan ishlash, kuzatuv).

Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo'lishi lozim. Quyidagi savollarni ko'rsatish mumkin:

1. Fanlarni qarama-qarshi qo'yish, uning ko'rinishini, jarayonini, dalillarini va boshqalarni;
2. Har xil holatga tushib qolganda ham bilimlaridan foydalana olishni aniqlash;
3. Sababini tashxisli tushuntirish;
4. Isbotlash «ha» yoki «qarshi» ga dalil keltirish;
5. Fanlararo bog'liqlikni o'rnatish.

Suhbat o'tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat'iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini ta'lim oluvchi sezishi lozim. O'qituvchi suhbatni xulosa qilib tugatishi kerak.

Kitob bilan ishlash: tez o'qitish, konspekt olish, reja tuzish, misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob berish va hokazolar.

## 2. Ko'rgazmali metod

Insonning tashqi olamni sezishining eng muhim organi – ko'zdir. Olimlarning fikricha, 80% informatsiya ko'z orqali tushadi, 80% ish operatsiyalari ko'z orqali qilinadi. Mana shulardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga ega.

Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha ko'rgazmali metodlar, tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, kino proektsiya, kompyuter, multimedia). O'qituvchi mavzuni tushuntirishda ko'rgazma sifatida, yoki bir xil hollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metodlar juda qulaydir.

## 3. Amaliy metod.

Mashq amaliy metodning asosi hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatishdir. Ta'lim oluvchilarning bilimlarni mustahkamlashda ham mashqlarning o'rni kattadir. Hamma mashqlarni 3 ta asosiy tipga keltirish mumkin: reproduktiv, badiiy, izlanuvchanlik.

*Reproduktiv mashq* - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o'rganishadi. Reproduktiv mashqda chizmalar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar muhokama qilinadi va ta'lim oluvchilar ularni bajarishadi. Kasbiy fanlar bo'yicha esa texnik hujjatlar, stanok pasportlarining texnologik kartalari o'rganilishi mumkin.

*Badiiy mashq* - bu turdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinatsiyalarda foydalanishadi, ya'ni oldiga qo'yilgan vazifalarning mustaqil original javoblarini topishadi. Badiiy mashq turlaridan biri produktiv masalalarni hal qilish: tanlash (asbob, ishlov berish turi, sozlovchi mexanizm), taqqoslash va baholash (ishni bajarish yo'li, asboblarning qo'llanilishi) aniqlashga bog'liq bo'lgan (texnik talab,

aloqadorlik), turli xil texnik jarayonlarni tushuntirishdan iborat. Bu turdagi mashqlar orqali o'rganilayotgan mashina, mexanizm, qurilmalarning sxemalari tuziladi.

*Izlanish mashqi* – bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo'llash bo'lib, ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

4.

#### *Ta'limda faollik metodi.*

Hozirgi kunda ilmiy va amaliy pedagogikada ta'lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Bulardan eng ko'p qo'llaniladigani – didaktik o'yinlardir.

Kasb ta'limidagi didaktik o'yinlar: «texnik diktant», kichik konkurslar, «kim epchil-u, kim chaqon», «texnik kurashlar», «savollar», «texnik loto», «texnik domino» va hokazolar.

Ta'limning faollik metodiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichdan iborat: seminar bo'yicha o'qituvchining ma'ruzasi, ta'lim oluvchilar seminar bo'yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishi va seminarlarni o'tkazishi, bunda ta'lim oluvchi tayyorlab kelgan matnlari va ko'rgazmali qurollardan, asboblardan, jihozlardan foydalanib tushuntirib beradi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida amaliy ishlarda interaktiv darslar ham keng qo'llanilmoqda. Bu darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o'rtasidagi aloqadorlik o'rganiladi. M: matematika va informatika, fizika va ximiya, kasbiy texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar.

Ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyati faolligi darsdan tashqari ishlarda texnik kashfiyotchiligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Darsdan tashqari ishlar – kasbiy ta'lim ustasi tanlovlar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, ratsionalizatorlar va kashfiyotchilar bilan uchrashuv, ilm-fan, texnik olimlar bilan uchrashuvlar, namunali ishlar ko'rgazmasi, texnik to'garaklar orqali amalga oshiriladi.

#### 3-savol bayoni

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi – ta'lim oluvchilarda aniq bir kasb, soha bo'yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limida shu asosiy maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi. Quyida «kasb ustasi» tushunchasini ochib beruvchi mezon ko'rsatkichlari keltirilgan:

- Bajarilayotgan ishning sifati – texnik talablarni bajarish, me'yor va ko'rsatkichlarga mos kelishi, ijobiy natijalar olish;
- Mehnatni tashkil qilish – belgilangan vaqtda bajarish, vaqtdan unumli foydalanish, ish vaqtida tejamkorlik;
- Kasbiy mustaqillik – mustaqil ish turini tanlashni bilish, ishlab chiqarishning yuqori sifatini ta'minlash, to'g'ri xulosalar chiqarish, o'z-o'zini boshqarish, mehnat madaniyatiga amal qilish, ishni rejalashtirish, yangi texnika va texnologiya bilan ishlay olish, yuqori texnologik intizom, kasbiy bilimlarni ishda qo'llay bilish, mehnat faoliyatini va ish joyini to'g'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalari rioya qilish.

#### *Ishlab chiqarishning faollik metodi.*

O'quv ishlab chiqarish ishlarida faollik, ya'ni aqliy bilim katta rol o'ynaydi. Faollik ta'lim oluvchilar mustaqilligida va maqsadli faoliyat tanlashlarida va ularni ijobiy natijalarga olib kelish, mehnatni rejalashtirish, analiz va xatoliklarga yo'l qo'ymasligida ko'rinadi. Ta'lim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarish ta'limidagi faolligi – mashinalarni, agregatlarni ishlatishdagi qobiliyati, ichki jarayonni bilishi va qilingan tahlillar asosida maqsadli echimlarga kelishlarida ko'rinadi.

Ishlab chiqarish ta'limidagi «faollik» metodiga – ishlab chiqarishdagi texnik masalalarni echish kiradi: ishlov berish, tuzatish, boshqarish me'yorini hisoblash,

avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturini ishlab chiqish, jadval, diagrammalardan kerakli ma'lumotlarni topish kabilar.

Ishlab chiqarish ta'limining «faollik» metodiga mashqlar ham kiradi. Mashqlar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan masalalarni echish uchun qo'llaniladi. Bunday mashqlar ishlab chiqarish hayotida sodir bo'ladigan jarayonlarga ta'lim oluvchilarni tayyorlaydi. Mashqlarni o'tkazish uchun jarayon hosil qilish kerak bo'ladi. M: agregatlarni sozlash, texnologik me'yorlarni buzilganligi, ish joyida buzilish holatlarining sodir bo'lishi kabilar.

### **Nazorat savollari**

1. Kasb ta'limi metodlariga nimalar kiradi?
2. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodini izohlang?
3. Nazariy ta'lim metodi – bu nima?
4. Ko'rgazmali va amaliy metodlarni tushuntirib bering?
5. Nima uchun ishlab chiqarishda yozma yo'riqnomadan foydalaniladi?

## **12-MA'RUZA.. TA'LIM OLUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH.**

### **Asosiy savollar**

1. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar.
2. O'qituvchining nazorat va baholash bo'yicha vazifalari.
3. O'qituvchining metodik ishlari.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar.**

Intergratsiya, mehnat uslublari, metodik vositalar, maqsad, vazifa, kasb, ta'lim, uslubiyot, fan, metod, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot

**Darsning maqsadi:** O'twning lavozim vazifalari. O'twning ta'limni rejalashtirish O'UYUYA vazifalar. Nazorat va baholash O'UYUYA vazifalari. O'twning metodik ishlari.

O'qituvchining lavozim vazifalari.

1-savol bayoni

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari O'tish yo'riqnomada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 30 iyuldagi PQ-929-sonli 'O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish va ular mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida'gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2008 y., 31-32-son, 296-modda) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagi 165-sonli 'O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida'gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2008 y., 31-32-son, 303-modda) asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini qo'llash tartibini belgilaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari quyidagilarni ichiga oladi:

pedagog xodimning lavozimi bo'yicha majburiyatlari ra'yxatini;

tegishli lavozimni egallab turgan (egallashga nomzod) xodimning bilim ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni;

tegishli lavozimni egallash uchun zarur bo'lgan ish staji va ta'lim darajasiga qo'yiladigan talablarni.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarida ko'rsatilgan har bir lavozim bo'yicha ish mazmuni, hajmi va bajarish tartibi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi tomonidan Davlat ta'lim standartlariga, ish ko'rsatmalariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda belgilanadi.

U yoki bu lavozim (lavozimlar guruhi) yoki malaka toifasi uchun bir qancha tarif stavkalari

belgilangan bo'lsa, nisbatan yuqori bazaviy tarif stavkasiga ega bo'lgan xodim nisbatan kichikroq lavozim yoki malaka toifasidagi xodimlar uchun nazarda tutilgan bilimlar, tajribalar va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Xodimga lavozim (malaka toifasi) belgilash, berish o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalarini berish tartibi asosida amalga oshiriladi.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari xodimlarini lavozim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka toifasining hisobi, shuningdek ish to'g'risidagi barcha hujjatlardagi yozuvlar ushbu malaka tavsiflaridagi lavozimlar va malaka toifalari nomlari bilan qat'iy mos bo'lishi kerak<sup>9</sup>.

Mazkur yo'riqnomada bosh, yetakchi, katta o'qituvchi, oliy va o'rta-maxsus ma'lumotli o'qituvchilarining lavozim vazifalari berilgan.

Bosh o'qituvchining lavozim vazifalarini quyidagi 8-jadvalda ifodalangan:

Pedagogik jarayonni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan o'ziga xos variantni tanlash;

o'qitishni qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan usullari va uslublarini tanlash;

masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o'quvchilarga tabaqali yondashishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.

## 2-savol bayoni

Ma'lumki, ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Ta'lim beruvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

*Nazorat* (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

*Tekshirish* - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Shuningdek, tekshirishning maqsadi nafaqat ta'lim oluvchining bilim darajasi va sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi:

- ✓ ta'lim oluvchilarning bilim darajasini *oldindan aniqlash*;
- ✓ mavzuni o'zlashtirishni *joriy tekshirish*;
- ✓ bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganligining *takroriy tekshirish*;
- ✓ yaxlit bo'lib yoki kursning alohida MA'RUZA. bo'yicha *davriy tekshirish*;
- ✓ ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini *yakuniy tekshirish va hisobga olish*.

Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi natijalarni hisobga olish, tekshirish va bilimni nazorat qilish (monitoringga e'tibor berish) hamda baholash pedagogik faoliyatda muhim bosqichlardir. Jumladan, mazkur faoliyatda ta'lim oluvchining bilimni haqiqiy va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma'lum qilib borish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilar bilimni nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularda o'tilgan

---

<sup>9</sup> O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha yo'riqnomasi.



fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimni doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish demakdir. Shu bilan birga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi uzviy bog'lanishdagi faoliyat olib borishni yuzaga keltiradi, ya'ni o'qitishning o'zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bu ta'lim beruvchi faoliyati va ta'lim oluvchining mehnatga ongli munosabatini uzluksiz jarayon sifatida doimiy bo'lib turishini ta'minlaydi.

Bunda professor - o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholashga doir meyor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi mas'uliyatli yondashishi va tinimsiz mehnati yotadi [49].

### 3savol bayoni

Ta'lim beruvchining o'qitishni bilishi quyidagilardan iborat:

- ✓ O'quv jarayoni muhiti va uni ta'minlash;
- ✓ Psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
- ✓ Chet tillarini bilish;
- ✓ Bilimi chuqurligi, bilimdonlik, zakovati, kasbiy malaka;
- ✓ Yangi pedagogik texnologiyalarni bilish;
- ✓ Ilmiy-metodik ishlar;
- ✓ Ilmiy-tadqiqot ishlar;
- ✓ O'z ishni takomillashtirib borishga intilish;
- ✓ Meyoriy hujjatdlarni bilish;
- ✓ Kompyuter texnologiyalarini bilish.

Ta'lim beruvchining zamonaviy metodik salohiyati tavsifi:

- ✓ U faqat boshqalarni o'qitish bilan cheklanmasdan, o'zini ta'limi bilan ham shug'ullanadi;
- ✓ Uning ishi faqatgina o'quv dasturida ko'zda tutilgan ma'lumotni ta'lim oluvchilarga yetkazib berish bilan cheklanmaydi. Turli usullarni qo'llab, ularni o'quv jarayonida faol qatnashishga undaydi. Buning uchun u o'zining xatti-harakatining an'anaviy modelini o'zgartirishi, o'zi ko'proq interfaol bo'lishi kerak;
- ✓ Ta'lim beruvchi informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi kerak, chunki hamma yangi o'quv metodlari, shakllar ular bilan bog'liqdir;
- ✓ O'quv jarayonini tashkil etish ba'zi bir muomala ko'nikmalarini, kommunikabellikni, o'zgaruvchanlikni, mustaqil qarorlarni qabul qilishni, o'z faoliyatini natijalarini tanqidiy baholashni talab qiladi;

internet, masofaviy ta'lim rivojlanishi va ularda foydalanuvchilarni soni ko'payishi bilan maxsus, ushbu foydalanuvchilarni o'qita oladigan mutaxassis-ta'lim beruvchilar kerak bo'ladi [32; 47].

### Nazorat savollari

1. O'qituvchining qanday lavozim vazifalari bor?
2. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha qanday vazifalarni bajaradi?
3. O'qituvchining qanday metodik ishlari mavjud?
4. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha qanday vazifalari mavjud?

### Mustaqil ish topshiriqlari:

Quyidagi "Toifalash jadvali"ni to'ldiring:

1-jadval

Lavozimlar	O'quv ishlari	O'quv uslubiy va ilmiy ishlar	Tashkiliy- uslubiy ishlar	Ma'naviy- ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar
Yetakchi o'qituvchi				
Katta o'qituvchi				
Oliy ma'lumotli o'qituvchi				

<b>O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi</b>				
---	--	--	--	--

**13-MA'RUZA.: DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI.**

**Asosiy savollari**

- 1.Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari.**
- 2.Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish vositalari.**
- 3. Darslarning tasniflanishi.**

**1-savol bayoni**

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish davrida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlariga ega bo'lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O'rta asrga kelib, kasbiy ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan.chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Y.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi hususiyatlariga binoan turlanadi:

- 1.Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.
- 2.O'qitish joyiga ko'ra-ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).
- 3.O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra-45 minutlik, juftlik (90 min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo'ng'iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli dars ta'lim tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;
- har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- iqtisodiy ko'rsatgichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;
- Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:
  - o'rtacha tahsil oluvchiga mo'ljallanganligi;
  - har bir tahsil oluvchilar bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi.

**2-savol bayoni**

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omili sifatida turli hil ta'lim vositalaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnikaviy vositalaridir.

O'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1. Audiovizual vositalar (kinoproeksiya, diaproyeksiya va epiproeksiyalar, ovoz yozib olish, televideniye, radio);

2. Jihozlar, uskuna va asboblari;

3. Dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentalari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin. Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo'lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik prinsiplarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik prinsipini real obyekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real obyekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'lim-tarbiya ishida ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash hususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash hususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligini talab etadi.

Ko'rsatmali qo'llanmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

-barcha talabalarga yaxshi ko'rinadigan darajada katta bo'lishi:

-o'quv xonasining istalgan joyidan bema'lol o'qilishi:

-muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o'ziga tortuvchi rang bilan alohida bo'yalishi:

-tasvirlar imkon qadar obyektning asl rangiga mos bo'lishi:

-tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi:

-matnning haddan tashqari ko'p bo'lmasligi:

-tasvirlangan obyektlarning tabiiy vaziyatda ko'rsatilishi:

-masshtabga rioya qilishi:

-arzon, qulay, uzoq vaqt o'z holatida saqlanishi va shu kabilari.

Shu o'rinda ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanish maqsad bo'lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmaslik zarur.

Ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg'ulotda ko'rsatmali qo'llanmalardan haddan tashqari ko'p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarining (ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish) ko'proq jalb etish zarur. O'qituvchining so'zi bilan ko'rsatmalilikning uyg'unligi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanishganda beriladigan izoh. Tahsil oluvchilar diqqat-e'tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko'zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Eng muhimi shundaki, amaliyot o'qituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir

bo'ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya'ni o'z kasbiy sohasining mohir ustasi bo'lishi kerak. Amaliyot o'qituvchisi o'z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o'zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proyektor slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqadilar.

mumkinligini ham bilishni talab etiladi.

### **Nazorat savollari**

## **15- MA'RUZA.PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING O'ZIGA XUSUSIYATLARI.**

### **Asosiy savollar**

1. Ajdodlarimizning o'qituvchining ijtimoiy sifatlari to'g'risida qarashlari.
2. Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy sifatlari va kasbiy shakllanish.
3. O'qituvchining pedagogik faoliyati.

### ***Mavzuga oid tayanch iboralar va tushunchalar:***

O'qituvchi, tarbiyachi, kasb va mutaxassislik, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlari, kasbiy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar, o'z-o'zini kasbiy tarbiyalash.

### **1-savol bayoni**

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lgan. Shu sababli "Notiqlik san'ati" ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e'tirof etilgan:

- o'quvchilarga tushuntirish (ma'lum bir mavzuni);
- o'quvchilar ongini uyg'otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tinglovchida huzur-halovat va qoniqish uyg'otish.

Mashhur faylasuf olim Suqrot (eramizdan avvalgi 469 — 399) o'quvchilar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Suqrotning shogirdi Platon o'z ustoziga g'oyalarini davom ettirib, o'quvchilar bilan savol-javob usulini notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notiqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim Demosfen (eramizdan avvalgi 384—322) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notiqlik san'atining olijanob qudrati asosida tinglovchilar tafakkuriga etkazish mumkin deb ta'kidlagan edi faylasuf. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyondasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasi siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

### 3. Evropa olimlari o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar evropa olimlari Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotstsi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya. A. Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, kobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga yuqori baho berib, o'qituvchilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini aytadi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalotstsi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterveg o'qituvchining ta'limdagi rolga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gertsen, L.N.Tolctoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gertsen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy hislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan oyina ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda namoyon bo'ladi

*O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy – nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy – pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: “O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik*

nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat–falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul"<sup>10</sup>. Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy – nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim.

Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, “agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala hislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'ladi”.

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai – nazardan yondashilganda, muallifning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida quyidagi fikrlarini bayon qilgan: “Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak. Tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan o'tkazishni ham bilishi kerak.

Biroq shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu o'yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog'laydigan qandaydir kamar bor, bu sizning go'zal xulqingizni namoyish etib bog'lovchi rolingiz. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir”.

Pedagog olim o'qituvchining hech bir kasbga o'xshamaydigan kasbiy faoliyatini yuksak baholab, “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin” – deb yozgan edi.

Shunday kilib, evropa mutafakkirlari o'z ilmiy asarlarida o'qituvchining bir qator muhim fazilatlari haqida fikr yuritganlar. Bularning qatoriga quyidagi fikrlarni alohida qayd etish lozim: o'qituvchining har tomonlama barkamol bo'lishi, o'zining yuksak hislatlari va his-tuyg'ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi, bolalar ruhiyatiga oson kira olish kobiliyati, darslarni o'zlashtirishda orqada qolganlar bilan individual ishlar olib borish, o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratish mahorati, mustaqil ishlash va o'z mahoratini, malakasini oshirish, pedagogik-psixologik odob (takt)ga ega

<sup>10</sup> Педагогика: Учеб. пособие для студентов пед. институтов /Под ред. Ю.К. Бабанского. – М: Просвещение, 1983, 600-бет.

bo'lish, notiqlik san'atini puxta bilish kabilardir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan tahlil qilingan o'qituvchi kasbi haqidagi ko'pgina mulohazalar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak, millati va kelib chiqishidan qat'iy nazar ajdodlar g'oyasini takomillashtirish evaziga ta'limni yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

**3-savol bayoni** “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko’tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi deb hisoblansin” deyiladi “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish” to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktyabrda qabul qilgan Farmonida. Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo’lgan yuksak malakali kadrlarga bog’liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo o’qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo’lgan, zamonaviy o’qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O’qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta’lim mazmunini egallagan bo’lishlari kerak. O’qituvchi xodimlar o’zlarining kasb-ko’nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarini amaliyotga tatbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog’liqdir.

*Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo’lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.*

O’zbekiston Respublikasida o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’yilmoqda. Chunonchi, bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo’lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o’stirishi, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o’zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo’lishi kerak»<sup>1</sup>.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o’qituvchisi shaxsiga nisbatan qo’yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo’yicha ko’plab pedagog va psixolog olimlar o’z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O’qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an’ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada kuchaytirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish uchun metodik qo’llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo’ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo’yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. XXI asrga kelib o’qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o’zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o’qituvchidan yuksak mahoratni, o’tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo’lishni talab qiladi.

O’qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo’nalishlari bo’yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo’lishi va ta’lim

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Буюк келажакимизнинг ҳуқуқий кафолати. – Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти, 1993, 27-28-бет.

muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan quyidagi burch va mas'uliyatlar ulardan talab qilinadi:

1. O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi,

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmazligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida o'zida bir qator pedagogik sifatlarni tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.



O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan acociy talablari quyidagilar:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muxabbati;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigienasidan o'z kasbiga doir bilimlarga mukammal bilishi;
- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, kompyuter va axborot texnologiyalari yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;
- ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o'z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni echadi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma'lum maqsadga erishmoq uchun o'qituvchi bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan faoliyat o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to'g'ri kelishi lozim;
- o'quvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi shart;
- o'quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib kolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.

O'qituvchilik faoliyati faxrli va mas'uliyatli kasb ekanligi hech kimga sir emas. O'qituvchilik faoliyati juda qadimdan mavjud bo'lib, u yuksak darajada qadrlangan va e'zozlangan kasbdir. Chunki, o'qituvchi yosh avlodga bilim bergan, uni ertangi hayotga har tomonlama tayyorlagan. Uning qo'lida ta'lim-tarbiya topgan bola o'z navbatida jamiyatga, uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bir o'qituvchi yuzlab, minglab

bolalarning kamol topishida o'z hissasini qo'shgan. Shuning uchun har doim o'qituvchi-murabbiylik faoliyatini kasb qilib olgan kishilar jamiyat va davlat ardog'ida bo'lgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi ham har tomonlama etuk, yuksak malakali qadrlar, jumladan pedagog qadrlar tayyorlashga erishishdir.

O'qituvchilik kasbining faxrli jihatlari shundaki, har qanday kasb egasi dastlabki ma'lumotni o'qituvchidan oladi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadi. Albatta bu kasbning mas'uliyatli jihatlari ham mavjud. Jamiyat uning qo'liga ishongan holda yosh avlodni topshiradi. U jamiyatning ishonchli vakili sifatida yoshlarga bilim berishi, ularda Vatanga, mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirishi lozim. Bundan tashqari u pedagogik odobga, vijdon pokligiga ega bulmog'i kerak.

#### ***Nazorat savollari:***

1. Nima uchun o'qituvchilik sharafli va mas'uliyatli kasb deyiladi?
2. O'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ta'rif bering.
3. O'qituvchilik faoliyati uchun qanday pedagogik bilim va ko'nikmalar zarur?

#### ***2-asosiy savol bayoni.***

O'qituvchining shaxsiy sifat va xususiyatlarini bayon etibgina qolmay, ular tariflanadi, har biriga qisqacha izohlar beriladi. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan asosiy talabalar belgilab olinadi.

Oliy ta'lim pedagogikasi fanining ta'kidlashicha o'qituvchilik kasbi kishining biologik, anatomo-fiziologik xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liq. Pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarda qon aylanish sistemasi xastaliklari ko'p uchraydi.

Umuman pedagoglik kasbi o'qituvchidan quyidagi anatomo-fiziologik xususiyatlarni talab etadi.

To'rt muchaning but bo'lishi (qo'l, oyoq); ko'rish, eshitish, nutq organlarining sog'lom bo'lishi; yurak, qon aylanish sistemasining o'z me'yorida ishlashi.

Albatta, bunday talabni qat'iy ravishda har qanday o'qituvchiga qo'yib bo'lmaydi. Chunki, ayrim jismoniy nuqsonlarga ega bo'lsada, o'qituvchilik faoliyatida katta natijalarga erishayotgan kishilarni uchratish mumkin. Insonni ma'lum bir kamchiligi o'rnini boshqa yuksak rivojlangan fazilati bilan to'ldirish mumkin. Bu tabiyat qonuni. Eng asosiysi bolani yoshligidanoq kasbga to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, shunday kasblar borki, nutq tiniqligi unda etakchi o'rin tutmaydi. O'qituvchilikda esa biror bir harfni ham noto'g'ri talaffuz etish mumkin emas.

O'qituvchi shaxsiy xususiyatlari ichida motiv etakchi o'rinda turadi. Motiv-o'qituvchining hayotda, jamiyatda tutgan o'rnini, intilishlarini belgilab beradi. Ijobiy motivga ega bo'lgan o'qituvchi jamiyat oldida turgan o'z vazifasi va fuqarolik burchini chuqur his etadi, o'z kasbi va o'quvchilarni sevadi, o'z ustida tinmay ishlaydi.

O'qituvchining shaxsiy sifat va xususiyatlariga qo'yidagilarni kiritish mumkin: gumanistik va demokratik yo'nalish, jamiyatda o'z fuqarolik burchini anglab etish, pedagoglik kasbi va bolalarni sevish, pedagogik odob, ma'naviy, eng muhimi bilimga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj, tashkilotchilik qobiliyati, o'zini tuta bilish, o'z ma'lumotini oshirish ustida ishlash va hakoza. Bular o'qituvchining eng muhim sifat va fazilatlari desak ham bo'ladi. Aslida, bu sifat va xususiyatlarning soni, miqdori nihoyatda ko'p.

#### ***Nazorat savollari:***

1. O'qituvchi shaxsining anatomo-fiziologik xususiyatlarini aniqlang.
2. O'qituvchining asosiy kasbiy xususiyatlarini bayon eting.
3. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarni aniqlang.
4. O'zingiz mahoratli deb sanagan biror o'qituvchining egallagan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini tahlil qiling.

#### ***3-savol bayoni:***

O'qituvchining kasbiy-pedagogik bilim va ko'nikmalarini guruhlarga ajratib tushuntirish. Ya'ni, o'qituvchi uchun shaxsiy xususiyatlarning o'zi etarli emas, balki

pedagogik faoliyat ko'rsatish uchun umumkasbiy va maxsus bilim va ko'nikmalar ham zarurligi aytib o'tiladi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik bilimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi pedagogika fanining metodologik asoslari, ta'lim va tarbiya jarayonining ichki qonuniyat va qoidalari, maqsad va vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakl va usullari: o'quvchi bolalarning yosh psixologiyasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini; bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va maktab gigienasi asoslari; maxsus fanlar nazariyasi va ularni o'qitish metodikasini chuqur bilishi zarur.

O'qituvchi uchun bilimni o'zi etarli emas, balki u nazariyani amaliyot bilan bog'lay olish ko'nikmasiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun unga pedagogik ko'nikmalar kerak bo'ladi.

*Pedagogik ko'nikmalar* - bu turli o'zgaruvchan sharoitlarda pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasidir. O'qituvchi pedagogik ko'nikmalarini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: tashxislash, loyihalashtirish va rejalashtirish, axborot berish, qadriy- emotsional yo'naltirish, muloqot qila olish, tashkilotchilik va refleksiv ko'nikmalar.

Bu pedagogik ko'nikmalar har bir o'qituvchi faoliyatida alohida o'rin tutadi va biri- ikkinchisini to'ldirib boradi.

1) Tashxislash (diagnostik) ko'nikmasi -o'qituvchining o'quvchilar bilim saviyasi, rivojlanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan hatta-harakatini xarakterlaydi.

2.Loyihalashtirish va rejalashtirish ko'nikmasi- o'qituvchining tashxislash asosida dars loyahasini pedagogik texnologiyalar asosida tuzish, dars konspekti yozish bilan bog'liq ishlarni bajarish.

3. Axborot berish ko'nikmasi - o'quv dasturi materiallarga puxta suyanan holda o'quvchilarga ravon tilda ma'lumot berish, ular bilan teskari aloqa o'rnatishga qaratiladi.

4. Qadriy- emotsional yunaltirish ko'nikmasi- o'quvchilarni umumbashariy va milliy mafkuraviy, ilmiy, madaniy qadriyatlarga nisbatan qiziqish, ehtiyoji va ijobiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan.

5. Muloqot qila olish ko'nikmasi- bu o'qituvchiga har bir o'quvchi, sinf jamoasi, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa bilan to'g'ri munosabat o'rnatishni talab etadi.

6. Tashkilotchilik ko'nikmasi- o'quvchilarning turli faoliyatlari (o'yini, o'quv-bilish, mehnat, sport, badiiy) tashkil eta olishga qaratilgan xatti-harakatlar.

7. Tadqiqotchilik ko'nikmasi-o'qituvchidan doim izlanuvchanlikni, o'z ustida ishlashni, sinov-tajribalar o'tkazib turishini talab etadi.

8. Refleksiv ko'nikma- bu o'qituvchining o'z faoliyat jarayoni, uning natijalarini nazorat qilish, baholash, ularga tuzatishlar kiritish bilan xarakterlanadi.

#### ***Nazorat savollari:***

1. O'qituvchining kasbiy bilimlarini tasniflab bering.
1. O'qituvchi uchun zarur bo'lgan fanlarni aniqlang.
2. Pedagogik ko'nikmalarni ketma-ket bayon qiling.
3. O'qituvchi faoliyatida qaysi ko'nikma muhim o'rin tutishini aniqlang.

## 15-MA'RUZA.PEDAGOGIK QOBILIYATLAR TIZIMI VA KOMMUNIKATIV QOBILIYAT

### Asosiy savollar

1. O'qituvchi qobiliyatida pedagogik qobiliyatning o'rni.
2. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi.
3. Pedagogik qobiliyaning asosiy turlari.Pedagogik muloqot qobiliyatlari.

### *Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:*

Kasb mahorati, pedagogik mahorat, optimizm, insonparvar-gumanist. shaxsiy xususiyatlar, gumanistik yo'nalish, kasbiy bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, metodologiya, nazariy, uslubiy texnologik bilimlar, faoliyat elementlari, o'z-o'zini

### **1-savol bayoni**

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytiladi, zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatleri va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holda olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va

O'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: *O'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.*

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: *ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.*

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: *o'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo'naltiradi, vaqtni, harakat sur'atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish,, hayot marhamatlaridan rohatlanish.*

5. Mantiqiy qobiliyat: *mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni sevish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish.*

6. Shaxsning ichki qobiliyati: *o'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo'rquv yoki noerkinlik tuyg'usi kamdan-kam holda bo'ladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa kishi psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir. Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisidir.

Ular o'qituvchining kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida o'qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar etarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakter kabi shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlardir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi tushuniladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

**Mahsuldor** ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlarni namoyon bo'ladi.

**Evristik** ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivlashtirish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.


**Kreativ** ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui insonning iste'dodi deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – uning intellektini belgilaydi. “Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati” (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Intellektning tarkibiy tuzilishi olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi:

**1- chizma. Intellektning asosiy sifatleri.**



**2- chizma. O’qituvchi intellektiga tavsifnoma.**

Biroq, kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta’minlamaydi. Kishi o’zidagi layoqat nishonalarni doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

**2-savol bayoni**

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g’oyasi – milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo’lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’naviy ezgulikka undaydigan olijanob g’oya sifatida ulug’langan. Mazkur g’oyani yosh avlod ongiga singdirishda o’qituvchi kadrlarning roli beqiyos. Bu esa ulardan

avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy-nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «*Biz iqtisodiy o'nnglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nnglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni*»<sup>11</sup> - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy – siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini taqozo qilmoqda. Chunonchi, bu hol ta'lim tizimi va kasb-hunar ta'limi muassasalari yangilanayotgan, ta'lim - tarbiyaning mazmuni, shakli, usullari, vositalari majmuiga, o'quv – tarbiya jarayoniga o'zbekona urf – odatlar faol kirib borayotgan bir sharoitda yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, ma'naviy – ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'tgan davrdagidan ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasbiy mahorati va malakasini takomillashtirish uchun o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy shakl, usul, vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir yigit va qiz o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi, degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

Pedagogik qobiliyatlar o'z funksiyasiga ko'ra **umumiy va maxsus** turlarga bo'linadi.

Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi.

Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiynalmasdan bartaraf etadilar.


O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: *“Ta'lim – tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi”*.

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

**Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi.**

---

<sup>11</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. – Т.:“Ўзбекистон”, 1995, 47-бет



### 3–chizma. Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi.

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat – uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda sub'ektiv shart - sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

**Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim.**

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasi shuning uchun ham ishlatiladi, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutiladi. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, etakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Kishining qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, ijtimoiy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishini o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. O'qituvchining pedagogik



mahoratni takomillashtirishida qobiliyat bilim olish va malaka hosil qilishni ta'minlaydi. Qobiliyatli kishining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, kobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat engilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi.

Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. Maktab o'qituvchisining faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn, qiziqish bo'lishi kerak.

### **3-savol bayoni**

Pedagogik–psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o'zgarimas irsiyat” nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari** ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. O'z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va nazokat) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- etakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi.

Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o'qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

**Kommunikativ qobiliyat:** o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

**Pertseptiv qobiliyat:** tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

**Empatik qobiliyat:** bolalarga bo'lgan muxabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

**Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati:** o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga etkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining ongli ravishda yuzaga keltirilgan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan rejalashtira olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligida, voqea va xodisalarga adolatli munosabatda bo'lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik – ko'ra bilish ko'nikmasidir.

Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, ularning har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega.

Qobiliyatning **etakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmasdan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilar yordamchi rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:

○ aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik; kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;

○ o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;

○ aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.

○ pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

**Asosiy adabiyotlar:**

- Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq» nashriyoti, 1998. 12 b.
- Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq T., 1996. 19 b.
- Qudratov A. Nutq madaniyati asoslari. T., 1999. 26-32 b.
- Osnovo' pedagogicheskogo masterstva. M., 1989. 47-61 s.
- Qo'shimcha adabiyotlar:
- G'oziev. E. Pedagogik-psixologiya asoslari. T., 1997. 28-30 b.

## 16-MA'RUZA.KASBIY PEDAGOGIKA MAHORAT VA MULOQAT USULBLARI

### Asosiy savollar.

1. Kasbiy mahorat haqidagi ta'riflar.
2. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnikani o'rganish
3. Kasbiy pedagogik faoliyatning kontseptual asoslari

### Tayanch tushuncha va iboralar.

Konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ, pedagogik qobiliyat, kasbiy mahorat, insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik texnika

**Darsning maqsadi:** O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ. O'qituvchining pedagogik qobiliyati. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik muloqot qobiliyatlari va faoliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi, materialni ipidan ignasigacha bilishi, unga nihoyatda qiziqishi, oddiy tadqiqot ishlarini oliyub borishi to'g'risida tushunchalar xosil qilish.

Kasbiy mahorat haqidagi ta'riflar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o'rganish. Tarbiyalanuvchilarga murojaat qilishning to'g'ri stili va tovush ohangini tanlab ola bilishi, o'quvchilar hatti-harakatlariga o'zining munosabatini ko'rsata olishi, sezgi tempi (yuksakligi), boshqarish ko'nikmalarini boshqarishni bilish.

### 1-savol bayoni.

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativdan iborat. Quyidagi 10-jadvalda ifodalangan:

10-jadval

O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari

Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari	O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari mazmuni
O'qituvchi uchun zarur bilimlar (gnostik)	Pedagogika va psixologiya fanining metodologik asoslarini egallash
	O'quvchi rivojlanishining psixologik, fiziologik xususiyatlarini bilish
	Dars o'tishning pedagogik-psixologik yo'llarini bilish
	Tarbiyaning mohiyati, uning maqsad, vazifalari va metodlarini bilish
	Turli guruh o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar olib borish metodikasini bilish
Konstruktiv	Fan va madaniyat sohasida umumiy bilimlarni egallab borish
	Tarbiyaviy ishlarni rejalashtira bilish
	O'quv shaxsini jamoa sharoitida tarbiyalanishning individual rejasini amalga oshira bilish
Tashkiliy	Har xil rolli o'yinlar orqali o'quvchilar tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish
	O'quvchilarning jamoachilik faoliyatini uyushtira bilish, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish
	Kuratorlik ishlarini faol amalga oshira bilish

	O'quvchilarga berilgan jamoa topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va amaliy yordam bera olish
	Jamoatchilik va ota-onalar o'rtasidagi ishlarni tashkil eta bilish
Kommunikativ	O'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik vakillari bilan munosabat va aloqalar o'rnatish
	O'quvchilar fikrini tushunish va o'z fikrini nutq, til vositalari orqali tushuntira bilish
	O'quvchilar jamoasini, qiziqishlarini, ichki munosabatlarini idora qila bilish
	O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va ularda o'ziga nisbatan mehr-ishonch, hurmat kabi xislatlarni uyg'ota bilish

## 2-savol bayoni.

Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat ham bo'lishi zarur.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi 11-jadvalda ifodalangan turlari mavjud bo'lmog'i lozim:

11-jadval

O'qituvchining pedagogik qobiliyati

Pedagogik qobiliyatlar	Pedagogik qobiliyatlarning mazmuni
Bilish qobiliyati	bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha kenga va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarni ham bajaradi
Tushuntira olish qobiliyati	o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi lozim
Kuzatuvchanlik qobiliyati	o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik
Nutq qobiliyati	nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati
Tashkilotchilik qobiliyati	birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish, ikkinchidan, o'z ishini uyushtirishni nazarda tutadi
Obro' orttira olish qobiliyati	o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asnoda obro' qozona olishdir
To'g'ri muomala qila olish qobiliyati	bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi
Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati	o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi
Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati	o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, kuchi, ko'chuvchvnligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

### 3-savol bayoni.

*Pedagogik mahorat* - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. *Mustaqil o'qib-o'rganish* (pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).
2. *Hamkasb tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish* (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).
3. *Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs* (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.
4. *Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar* (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.
5. *Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida* ularning ish tajribalarini o'rganish (stajirovka).

Ayni vaqtda, respublikada, 'Ustoz' jamg'armasining homiyligida ta'lim muassasalarining o'qituvchilar rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo'lib, ularning ta'lim tizimi va ish tajribalarini o'rganmoqdalar.

Pedagogik mahoratni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda otanalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

### 4-savol bayoni.

Bizning nazarimizda, *zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida* quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.
2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.
3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.
4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat

tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.
6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.
7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.
8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:
  - ✓ nutqning to'g'riligi;
  - ✓ nutqning aniqligi;
  - ✓ nutqning ifodaviyligi;
  - ✓ nutqning sofliigi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;
  - ✓ nutqning ravonligi;
  - ✓ nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).
9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim- tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.
10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdegilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarining tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

#### ***Nazorat savollar:***

1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
2. Konstruktiv malakalar deganda nimani tushunasiz?
3. Tashkiliy, gnostik, kommunikativ malakalarning bir-biridan qarqi jihatlari mavjudmi?
4. O'qituvchining qanday pedagogik qobiliyatlari mavjud?
5. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar deganda nimni tushunasiz?
6. Tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar-chi?
7. Pedagogik muloqot qobiliyatlari qanday qobiliyatlar?
8. Kasbiy mahorat nima?
9. Pedagogik mahorat komponentlariga nimlar kiradi?

#### ***Mustaqil ish topshiriqlar:***

O'qituvchi MA'RUZA.ni "Kungaboqar" metodidan foydalanib, yoriting.  
Zamonaviy o'qituvchi qiyofasini Nima uchun? sxemasida ifodalang:  
Mavzu: Zamonaviy o'qituvchi

## 17-MA'RUZA. . KASB TA'LIMI DUAL TIZIMI

### Asosiy savollar.

1. Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liqligi.
2. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari, turlari.
3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashganligi.

### Tayanch tushuncha va iboralar.

Ishlab chiqarish, kasb ta'limi, moslashuvchanlik, "Dual tizim"

**Darsning maqsadi:** Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari turlari. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi.

Jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ijobiy tomonlarini hisobga olib hayotga tadbiiq qilish bizning ochiq siyosatimizdir. Bu borada hamkorlikning o'rni muhim. Kadrlar tayyorlashda eng avvalo so'nggi paytlarda bizning hayotimizga kirib kelayotgan mehnat bozori talablari tushunchasini hisobga olish muhim o'ringa ega. Germaniya Federativ Respublikasida aksariyat yoshlar deyarli tengqurlarning to'rtan uch qismi ishlab chiqarish kasb-hunar ta'limini o'taydilar. Ular o'zlari tanlagan kasb-hunarlarini korxonaga sharoitiga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda 'dual tizim' asosida egallaydilar. Shuning uchun ular tajribasini o'rganish kasb - hunar ta'limi tizimida o'z samarasini beradi.

### 1-savol bayoni.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Shuningdek, kadrlar tayyorlash o'quv jarayonida ikki yoqlama (dual) tizim asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarga beriladigan ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasasining zamonaviy jihozlangan ustaxonalarida va korxonalarda ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Shu bilan birga bir qatorda umumiy bilimlar asoslarini berish, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni har tomonlama rivojlantirish va zamon talablariga javob berruvchi mutaxassis bo'lib yetishishi uchun berilayotgan ta'lim milliy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil davlatimizga sodiqlik va iftixor tuyg'ulari ruhidagi tarbiya bilan mushtaraklikda amalga oshiriladi".

Milliy modelda ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimining teng huquqli komponentlaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Chunki ishlab chiqarish bilan kadrlar tayyorlash tizimi o'rtasida bevosita to'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqalar mavjud.

Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste'molchi funksiyalarni bajarib, tegishli sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini faol ishtirok etadi.

Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida tengqur sherik sifatida ishtirok etadi va o'ziga xos bo'lgan aniq vazifalarni bajarishga qaratiladi. Ya'ni, kadrlar tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantirishda alohida o'ringa ega.

Kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlashda bevosita ishtirok etib o'z fikr-muloazalari, malakaviy talablari bilan ta'lim tizimini shakllantirishda faol ishtirok etadi, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning majmua tarzidagi integratsiyasi uchun tegishli sharoitlar yaratadi.

Kadrlarning o'qishi, malakasini oshirish va qayta tayyorlash ehtiyojlari uchun o'zining ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliyaviy, kadrlar va boshqa resurslarini taqdim etadi.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi.

### 2-savol bayoni.

Germaniyada kasb-hunar ta'limi dual tizimga asosan tashkil etilgan. "Dual" tushunchasi ikkilik degan ma'noni bildiradi va uning asosiy elementidan biri korxonaga bo'lsa, ikkinchisi

kasb-hunar maktabi hisoblanadi. Korxonalar va kasb-hunar maktabi hamkorlikda kasb-hunar ta'limi jarayonini ta'minlaydi. Korxonalar va kasb-hunar maktabi o'rnashgan joyi va ishlash vaqti turli xil bo'lsada, bir-biri bilan hamkorlik qiladi.

Dual tizim, hatto o'zini oqlagan bo'lsa ham, uni kamdan kam mamlakatlarda uchratish mumkin. U kasb-hunar ta'limining bir necha o'qitish joylari (kasb-hunar maktabi va kasb-hunar ta'limi beruvchi korxonalar)ga bo'linganligi bilan xarakterlanadi va ba'zida korxonalararo o'quv markaziga yuboriladi. Kasb-hunar maktabi maxsus nazariy va umumiy ta'limni beradi. Ular aniq biror bir kasbga bog'liq fanlarni, umumiy kasbiy fanlarni yoki siyosiy va umumta'lim fanlarni o'qitadi. Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashi(KMK)da tasdiqlangan namunaviy o'quv rejaga asoslangan holda har bir kasb-hunar maktabi o'zining o'quv rejasini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish korxonasida, ya'ni ish joyidagi ta'lim amaliy kasb-hunar ta'limini beradi. 'Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom'da belgilab berilgandek, korxonalar o'z vaqtini rejalashtirishni, o'qitish joyini va o'qitish metodini erkin tanlaydi. Korxonalararo va korxonalar ichidagi o'quv markazda qisman ta'lim kurslari o'tkaziladi.

Odatda korxonalar va kasb-hunar maktabining vazifalari quyidagicha taqsimlangan: korxonalar amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga, kasb-hunar maktabi esa nazariy bilimlarni berishga mas'ul. Real hayotda korxonalar nazariy mashg'ulotlarni ham o'tkazadi, kasb-hunar maktabida esa nazariy mashg'ulotlarga qo'shimcha ravishda amaliy mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Bundan kelib chiqish aytish mumkinki, dual tizimida bir-birini takrorlash o'rniga, bir-birini to'ldirib borish juda muhimdir.

Korxonalar va kasb-hunar maktabi o'rtasidagi hamkorlikdan bir misol keltirsak. Korxonaning ustaxonasida o'quvchi 'Ford' va 'Folksvagen' avtomobil modellari asosiy qismlarining tuzilishi va vazifasini o'rganadi. Kasb-hunar maktabida o'quvchi avtomobilning ehtiyot qismlarini almashtirish bo'yicha nazariy bilimlarni o'rganadi va bo'lajak mehnat faoliyatida boshqa firma avtomobillari modellarining ehtiyot qismlarini ham almashtira olishi kerak.

O'quvchi nazariy mashg'ulotlarda nimani o'rgansa, shuni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olishi lozim. O'quvchi avtomobil asosiy qismlarini ko'rishi yetarli emas, balki uni o'rnatishni ham bilishi kerak. Bundan tashqari o'quvchi o'rgangan bilim va ko'nikmalarini shunga o'xshash vazifa va mashqlarda ham qo'llay olishi lozim.

Dual tizimi asosan quyidagi joylarda:

korxonada;

davlat tashkilotlarida, shuningdek davlat boshqarmalarida va idoralarida;

erkin kasblar bo'yicha muassasalarda (misol uchun: shifoxonalarda, advokatlar idorasida, arxitektura bo'limlarida);

ta'lim muassasalarida va maxsus maktablarda, shuningdek, ishlab chiqarish ta'lim ustalarini tayyorlash maktablarida, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarida o'tkaziladi.

Germaniyada kasb-hunar ta'lim tizimi asosan o'quvchilarning korxonadagi kasbiy faoliyati bilan boshlanadi. Germaniyada davlat tomonidan tan olingan 350 ta kasblar bo'yicha korxonalarda o'quvchilarga kasb-hunar ta'limi beriladi.

Germaniyada odatda ko'pchilik yoshlar maktabni bitirgandan so'ng, kasb-hunar ta'limi oladi.

Kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

o'quvchi tanlagan kasbining asoslarini o'rganishi;

o'quvchi kasbiy faoliyatiga zarur bo'lgan muayyan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi;

o'quvchi o'z kasbiy faoliyatda ishlash layoqatiga ega bo'lishi;

o'quvchi ta'lim olish davomida ish tajribalarini to'plashi.

Kasb-hunar ta'limi yakunida o'quvchi mas'ul organlar (odatda savdo va sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi) tomonidan imtihon qilinadi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilar kasb-hunar ta'limini bitirganlik haqida guvohnoma oladi. Guvohnoma o'quvchiga egallagan kasbiy bilim va ko'nikmalari bo'yicha ish joyi topib, ishlash imkoniyatini beradi. Korxonalar o'quvchiga berilgan guvohnomadan uning kerakli bilim va ko'nikmalarni egallaganini bilib olishi mumkin.



‘Yaxshi kasb-hunar ta’limi, bu - kelajakka investitsiya’ shiorida Germaniyada ta’lim siyosati, korxonalar va kasaba uyushmalari birlashgan.

Germaniyada kasb-hunar ta’limining dual tizimi murakkab va keng ko’lamdagi tizim hisoblanadi. Dual tizimini rejalashtirish, amalga oshirish va yanada rivojlantirish uchun umumiy javobgarlik hamma darajalardagi barcha ishtirokchilarning (ish beruvchi, ishchi, davlat) qiziqishlari va javobgarliklaridan kelib chiqadi. Barcha darajalar (federal mamlakat, yerlar, hududlar, o’quv yurti)dagi hamkorlik qonuniylashtirilgan va o’zini oqlagan.

Federal mamlakat darajasida Ta’lim va tadqiqot ishlari federal vazirligi asosiy va muvofiqlashtiruvchi vazirlik hisoblanadi. Boshqa federal vazirliklar (tarmoq vazirliklar) ta’lim va tadqiqot ishlari federal vazirligi bilan kelishilgan holda bo’yuq va farmoyishlar chiqaradi. Kasb-hunar ta’limi federal institutining bosh qo’mitasida ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, federal yerlar va federal hukumat vakillari tenghuquqli asosida birgalikda qatnashadi.

Federal yerlar vazirlari yig’ilishlarda ta’lim, fan va madaniyatdagi butun yerlarni qamrab oluvchi umumiylikni ta’minlaydi. Korxonalarda kasb-hunar ta’limi federal hukumat tomonidan tartibga solinadi. Maktablardagi kasb-hunar ta’limi yerlarning javobgarligiga kiradi.

Yerlar darajasida birinchi navbatda yerlar hukumatlari (ta’lim, din va madaniyat ishlari vazirliklari vakillik qiladi) umumiy va kasb-hunar ta’limi maktablariga mas’ul hisoblanadi. Kasb-hunar ta’limi bo’yicha yerlar qo’mitalarida ish beruvchilar, ishchilar va har bir yer hukumatidan vakillar qatnashadi. Yerlarning qo’mitalari yerlar hukumatlariga kasb-hunar ta’limi masalalari bo’yicha maslahat beradi. Ayniqsa ular kasb-hunar maktablar va korxonalar o’rtasida kasb-hunar ta’limi bo’yicha hamkorlik hamda ta’lim tizimi rivojlanishda kasb-hunar ta’limini nazarda tutish bo’yicha faoliyatini yo’naltirishi lozim.

Hududlar darajasida iqtisodiyotning o’zini-o’zi boshqarish tashkilotlari, birinchi o’rinda savdo-sotiq va sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi va b. mavjud. Ular tegishli hududlardagi kasb-hunar ta’limi beruvchi korxonalariga maslahatlar beradi va ularni nazorat qiladi (kasb-hunar ta’lim beruvchi korxonalar va ishlab chiqarish ta’lim ustasiga yaroqligini aniqlaydi). Ular ta’lim shartnomalarini qayd qilib boradi. Kasb-hunar ta’limida ishchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo’yicha oraliq va yakuniy imtihon komissiyalarni tuzadi. Kasb-hunar ta’lim beruvchi korxonalariga hududiy mas’ul organlarni nazorat qiluvchi mas’ul boshqarmalar odatda yerlarning iqtisodiyot vazirliklari hisoblanadi.

O’quv yurtlari darajasida kasb-hunar ta’limi beruvchilar korxonalarda tanlab olingan ishchilar vakillari (ishlab chiqarish kengashi) korxonadagi ishchilar vakillari organi to’g’risidagi qonunga ko’ra kasb-hunar ta’limini rejalashtirish va amalga oshirish hamda ishlab chiqarish ta’lim ustalarini ishga qabul qilish bo’yicha qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi.

Dual tizimida kasb-hunar ta’limi beruvchi korxonalarining hamkorlari kasb-hunar maktablari hisoblanadi. Kasb-hunar maktabda o’quvchilar tanlagan kasbi bo’yicha zarur nazariy bilimlarni oladi. Bundan tashqari kasb-hunar maktabi amaliy mashg’ulotlarni to’ldirib boradi. Misol uchun: maktabning o’quv ustaxonasida avtomobilning tuzilishini ko’rsatish mumkin. Bundan tashqari, kasb-hunar maktabi nemis tili, siyosatshunoslik, dinshunoslik va jismoniy madaniyat kabi umumta’lim fanlarni o’qitadi. Ko’pgina kasblarni egallash uchun ingliz tili ham o’qitiladi.

Kasb-hunar maktabi to’liqsiz o’quv xaftalik majburiy davlat o’quv muassasasi hisoblanadi. Kasb-hunar maktabiga borish federal yerlarda turli-xil tartibga solingan. Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerida 21 yoshgacha bo’lgan o’quvchilar kasb-hunar ta’limida o’qishni boshlasa, kasb-hunar maktabga borishi majburiy hisoblanadi. Ushbu majburiyat kasb-hunar ta’limini bitirgungacha davom etadi. O’quvchi 21 yoshga to’lib, kasb-hunar ta’limida o’qishni boshlagan bo’lsa, kasb-hunar maktabga borish huquqi o’zida saqlanib qoladi. Korxonalar o’quvchilarni kasb-hunar maktabga borganini qayd qilib borishga majbur. Ularni maktabga borishi uchun barcha ishlardan ozod qiladi.

Kasb-hunar maktabida dars jadvali belgilangan tartibda ishlab chiqiladi. O’quvchilar

maktabga haftada bir kundan ikki kungacha keladi. Ba'zi kasb-hunar maktablarda blok darslari o'tiladi va blok darslar bir necha hafta davomida o'tilishi mumkin. Kasb-hunar maktabda o'qish davomida o'quvchilar o'y vazifalarini har kunlik korxonalar va kasb-hunar maktabga borishdan tashqari vaqtlarda bajarishi lozim.

Kasb-hunar maktabiga bitta kasb bo'yicha yetarli miqdorda o'quvchilar kelsa, kasb bo'yicha sinf tashkil etiladi. Bitta kasb bo'yicha yetarli miqdorda o'quvchilar kelmasa, o'xshash kasblarni birlashtirib sinf tashkil etiladi. Ayrim hollarda bitta sinfda turli xil kasblar bo'yicha yig'ilgan o'quvchilar ta'lim oladi. Kam uchraydigan kasblar bo'yicha bitta yer yoki ikkita yerlar dajasida bitta sinf tashkil etiladi. Bunday hollarda o'quvchilar maxsus belgilangan kasb-hunar maktablarga blok darslarini o'qish uchun keladi. Korxonalar ko'p miqdorda o'quvchilarni o'qitsa, bunday korxonalar o'quvchilari uchun alohida sinflar tashkil etiladi.

**Nazorat savollar:**

1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
2. Konstruktiv malakalar deganda nimani tushunasiz?
3. Tashkiliy, gnostik, kommunikativ malakalarning bir-biridan qarqi jihatlari mavjudmi?
4. O'qituvchining qanday pedagogik qobiliyatlari mavjud?
5. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar deganda nimni tushunasiz?
6. Tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar-chi?
7. Pedagogik muloqot qobiliyatlari qanday qobiliyatlar?
8. Kasbiy mahorat nima?
9. Pedagogik mahorat komponentlariga nimlar kiradi?

**Mustaqil ish topshiriqlar:**

Quyidagi "Toifalash jadval"ini to'ldiring:

1-jadval

Dual tizimining afzalliklari	Dual tizimining kamchilliklari

Ishlab chiqarish jumlasiga "Klaster" metodini ishlab chiqing.

"Tushunchalar tahlili" metodini bajaring:

№	Tushunchalarga topshiriqlar	Tushunchalar
1.	Obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni (7Q6)	Kuzatish metodi
2.	Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini va moddiy texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi (5Q7)	Ishlab chiqarish
3.	Alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy birlik (4 ta)	Shaxs
4.	O'quvchi, talaba va o'qituvchilar orasida ta'lim-tarbiya	Suhbat

	jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro so'zlashuv, muloqot (6 ta)	
--	---	--

5.	O'qituvchi tomonidan o'zaro yaqin individual xususiyatlariga ko'ra ajratilgan, noformal yoki tuzilmaviy tarzda tashkil topgan o'quvchilar guruhiga maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish (12Q7)	Tabaqalashgan yondashuv
6.	Inson shu jumladan o'quvchi salomatligi haqidagi ta'limot (10 ta)	Valeologiya

## **19 – MA'RUZA.O'QITUVCHI VA RAXBARLARDA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUV MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH**

### **Asosiy savollari**

Pedagogik va psixologik boshqaruv to'g'risida tushuncha.  
 Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv uslublari.  
 Boshqaruvga hozirgi zamon talabi bilan yondashuv.  
 Ta'lim tarbiya jarayonini boshqarishda o'qituvchining roli.  
 O'qituvchining talablari orasida sog'lom psixologik muxit yaratish yo'llari.

### **1-savol bayoni**

Mustaqil Respublikamiz amaliyotida qo'llanayotgan qomusimizda belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama kamolga etgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari - imon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarurdir.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari aynan ana shu maqsadga erishishni taqozo etadi.

Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o'quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi.

Quyida o'quv-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz.

1.Tarbiyaning ma'lum bir maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama kamol topgan — mukammal inson shaxsini voyaga etkazishdan iboratdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda yosh yigit-qizlarni tarbiyalashning shakl va uslublarni tanlaydi.

2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi; Umumiy ta'lim maktabida yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga ehtiyoj tug'iladi. Zero o'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni xarakterga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O'qituvchi o'zining insoniy fazilatlarini, yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, odob-axloqi va muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi zarur.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchi-talabning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yukori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: «Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatni, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir»<sup>1</sup>.

O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darhol namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon esa g'oyatda murakkab.

Shunisi quvonarliki, tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta'limi islohotlarida, olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda. O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlod ongida milliy istiqol mafkurasini shakllantirish, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitish, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar.

Ma'lumki, o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasasini boshqarishning asosiy ob'ekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati quyidagi ikki asosiy masalani echishga qaratiladi:

1. Pedagoglar faoliyatini yo'naltirish.
2. Pedagoglar faoliyatini faollashtirish.

Birinchi masalani hal qilish uchun boshqaruv sub'ekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo'nalishga soluvchi ma'lum dasturni ishlab chiqishga zarurat tug'iladi. Ikkinchi masalani amalga oshirish uchun esa shaxsning hissiy-ehtiyoj sohasidagi talablarini (moddiy va ma'naviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish) rag'batlantirishni qondiruvchi imtiyozli sharoitlar yaratish taqozo etiladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya'ni aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo'ladi, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyatlar kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko'proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo'lsa tashabbus bilan ishlash darajasi shuncha ortib boradi.

11.2. Pedagogik jamoa – o'quv muassasasini boshqarishning ob'ekti

---

<sup>1</sup> А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: 1992. 43-бет.

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'lim sohasida o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagogik jamoaga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan pedagogik jamoa zimmasiga yuklatilgan. Bu o'z navbatida o'quv muassasasini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qaysi o'quv muassasasida ichki va tashqi nazorat yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha ta'lim maskanida ta'lim-tarbiya ishlari ham izchil bo'ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish bir tomondan har bir pedagogning o'z ishi uchun mas'uliyatini oshiradi hamda o'z faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Ta'lim muassasasi ishini har jihatdan to'g'ri tashkil qilish, uning samaradorligi natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo'lga qo'yishni taqoza etadi. Binobarin, yoshlarni tarbiyalash ko'plab kishilarning umumiy mehnati jarayonida hal qilinar ekan, demak bu mehnatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kuchlari qanchalik to'g'ri yo'naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta'minlanayotganligiga bog'liqdir. Aks holda birgalikda qilinayotgan jamoa mehnatining samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Umum maqsadlarga erishish yo'lida o'qituvchi-pedagoglar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik aloqalarini izchil yo'lga qo'yish, maktabni boshqarishning muhim vazifasi bo'lib, bu vazifaning pirovard natijasi asosan rahbarning faoliyatiga bog'liq.

Ta'lim muassasasini boshqarishda rahbar:

1. Tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi, tadqiqot, loyihalash ishlarini yo'lga qo'yib ish tartibini belgilashi, shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasligi.

2. Amaliy ish bajarishning belgilangan tartibda va tizimga muvofiq bajarilayotganini tekshirish.

3. Ish me'yorining buzilishiga yo'l qo'yimaslikni, qiyinchilik va to'siqlarni o'z vaqtida bartaraf etilishini kuzatishi va shu singari boshqa muhim ishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, ta'lim muassasasi rahbari ish faoliyatini 4 bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Olingan axborot asosida qaror qabul qilish. Ishning vazifalarini va yo'nalishlarini belgilash. Ma'lum ob'ektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish. Yaqin istiqbolli rejalarni belgilash. Ishning mavjud haqiqiy ahvolini belgilash, ularni taqqoslash, imkoniyat darajalarini hisobga olish, variantlarni tanlash, muassasaning rivojlanish yo'lini belgilash va boshqalar.

2. Tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini ularni ijro qiluvchilarga tushuntirishi, olingan ma'lumotlarga asosan ishni ko'rib chiqib, kamchiliklarni tuzatishi, bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-tarbiyaga oid tadbirlarni amalga oshirishi, kadrlar tanlashdan to'g'ri foydalanishi va hokazolar.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonining haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi, davlat dasturlarining bajarilishini, talabalarda yagonalikka erishilishini nazorat qilishi, o'qituvchilar va butun jamoaning hisobotlarini eshitib borishi va boshqalar.

4. Favqulodda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlar hamda to'siqlarni bartaraf etishi, intizomga oid suhbatlar tashkil qilishi, shikoyat va iltimos bilan kelgan ota-onalarni qabul qilishi, muassasani boshqarishning asosiy vazifalaridan chalg'itmaydigan ishlar va topshiriqlarni bajarishi va hokazolar.

Har o'quv yilining oxirida pedagoglar jamoasi faoliyati yakunlari muayyan shaklda aniqlanadi va baholanadi. Mazkur jarayon bundan keyingi ishlarning tashkil etuvchisi va boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Pedagog o'quv yili oxirida qilingan barcha ishlardan olingan natijalarni solishtirib u yoki bu metodlarning qanchalik muhim ekanligiga baho berishi va shu asosda tajriba to'plashi, o'z ishini takomillashtirib borishi mumkin.

Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha pedagoglarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan printsiplial masalalarni qo'yib borish ham yaxshi natija beradi. Jamoa rahbari ma'naviyat-ma'rifat borasidagi ishlarning haqiqiy ahvolini,

mashg'ulotlarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarda muntazam qatnashish hamda ota-onalar, talabalar, pedagoglar bilan doimiy suhbatlar o'tkazish orqali o'rganib boradi va ayrim juz'iy kamchiliklarni yo'l-yo'lakay tuzatib boradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, demak, jamoa rahbari va jamoa a'zolarining faolligisiz, ta'lim-tarbiya ishlarida samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. Shu sababli ta'lim muassasasi rahbari doimo ularning kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi zarur.

## 2-savol bayoni

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbusni, mustaqil qaror chiqara olishni, o'z vazifasiga ijodiy yondoshuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham tom ma'noda taalluqlidir. Shu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibi, hujjatlarni yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash bilan cheklanish mumkin. Ta'lim natijasiga belgilanadigan talab qat'iy belgilanadi va u davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilarning ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan erkinlik berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalish e'tiborini ta'lim jarayoni usullari va mazmunidan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zi uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga ega. Informativ dasturlarni bajarish to'laliligicha pedagogning xohishi, uning ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasasini boshqarish kontseptsiyasini ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy elementlarni uchratish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterga ega bo'lib, mazkur davrlarning har biri o'z davomiyligi, tatbiq etilish sohasi, vazifalari va echimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'g'in sifatida tasavvur qilish mumkin:

1. Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili.
2. Boshqaruv qarorining qabul qilinishi.
3. Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish.
4. Rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish.
5. Hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarini tahlil qilish.

## 3-savol bayoni

Bugungi kunda kasbiy ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatishi va ta'lim oluvchilarni raqobatbardosh qilib tayyorlashi talab etiladi. Bunda ta'lim muassasasining marketing xizmati muhim o'rin tutadi. Marketing tadqiqotlari keng sohadagi bir qancha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- bozorning joriy va istiqbol potentsialini o'rganish;

- bitiruvchilarning ishga joylashuv statistikasi tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarining ish o'rinlarini o'rganish;
- yangi ish o'rinlarini yaratishning yo'nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarining belgilanish xarakterini o'rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyatining samaradorligini belgilash.

Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'nalishi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad - yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim muassasasi rahbari tomonidan olg'a suriladigan rejalar va muhim tadbirlar jamoada muhokama qilinishi hamda muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo'yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat'iy yondashib borilganda doimo qabul qilinadi va qo'llab-quvatlanadi. O'quv yurti rahbari jamoada o'z ishini o'zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchining shaxs o'z xatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko'rsata olishi amalga oshiriladigan qat'iy choralarning tushunilishi va ijobiy samarasini ta'minlaydi.

Agar rahbar o'z sohasining bilimdoni, deylik u yaxshi bir pedagog bo'lishi mumkin yoki bo'lmasa u ajoyib insoniy fazilatlarini bilan odamlarning hurmat-e'tiborini qozongan, ularni nimagadir og'dirish, nimagadir ishonitirish, nimagadir undash yoki nimagadir ergashtirishni qoyilmaqom qilib uddalay oladigan bo'lsin. Lekin u kundalik tashvishlaridan ortib, o'z ustida ishlamas, bugungi kunning dolzarb muammolari, dunyo miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa, bunday rahbar o'zi istamagan holda tuzatilmas xatoga yo'l qo'yishi hech gap emas. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganidek "...bugungi hayot shiddati, voqealar rivoji shu qadar jo'shqinki, biz ma'naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim va zarur ishlarni amalga oshirayotgan bo'lsak-da, ba'zi o'rinlarda afsuski kech qolyapmiz".

Jamiyat hayotining turli sohalarida global o'zgartirishlarni amalga oshirishning eng muhim muammolaridan biri boshqaruvchi kadrlar muammosidir. Ta'lim ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida hozirgi zamon sharoitida o'quv yurti ishida boshqarish nazariyasidan foydalanish muammolarining yanada rivojlantirilishiga ehtiyoj sezadi.

Rahbarlar-rahbar-menejer jamoasini shakllantirish murakkab masaladir. Hayotning o'zi, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik amaliyoti bu masala uning hal etilishiga ko'maklashadi. Biroq ko'p narsa kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, boshqaruvning ilg'or tajribasini o'rganish va yoyish, boshqaruv fani yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha maqsadga yo'natirilgan ishga ham bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishning aniq yo'llaridan biri bozor sharoitida bir necha yuz yildan beri yashab kelayotgan ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishdan iborat. XXI asrda bunday tajribaning juda qimmatli aspektlaridan biri keng hajmli "menejment" tushunchasi bilan qamrab olinadigan faoliyat va bilim sohasidir. Bunda "menejment" tushunchasiboshqarish vazifasini kasb sifatida amalga oshiruvchi odamlar-menejerlarni ham anglatadi.

Boshqaruvni uali juda yosh, fanlararo rang-barang yutuqlariga tayanadigan ilmiy va amaliy bilimning kasbi sifatida anglab etish hozirgi zamon tsivilizatsiyasida mustahkam o'rin tutmo<sup>3</sup>da. Bular XX asr boshida F.Teylorning "Ilmiy boshqaruv", M.Veberning "Ideal byurokratiya", A.Fayolyaning "Ma'muriyat fani" kabi asarlarda o'zining aniq ifodasini topgan. Bu bilim sohasi dastlab boshqaruvda qat'iy va yagona ratsionalizm (amaliylik) yo'lidan bordi. Biroq bu menejmentda ratsionalizmining barcha afzalliklariga qaramasdan, ko'pchilik hollarda yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda o'quv yurtlarining ish samaradorligini oshirishda eng yaxshi yo'l ham emas ekan. Boshqarish bilimlari tizimida boshqarish ratsionalizmining cheklanganlikdan ta'sirlanishi sifatida boshqa fe'l-atvoriy yo'nalish mustahkam qaror topdiki, bu tashkilotlarda boshqarishning real mohiyatini tushunishni chuqurlashtirish uchun psixologiya, sotsiologiya, madaniy antropologiya yutuqlarini keng jalb qilishga asoslangan. Bu yo'nalish asosida "odamlar orasidagi munosabatlarni" takomillashtirish, "inson omilini" ishga solish, muhandis-pedagog, iqqisodchi-pedagog va boshqa xodimlarning boshqaruv jarayoni ixgirosini rivojlantirish, peshqadamlik samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar amalga oshirila boshlandi.

Boshqaruv tafakkuri uchun nazariy va amaliy jihatdan bugungi kunda eng xos narsa nima? Adabiy manbalarni tahlil etishning ko'rsatishicha ikkita yangi oqim eng ko'p ko'zga ko'rinmo<sup>3</sup>da.<sup>1</sup>

1. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon iqtisodiyotida raqobat va o'zaro boqliqlikning o'sishi, tranmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi, xalqaro axborot tizimlarshing yaratilishi, integratsiya xususiyatli boshqa tuzilmalar munosabati bilan yuzaga kelgan yangi voqealikalarni jamoaviy tafakkur qilish.

Boshqarish bo'yicha ko'plab adabiyotlarning chop etilishi, millionlab odamlarga tushunarli bo'lgan menejment bo'yicha dasturlarning tarqalishi, turli mamlakatlarning boshqarish tajribasini tekshirish orqali umumlashtirish, holatlarni ishlab chiqish, olimlar va amaliyotchilarning xalqaro keng aloqalari vositasi orqali «boshqarish» fani unga ehtiyoj sezayotgan barcha kishilarning mulkiga aylanmoqda.

2. So'nggi yillarning xususiyati shundaki, boshqarishning og'ir yukini o'z zimmasiga olayotgan yoki shu yo'lga qadam qo'yayotgan rahbarlarning tushunishlari va foydalanishlari uchun kuchlari etadigan bo'lgan, yaxshi o'zlashtiriladigan retseptlarga hamda haqiqatlarga murojaat qilinmoqda. Menejment fan sifatida o'zining butun serqirraliligi bilan o'z yo'li bo'yicha rivojlanmo<sup>3</sup>da va ulkan istiqbolga erishmoqda.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda aholining keng qatlamlari ham boshqarish g'oyalari va samarali boshqarish retseptlariga astoydil qiziqmo<sup>3</sup>dalar. Mazkur mavzu bo'yicha D.Karnegi., U.Ouchi., T.Piter., R.Uotermen kabi mualliflarning qiziqarli va jonli til bilan yozilgan kitoblari, L.Yakokki, G.Ford, A. Morit kabi bir qator yirik shaxslarning memuar asarlarining dunyo yuzini ko'rganligi fikrimizning dalilidir. Hatto maqsadlar bo'yicha «boshqarish», «og'ishlar bo'yicha boshqarish» atamalariga o'xshash «bestselle bo'yicha boshqarish» atamasi paydo bo'ldi.

Shuni ham unutmashlik kerakki, hozirgi vaqtda menejerlarning sifati va ularni tayyorlash usullarigagina emas, balki menejerlarni kasbiy tayyorlashda rahbarning o'zining roli ham jiddiy munozaralarga mavzu bo'lib qolmoqda. U maxsus ta'limga ega bo'lgan (ko'pincha muhandislik, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'xshash bilimlarga qo'shimcha), professional boshqaruvni kasb qilib olgan.

#### 4-savol bayoni

«Rahbarlik qilish» so'ziga izohli lug'atda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish kabi ta'riflar berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda rahbarlar zimmasiga yuklatilgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi besh yirik guruhga bo'lish mumkin.

1. Ma'naviy etuklik.

- siyosiy, huquqiy va axloqiy etuklik;
- ma'rifatlilik va madaniyatlilik;
- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik.
- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

2. Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati.

- mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- atrofda gilarda mehnatsevarlik fazilatlarini tarbiyalay bilish;
- ishni rejali olib borish.

3. Bilim darajasi.

- iqtisodiyotni, texnika va texnologiyani bilishi;
- boshqarish ilmini, funktsiyalari va tuzilishini bilishi;
- istiqbolni bilishga qodirligi.

---

<sup>1</sup> С.С.Фуломов.ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. - Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2000.



#### 4. Tashkilotchilik qobiliyati.

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni uddalay bilish;
- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalash salohiyatiga ega bo'lish;
- jiplashgan jamoani vujudga keltira olish;

#### 5. Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.

- boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
- ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyatiga ega bo'lish;
- turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
- boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Aynan shu bilimlar yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va mukammallashtirishga yanada samarali ta'sir ko'rsatuvchi shakl hamda usullarni topish mumkin.

Rahbar quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma'lumoti);
- ma'naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni echish);
- muomala madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish.

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:

- ezgu ideallar bilan mashg'ul bo'lish;
- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta'sir rahbarning quyidagi omillarni bilishiga bog'liq:

- xodim madaniyati va ma'lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasining qay darajada rivojlanganligi;
- jismonan sog'lomligi, ma'naviy barkamolligi;
- individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlari;
- mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;
- axloqiy-ma'muriy choraga xodimning munosabati.

Tabiiyki, tarbiyaviy ta'sir umumiy va qotib qolgan bo'lmasligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar orqali har bir muayyan shaxs uchun o'ziga xosiyondashuvni talab qiladi. Shuning uchun tarbiyaviy ta'sir har bir shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lishi kerak, bu esa rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo'lishini taqozo etadi.

Rahbar tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirishining quyidagi ta'bir joiz bo'lsa, «texnologik tamoyillari» mavjud:

1. Ruhiy o'ziga xoslik, ya'ni shaxsga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim;

2. Ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanligini shaxsan namoyon etish;

3. Yakka tartibda yondashish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan «a'lo» tomonini izlash;

4. Mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha muammoni hal etish;

5. Shaxsiy mo'ljal. Bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish.

Umuman olganda, rahbar xodimga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, G.Salening quyidagi so'zlarini yodda tutishi foydadan xoli emas: «Shuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo'q. Biz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha».

Nazorat savollari.

1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
2. Pedagogik jamoaga ta'rif bering?
3. Marketing – nima?

4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing tizimi haqida so'zlab bering?
5. Boshqaruv dasturi qanday amalga oshiriladi?
6. Shaxs rivojlanishining asosiy psixologik va pedagogik omillari haqida so'zlab bering?
7. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi qanday kuchlar mavjud?
8. O'quv yurtlarida ta'lim jarayoni qanday shakllarda amalga oshiriladi?
9. Menejment – nima?
10. Rahbarga shaxsiga qo'yiladigan talablar Siningcha bugungi kun rahbari qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?

## 20 -MAVZU: O'MKHT KASBLARI VA MUTAXASSISLIKLARINI TURKUMLASH.

### Asosiy savollari

1. O'MKHT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori, uning maqsadi va obyektlari.
2. Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi.
3. O'MKHT ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari tushunchasi.
4. Tasniflagich tuzilmasi.

### 1-savol bayoni

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 1998-yil 5- yanvar 5-son qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qonunlari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining meyoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

Kasb–хunar коллежлари ва уларнинг тайёрлов соҳалари



Mazkur tasniflagich O'zbekiston Respublikasining hududlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari tasniflagichning tasniflash obyektlari hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yoʻnalishlari nomi, kodi va shu tayyorlash yoʻnalishlari turkumiga kiruvchi kasblar va mutaxassisliklar roʻyxati keltirilgan.

Ushbu tasniflagichda taʼlim haqidagi meyoriy hujjatlarni indeksasiyalash maqsadida foydalaniladigan taʼlimni xalqaro standart tasniflash (TXST) kodlari ham keltirilgan.

OʻMKHT tayyorlov yoʻnalishlari va ixtisosliklar kodi — kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar boʻyicha tayyorlov yoʻnalishlari ixtisoslashtirilgan roʻyxatining raqamli belgisidir.

## **2-savol bayoni**

**Tayyorlov yoʻnalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT)** - oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash boʻyicha tayyorlov yoʻnalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan roʻyxati.

**Kichik mutaxassis** - bu taʼlim dasturini muvaffaqiyatli oʻzlashtirgan oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

### **Kichik mutaxassis:**

- tegishli ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida uning unumli faoliyat koʻrsata olishini taʼminlaydigan nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va koʻnikmalarga ega;

- mazkur jamiyatda oʻzining muvaffaqiyatli hayot darajasini taʼminlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega.

**Malaka** — xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi maʼlum ishni bajarish uchun zarur boʻlgan bilim, malaka va koʻnikmalarning mavjudligi.

Xodimning malakasini belgilovchi koʻrsatgich boʻlib, kategoriya yoki diplom, ilmiy daraja yoki unvonning mavjudligi hisoblanadi.

**Kasbiy faoliyat sohasi (KFS)** kasbiy bilim, malaka va koʻnimlarning qoʻllanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

**Kasb-hunar taʼlimi tarmoq standarti** – yoʻnalishlar boʻyicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, taʼlim oluvchilarning oʻquv yuklamalari hajmi va standart sifatleri nazoratini belgilab beradi.

## **3. OʻMKHT taʼlim muassasalarida taʼlim yoʻnalishlari tushunchasi.**

**OʻMKHT taʼlim muassasalaridagi tayyorlov yoʻnalishlari** — aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy taʼlim berish doirasidir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatining aniq sohasi boʻyicha tayyorlov yoʻnalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

**Kasb** - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida maʼlum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy koʻnikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni taʼminlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashgʻulotining) turidir.

**Ixtisoslik** — birorta kasb doirasida maʼlum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, koʻnikma va malakalar majmuasi.

**OʻMKHT tayyorlov yoʻnalishlari kasblar va ixtisosliklar kodi** -kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar boʻyicha tayyorlov yoʻnalishlari ixtisoslashtirilgan roʻyxatining raqamli belgisidir.

### **Oʻquv meyoriy hujjatlari**

Maʼlumki, insonning har bir xatti-harakati ongli ravishda amalga oshadi. Ana shu ongi xatti-harakat yetuk psixolog olim P.Y. Galperin va uning maslakdoshlari fikricha, asosan, quyidagi uch bosqichda amalga oshadi:

I. Birinchi bochqich. Moʻljalga olish bosqichi boʻlib, unda shaxs oʻz oldiga qoʻygan aniq maqsadini moʻljalga oladi, yaʼni rejalashtiradi, loyihalashtiradi. Maqsadga erishish yoʻllarini modellashtiradi.

II. Ikkinchi bohqich. Asosiy amalga oshirish bosqichida o'z imkoniyati, shart-sharoit, mavjud bo'lgan ko'plab boshqa omillarni hisobga olgan holda amaliy xatti-harakatlar bajarilib, ma'lum natijaga erishiladi.

III. Uchinchi bosqich. Nazorat qilish va o'zlashtirishlar kiritish bosqichi hisoblanib, unda ko'zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosaga kelinadi. Kerakli hollarda reja va amalga oshirish bosqichlarining mazmuni, tuzilmasi va shakliga o'zgartirishlar kiritilib, ish-harakat usullari takomillashtiriladi.

Kishilar (inson) tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta'lim-tarbiya ishi ham ushbu qonuniyatga to'liq bo'ysunadi. Demak, ta'lim-tarbiya ishi ma'lum meyorlar doirasida amal qiladi. Bu meyorlarsiz ta'lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon va makon hamda natijalar tekisligida samarasiz bo'ladi. Aslini olganda, maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari aniq maqsadni ko'zlab, reja asosida kechadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbiiq etishni taqozo qildi.

Shu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'lim jarayoni, mazmunini isloh qilish, asosan, meyoriy hujjatlar majmui (davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqloq g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

#### **4. Tasniflagich tuzilmasi.**

**Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi** o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

**Davlat ta'lim standartlari** ( DTS)- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

#### **Tasniflagichda sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan:**

1. Ta'lim;
2. Gumanitar fanlar va san'at;
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq;
4. Fan;
5. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;
6. Qishloq xo'jaligi;
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
8. Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar yettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilangan. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

O'rta maxsus, kasb — hunar ta'limi kodlarida:

**Birinchi raqam** - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

**Ikkinchi raqam** - bilim sohasi kodi;

**Uchinchi raqam** - ta'lim sohasi kodi;

**To'rtinchi va beshinchi raqamlar** - tayyorlov yo'nalishi kodi;

**Oltinchi va yettinchi raqamlar** - ixtisosliklar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat) da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

**21-MA'RUZA.KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA TARBIYAVIY  
ISHLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI  
Asosiy savollari**

- 1. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash.**
- 2. O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixalogik metodlari.**
- 3. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash metodlari.**
- 4. KXTda guruh murabbiylari**

**1-savol bayoni**

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.<sup>1</sup>

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jiplashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.<sup>12</sup>

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim–tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat-ma'rifat keng quloch yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi

<sup>1</sup> К.Хошимов., М.Хошимова. Тарбиявий ишлар услуубиети. – Т.: ТДИУ, 2006.

<sup>12</sup> Собиров Б.Б. Талабаларда иктисодий тушунчаларни шакллантиришда инновацион усуллардан фойдаланишнинг педагогик асослари. П.ф.н.илмий дараж. олиш учун ёзилган дисс. - Т.2004, 186- б.

kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli va jamiyat fuqarolarida sog'lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo'ladi.

Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o'z o'rnini, mavqeiga yarasha vijdonan hissa qo'shmog'i lozim.

Insonning ma'naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatlarini majmuidan iborat.

*Sifat* – alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

*Fazilat* – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

*Odob* – har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

*Axloq* - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

*Madaniyat* – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

*Ma'naviyat* – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo'lishini taqozo etadi. Bu yo'lda kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g'oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo'lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishga yangicha yondoshuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- sho'rolar hokimiyati davrida ta'lim sohasidan o'rin olgan mafkuraviy mahdudlikdan xalos bo'lish;

- o'zbek milliy mentaliteti va jahon tsivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadigan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;

- Sharq mutafakkirlari asarlarida ko'tarilgan Komil inson g'oyasi ta'limotlariga amal qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ta'lim-tarbiya xususan hozirgi zamon yoshlari qanday bo'lishi kerak degan ta'limotiga nisbatan javoblarga to'la amal qilish kabilar.

## 2-savol bayoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o'zaro mutanosib, to'laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan, u bor-yo'g'i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro'-e'tibor orttirish vositasiga aylanib qolaveradi».<sup>1</sup>

Mustaqillikning bosib o'tgan yillari davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko'pgina sohalarida barqaror o'sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har

<sup>1</sup> Каримов И.А. Жамиятда тадбиркорлик руҳини қарор топтириш – таракқиёт гарови. /Халқ сўзи, 2001 йил 18 июль.

tarablama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.<sup>2</sup>

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, «Istiqloq mafkurasi ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi»<sup>3</sup>

Bu qo'yilgan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi XXI asrda biz yashamoqchi bo'lgan umumiy uyimiz, ya'ni yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «.. bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri– bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz»<sup>1</sup>.

Ta'lim-individning jamiyat hayotining turli sohalariga jamiyatda mavjud madaniyatga tayyorlash va moslashtirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institutdir,

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday sohada bo'lganidek ta'lim sohasida ham muammolar mavjud. Bu kabi muammolar mustaqil respublikamizni ham chetlab o'tgan emas. Ushbu muammolarni hal etish hamda ta'lim sohasida zaruriy islohotlarni amalga oshirish maqsadida ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga ko'ra mamlakatimizda yagona uzluksiz ta'lim tizimi tashkil qilinib, ta'lim islohoti va uning istiqbollari quyidagi tamoyillar asosida belgilandi:

a) millati, dini, irqi, e'tiqodidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratilganligi.

b) ta'lim tizimining uzluksizligi, ilmiyligi, dunyoviyli va izchilligi.

v) ta'limda umummilliy, umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarning ustuvorligi.

g) ta'limning insonparvarligi, demokratiyaliligi, ta'lim-tarbiya muassasalarining siyosiy partiya va boshqa ta'sirlardan xoliligi.

Demak, yuqoridagi tamoyillar amalga oshirilayotgan ekan, jamiyatimizning har bir a'zosi, xoh duradgor, hisobchi, korxonahabari yoxud mashhur siyosatchi bo'lsin, bu sohaga yuksak hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lishi lozim. Vaholanki, Yurtboshimiz I.A.Karimovning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqlli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart» degan shiori hamisha har birimizning diqqat markazimizda bo'lishi shart.

Kasbiy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy istiqloq mafkurasiga asoslangan, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo'nalishlar bilan erishiladigan g'oyaviy a'mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masaladir. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

- Har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning ulug' tarixiy o'tmishiga, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish va uni e'tiqodga aylantirish;

<sup>2</sup> Шодмонов Ш., Алимов Р., Жўраев Т. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Молия, 2002, 3-бет.

<sup>3</sup> Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2001, 6-бет.

<sup>1</sup> Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори - Т.: “Шарқ” нашриёт - матбаа концернининг Бош тахририяти, 1997, 5-бет.

- Ta'lim oluvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji - o'zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish kabi illatlarga murossasiz bo'lish ruhida tarbiyalab borish ularni yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar kompleksida etakchi o'rin tutadi. Kasb ta'limi muassasalarida talaba-yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma'qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e'tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni, xatti-harakat bilan bog'liq malaka va odatlarni hosil qilib bo'lmaydi. Bunda asosan yoshlarga axloq-odob norma va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim.

### 3-savol bayoni

Axloqiy tarbiya mazmunining shakllanishida o'zbek mutafakkirlarining alohida xizmatlari bor. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar tarbiya jarayoniga jiddiy qaraganlar va bu boradagi qimmatli fikrlarini dunyoga tanilgan asarlarida bayon etganlar. Ushbu asarlar nafaqat o'zbek xalqining, balki butun insoniyatning rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham insoniyat uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Abu Nasr Forobiy - mashhur mutafakkir, qadimgi Yunon ilmi va falsafasining sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga asos solgan mutafakkir. Forobiy «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substantsiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi<sup>13</sup>. Alloma bu asarlarida davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarning oldini olish hamda kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi masalalar ustida fikr yuritadi. Etuk jamoani vujudga keltirish, komil insonni yaratish muammosini hal etish bilan bog'liq ekanligini birinchi bor o'rta asr sharoitida Forobiy olg'a surdi. Uning «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag'ishlangan. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zurligini, ta'lim-tarbiya usullari va uslubiyatlari haqida fikr yuritadi. Uning «Fozil odamlar shahri», «Ixso-al-ilm», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Jamiyatda mavjud an'ana va urf-odatlarda ham axloq me'yorlari va mazmuni o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning bir kategoriyasi sifatida axloqiy qadriyatlar qabul qilingan va bu axloqiy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning mazmunini va me'yorlarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman qadriyatlar deganda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushuniladi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq holda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi natijasida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Axloqiy mazmundagi qadriyatlar bolaning ongi va faoliyatini faollashtiradi, ish va so'z biriligini ta'minlashga yordam beradi. Bunday qadriyatlar jumlasiga insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-muhabbat, poklik, kattalarga hurmat, muhabbat, xushmuomalalik, do'stlik, saxiylik, sahovat, shirinso'zlik va boshqalar kiradi. Mazkur qadriyatlar negizida jamiyatda, oilada, maktabda bolani yuksak insoniy fazilatlariga ongli ravishda amal qilishga da'vat etish g'oyasi yotadi.

Axloqiy tarbiya jarayonining dastlabki bosqichida shaxs axloq me'yorlariga ma'lum darajada to'g'ridan-to'g'ri bo'ysungan holda ko'r-ko'rona amal qilsa, axloqiylikning yuqori

---

<sup>13</sup> Abu Nasr Forobiy. Risolalar. M.M. Xayruллаев. - T.: Fan, 1975 (71-72 bet).



darajasiga etganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'r-ko'rona bo'ysunish ongli idrok etishga yakka shaxsning axloq me'yorlari va jamiyat axloq me'yorlari o'rtasida uyg'unlikning hosil bo'lishiga erishish lozimdir. Axloqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri ham xuddi ana shu shaxs va jamiyat orasidagi uyg'un munosabatning, axloqiy birlikning hosil bo'lishi demakdir.

Inson axloqiy madaniyatning eng oddiy me'yorlarini ilk yoshligidan boshlaboq avval oilada, so'ng o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatlarida egallay boshlaydi. Bu ahloqiy me'yorlarga amal qilishning motivlari turlicha bo'ladi. Ota-onaga bo'lgan hurmat va muhabbat bolani axloqiy talablarga amal qilishga va shu orqali ota-onaning hayrixohligiga va mehriga sazovor bo'lishga undaydi. Bundan tashqari axloqiy me'yorlarga amal qilmaslik holatida jazolashdan foydalanish ham bolani ogoh bo'lishga undaydi. O'z tengqurlari bilan muloqotga kirishish ishtiyoqi, ichki ehtiyoj ham bolada axloqiy me'yorlarga amal qilish motivatsiyasini uyg'otadi. Bularning barchasi har bir yosh bolani axloqiy me'yorlar bilan to'qnashishiga va ularga amal qilishni o'rganishiga yordam beradi. Shuningdek, insonda axloqiy me'yorlarga amal qilish malakasini va ko'nikmasini hosil bo'lishiga olib keladi. Ammo bunday axloqiy me'yorlarga amal qilishni biz hali axloqiy onglik darajasi deb ayta olmaymiz. Chunki bu holda axloqiy me'yorlar ichki ehtiyojdan kelib chiqqan holda emas, balki tashqi ta'sirlarning natijasi sifatida vujudga keladi. Shunga qaramay axloqiy darajaning bu dastlabki pog'onasi juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang'ich nuqta sifatida keyingi rivojlanish uchun xizmat qiladi. Axloqiy rivojlanishning bu bosqichida atrof-muhitdagi axloqiy madaniyat darajasi eng muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanishning barcha bosqichlarida jamiyatda qaror topgan axloqiy bilimlar yangi axloqiy bilimlar bilan to'ldirilib birishi talab etilgan. Aytish joizki, bu qonuniy jarayondir. Demak, hozirgi vaqtda ham axloqiy bilimlarimiz qanchalik boy bo'lmasin dialektik rivojlanish qonuni ushbu axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borilishini talab etadi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar bugungi kunda axloqiy qarashlarni qaytadan talqin etishni, fan va texnikaning rivoji natijasida erishilayotgan yangi bilimlardan axloqiy tarbiya jarayonida foydalanishni taqozo etishini nazarga olsak, bu vazifaning qanchalik zarurligini his etamiz. Demak, biz axloqiy tarbiyani uchinchi vazifasini ham aniqlab oldik bu: - axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borish, ilm-fan erishgan yangi bilimlardan va yutuqlardan foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

#### 4-savol bayoni

O'zbekiston Respublikasida chuqur keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, zamon talablariga javob beradigan oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirishgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Biz qiyin sharoitda kelajagimiz poydevorini qurib oldik. Bunga o'nimizga keladigan yosh avlod qanday baho beradi, loyihalarimiz, ishlarimizni taroziga solib ko'rib nima deydi? Har birimiz mana shu savolni dilga tugib mehnat qilishimiz lozim. Mening ishonchim komilki, O'zbekiston xalqi farovon turmush kechiradigan buyuk davlat bo'ladi».<sup>1</sup>

Ma'lumki, qaysi davlatda kadrlar tayyorlash siyosati to'g'ri va omilkorlik bilan tashkil etilsa, o'sha davlatda har doim taraqqiyot bo'ladi.

Ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi. Shu ma'noda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlaboq, davlatimiz rahbarining «Kelajak bugundan boshlanadi», «Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

kelajak boy beriladi», «Tarbiyadan xech narsani ayamaymiz»<sup>2</sup> degan da'vatlari ostida ta'lim tizimini isloh qilishga kirishildi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligini yanada yuksaltirish, respublikaning aql zakovat salohiyatini o'stirish, davlatimiz qudratini oshirish, uning mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Ta'lim tizimining moliyaviy va moddiy ta'minoti qonuniy yo'l bilan ijobiy hal etildi.

Faqat o'tish davrining o'zida mazkur dastur uchun 65 mlrd. so'm ajratish ko'zda tutilgan. 1999 yilda bu maqsadlar uchun 34 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 8-10 foizga teng qismi ma'rifat, ta'lim va tarbiyaga ajratilmoqda – bu katta miqdordagi mablag'dir. Masalan, respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» doirasidagi ta'lim xarajatlari 1999 yili 159,2 mlrd. so'm, 2000 yili 248,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2001 yili 336, 1 mlrd. so'm sarflangan.

1997 yilda tashkil topgan «Umid» va boshqa jamg'armalarning ko'magida iqtidorli yoshlar rivojlangan davlatlardagi nufuzli o'quv markazlarida tahsil olmoqdalar. Yoshlar xorij hayotini ko'rib, xalqaro hayotiy tajriba orttirib, chet tillarini mukammal egallab, zamonaviy bakalavrluk va magistrlik darajasiga respublikamizning turli bosqichdagi kadrlar xorijiy ta'lim markazlarida tajriba va malaka orttirib kelmoqdalar. Bunday yondashuvlar ham O'zbekiston ta'lim tizimining yorqin istiqboliga va uning mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning umumiy mazmuni va o'ziga xos xususiyati shundan iboratki:<sup>1</sup>

- u bozor iqtisodiyotining fundamental asosi;
- zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri;
- aholi kasb ta'limining obro'li sohasi;
- uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta'limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta'limi tizimi bilan uyg'unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, - «Iqtisodiyot, siyosat sohasidagi barcha islohotlarimizning asosiy maqsadi insonga qaratilgan. Mana shuning uchun ham milliy uyg'onish g'oyasini amalga oshirishga qobil yangi avlodni tarbiyalash ishi davlat ishi, uning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi».<sup>1</sup>

Rivojlangan mamlakatlarda kasb ta'limi (shu jumladan oliy ta'lim)ning bosh maqsadi – raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va barcha toifadagi malakali xodimlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iborat.

Zero, raqobatbardosh mutaxassislarsiz raqobatbardosh iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.

O'zbekistonda mazkur masalani muvaffaqiyatli hal qilishda Kadrlar tayyorlash milliy modeli asos bo'lib hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:<sup>2</sup>

**shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'ekti va ob'ekti, ta'lim xizmatini talab etuvchi hamda amalga oshiruvchi;

<sup>2</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999.

<sup>1</sup> /уломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: Шарқ, 2002. 139-бет.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаш йўлида. - Т.: Ўзбекистон, 1995 йил.

<sup>2</sup> Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ нашриёт матбаа концерни. 1997.

**davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyat ko’rsatishini nazorat qilish hamda ish olib borishning boshqarishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularga talabgorlik kafolati;

**uzluksiz ta’lim** – o’z tarkibiga barcha ta’lim turini, davlat ta’lim standartlarini, faoliyat ko’rsatish tuzilmasi va muhitini olgan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosi;

**fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va talab etuvchi, ilg’or pedagogik va informatsiyaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi;

**ishlab chiqarish** – kadrlarga bo’lgan talabni, shuningdek ularning tayyorlanganlik va sifat darajasiga talabni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimlarini moliyalash va moddiy-texnik ta’minlash ishtirokchisi.

Kasb ta’limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e’tiborni qaratish kerak. Ular:

1. O’qitish jarayonini ilg’or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;

2. Talaba va ustoz o’rtasidagi axloqiy hamda aqliy saviyani oshirishga erishish;

3. Ta’lim-tarbiya masalalarining qat’iy reja asosida olib borilishi;

4. O’quv muassasasida ijobiy emotsional sharoit yaratish;

5. Ta’lim oluvchilarning o’quv muassasasining umumiy tartib, hayot tizimiga rioya qilishiga erishishni ta’minlash.

Shunday qilib, yagona ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya ishini amalga oshirishda suhbat, munozara, ma’ruza kabi metodlardan, axloqiy odatlarni esa mashq, turli faoliyatni uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

#### **Nazorat savollari**

1. Respublikamizda ma’naviyat-ma’rifat bo’yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Tarbiya mazmunining mohiyatini belgilashda qanday yondashuvlar mavjud?
3. Oliy maktabda ta’lim-tarbiya ishlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?
4. Talabalarda ma’naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiyaviy ishlar mexanizmini ta’riflab bering?
6. Kasb ta’limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Talabalarning aqliy faoliyati xususiyatlari qanday izohlanadi?
8. Madaniyat, ma’naviyat, axloq, odobga ta’rif bering?
9. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi haqida so’zlab bering?
10. Sharq mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan misollar keltiring?

**22 –MA’RUZA. Kasb ta’limini umumiy o’rta ta’lim, oliy ta’lim va fan bilan integrasiyalash.**

#### **Asosiy savollari**

**1. Kasb ta’limini umumiy o’rta ta’lim va oliy ta’lim bilan integrasiyalash omillari.**

**2. Kasb ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integrasiyasi.**

**3. Kasb ta’limini umumiy o’rta ta’lim va oliy ta’lim ta’lim bilan integrasiyasi.**

#### **1-savol bayoni**

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunining 9 – moddasida, O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining yagona va uzluksizligi belgilab qo’yilgan.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha xisoblanadi. U ijodkor,

ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'limni quyidagi prinsiplari asosida tashkil etiladi va rivojlantiriladi:

- ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuziligi;

- ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

- ta'limning insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

- iqtidorli yoshlarni anglash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Shulardan kelib chiqqan xolda Kasb ta'limini umumiy o'rta va oliy ta'lim bilan integrasiyalash omillarini belgilash mumkin.

Kasb ta'limini umumiy o'rta va oliy ta'lim bilan integrasiyalashning muhim omillari quyidagilardan iborat:

- respublikaning demokratik xuquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

- O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining yagona va uzluksizligi;

-uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyalash puxta mexanizmlarining ishlab chiqarilganligi va amaliyotga joriy etilganligi;

-O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

## **2-savol bayoni**

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»i da fan bilan ta'lim jarayonining aloqalarini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilgan va bu borada bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Fan bilan ta'lim jumladan, o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi jarayonining aloqalarini rivojlantirishda kasb (o'rta-maxsus, kasb-xunar) ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integrasiyasi katta o'rin tutadi.

O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi, uning muammolari va yechimlari, istiqbollari sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi olimlar tomonidan o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi. Ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiq kelishini o'rganish va uni muvaffiqlashtirishni tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqib amaliyotda qo'llashadi.

Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi jarayonidagi keng ishtiroki ta'minlanadi va shu orqali, o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi-integrasiyasi yo'lga qo'yiladi, yoshlarning fan-texnika

sohasidagi ijodkorligi har tomonlama kengayadi, ular Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 1992 yil 2 iyuldagi va 1997 yil 29 avgustdagi qarorlariga binoan " Ta'lim to'g'risi"dagi Qonunlari hamda uning yangi mukammallashtirilgan varianti, 1997 yil 29 avgustdagi qarorlariga binoan "Kadrlar tayyorlash milliy dastur" i amalga kiritildi. Bu xujjatlarda ta'limning jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy - ma'naviy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilib, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va uni boshqarish tartibi, pedagog xodimlarning huquqlari, vazifalari va mas'uliyati kabi masalalar qatorida fan va

ta'lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish, ishlab chikarish va ta'lim tizimi integrasiyalashuvini rivojlantirishning qonuniy asoslari va yo'llari belgilab berildi.

Respublika xalq ta'limining asosiy maqsadlari demokratik erkin davlat qurish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tish bilan bog'langan. Zero, eski ta'lim - tarbiya tizimi bilan yangi jamiyat barpo qilib bo'lmasligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Shuning uchun ham xalq ta'limi tizimining barcha sohalarida turli yo'nalishdagi yangi rejalar, dasturlar, konsepsiyalar va nizomlar ishlab chiqilmoqda, respublikamizning porloq istiqbolini belgilab beradigan mukammal uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va uni takomillashtirish ustida qizg'in ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar xalq ta'limi tizimida o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Respublika pedagogika fanlari ilmiy - tadqiqot instituti, Respublika o'quv - metodika markazi, pedagogika o'quv yurtlari olimlari va ilg'or o'qituvchilari bilan hamkorlikda ta'lim mazmunini yangilash sohasida ilmiy izlanishlar bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

"Fan - texnika - ishlab chiqarish" tizimining har bir tarkibiy qismi ma'lum darajada mustaqil bo'lib, ularning har biri fan - texnika taraqqiyotida o'ziga xos vazifalarni bajaradi va aniq taraqqiyot qonuniyatlariga ega.

Fan ilmiy tadqiqotlar asosida - g'oyalarni jamlaydi, texnika - uni yangi mashina va texnologiyada moddiylashtiradi, kasbiy ta'lim asosi bo'lgan berish orqali mutaxassislar bilan ta'minlanadigan ishlab chiqarish o'z navbatida fan, ilmiy tadqiqotlar va texnika yutuqlarini amaliyotda qo'llaydi. O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi, uning muammolari va yechimlari, istiqbollari soxasida ilmiy izlanishlar fundamental va amaliy fanlar doirasida olib borilganligi sabab ushbu fanlardan birortasi ilmiy tadqiqotlar jarayonida - yetakchi omil bo'lib, kasbiy ta'limni tadqiq qilishda "fan - ilmiy tadqiqotlar - texnika - kasb ta'limi - ishlab chiqarish" tizimining asosiy bo'g'ini, "ishlab chiqarish jarayonini oddiy mehnat jarayonidan ilmiy tadqiqotlar jarayoniga" aylantirish asosi hisoblanadi. Fan - ilmiy tadqiqotlar - texnika - kasb ta'limi - ishlab chiqarish integrasiyasi ta'lim integrasiyasining asosiy yo'nalishi sifatida didaktik moslangan ko'rinishda ham namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, fan umumta'lim va maxsus ixtisoslik turkumidagi o'quv predmetlari doirasida umumiy va kasbiy ta'lim mazmunining shakllanish manbalaridan biri hisoblanadi va asosiy ilmiy bilimlar majmuida o'z aksini topadi. Zamonaviy ilmiy bilimlarga oid g'oyalardan biri ularni integrasiyalash g'oyasi hisoblanadi. Ilmiy bilimlarni integrasiyalash g'oyasi o'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi tizimida ham o'z aksini topishi zarur.

Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integrasiyasi mazmun miyatini to'laroq onglash uchun avvalom-bor "integrasiya" tushunchasining o'zini ko'rib chiqamiz.

"Integrasiya" tushunchasiga integrasiyalanadigan obyektlarning mohiyatiga ko'ra turlicha ta'rif berish mumkin. Masalan:

- "mamlakatlar integrasiyasi" tushunchasi ostida dunyodagi bir qancha mamlakatlarning iqtisodiy, ilmiy - texnik hamkorligi;

- "ishlab chiqarish integrasiyasi" tushunchasi orqali sanoat, agrosanoat yoki ilmiy - ishlab chiqarish majmualari tushuniladi. "Fanlar integrasiyasi" deyilganda esa bilimlar sintezining turli shakllari, tushuniladi.

Umuman, ilmiy adabiyotlarda "integrasiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan "integrasiya - bu ayrim tarkibiy qismlarning yangi xossa hosil qilib bir butun birlashish jarayonidir". Pedagog olim V.P.Kuzminning xulosasiga ko'ra, integrasiya - tizimli yondoshuvdan iboratdir. Chunki "tizim" - bir butunning obyektiv shakli, "integrasiya" esa ayrim qismlarning birlashish mexanizmi va natijasidir.

Biz, "integrasiya" tushunchasiga berilgan turli xil izohlarni umumlashtirgan holda, bu jarayonni u yoki bu fanning ularni unifikatsiyalar va majmualashtirishga olib keladigan tarkibiy qismlarning yagona dunyoqarash mantiqiy - metodologik o'zaro ta'siri jarayoni deb bilamiz.

O'rganib chiqqan ilmiy tadqiqotlarimizda "integrasiyalash, integrasiyalash jarayoni" tushunchasi bilan bir qatorda "differensiyalash, differensiyalash jarayoni" tushunchasi ham uchraydi. Integrasiyalash va differensiyalash jarayoni inson tafakkurining ikki jihati bo'lib, bir tomondan, olam - yagona butunlik sifatida, ikkinchi tomondan chuqur aniq qonuniyatlar va sifatiiy o'ziga xos turli xil tarkiblar sistemalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikkita jarayon bir-birini dialektik taqozo qiladi, to'ldiradi va biri ikkinchisi orqali namoyon bo'ladi.

Ko'pchilik falsafa sohasidagi tadqiqot ishlarida integrasiya va differensiasiya jarayonlarining o'zaro munosabati o'zgaras va qo'zg'almas emasligi ta'kidlanadi.

Ilmiy bilimlar taraqqiyotining turli bosqichlarida bu jarayonlardan bittasi ikkinchisidan ma'lum vaqt mobaynida ustunlik qilishi mumkin. Fan - texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, integrasiya jarayoni differensiasiya jarayoniga nisbatan ustunlik qilmoqda. Shubhasiz, ilmiy bilimlar differensiasiyasi fan, texnika taraqqiyotida ma'lum ahamiyatga ega, ammo u hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Bu vazifani ilmiy bilimlar integrasiyasi jarayoni bajaradi.

I.T.Frolov fikricha - " integrasiyalash g'oyasi fan va texnika taraqqiyotidagi asosiy yo'nalishdir".

Hozirgi kunda fanlar ta'limining, jumladan kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integrasiyasi muammosiga e'tibor ortib bormoqda. Bu holat o'z navbatida tabiat va jamiyat taraqqiyoti muammolarining majmuaviy xarakterda ekanligini isbotlamoqda, ya'ni ularning yechimi bir qancha fanlarning yutuqlarini amalda ta'lim jarayonida qo'llash bilan bog'liqdir.

Hozirgi davrda ta'limining, jumladan kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integrasiyasining yangi zamonaviy turi bilishning umumiy ilmiy shakllari va vositalari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Fan - texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ularning shakllanish manbalari kasb ta'limida o'rganiluvchi tabiiy, texnik, pedagogik, metodik, gumanitar va boshqa fanlar orqali o'zlashtirib olinuvchi umumiy ilmiylik tusini beruvchi tushunchalar hisoblanadi. Zero ta'limining, jumladan kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integrasiyasi ko'p tushunchalarga umumiy ilmiy tus berish va uni shakllantirish asosida namoyon bo'lmoqda.

### **3-savol bayoni**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim ta'lim bilan integrasiyasini ta'minlashga "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda belgilab berilgandek ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarining uzluksizligi asos bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining bir bo'g'ini bo'lgan o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim va umumiy o'rta ta'lim uzluksizligi va izchilligi hamda o'zaro integrasiyasi davlat ta'lim standartlari doirasida, tegishli ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'kkiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etgandan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tishini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I—IV sinflar), o'pra ta'lim (V -IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

**Umumiy o'rta ta'lim.** To'qqiz yillik (I—IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar), o'rta ta'lim (V- IX sinflar)ni qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning umumiy o'rta ta'lim bilan izchilligi va integrasiyasini ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

- maktabning I—IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik liseylar va kasb-hunar kollejlardan oldin va keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqligi hamda biri birini takrorlamasligini xisobga olinishi lozim;

- ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, izchilligi va integrasiyasi ta'minlangan zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish hamda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash.

**O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi.** Umumiy o'rta ta'lim negazida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turi bo'lib unda - akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida o'qish yo'nalishi o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik lisey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarning imkoniyatlari va qizikishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Bu ta'lim turida o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa soxalar) bilim saviyalarini oshirish xamda fanni chukur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-xunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar va bu ko'nikmalarni biror bir oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida qo'llashlari mumkin.

Kasb-xunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi diplom beriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida umumiy o'rta ta'limning kasbiy ta'lim bilan izchilligi va integrasiyasini ta'minlovchi integrasiyalashgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalar berish uchun quyidagilar zarur:

- umumiy o'rta ta'lim negazida ta'limni davom ettiruvchi akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarda faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan izchilligi va integrasiyasini ta'minlovchi ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chikish;

- akademik liseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan va integrasiyalashgan dasturlar ishlab chikish va joriy etish.

Kasb ta'limining oliy ta'lim ta'lim bilan integrasiyasini ta'minlashga "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda belgilab berilgandek ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarining uzluksizligi asos bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining bir bo'g'ini bo'lgan o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limning uzluksizligi, izchilligi hamda o'zaro integrasiyasi davlat ta'lim standartlari doirasida, tegishli ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi.

**Oliy ta'lim** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslangan hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichdan iborat uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turi xisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so‘ng bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlariga binoan kasb bo‘yicha "bakalavr" darajasi beriladi va ular davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplomga ega bo‘lishadi.

Oliy ta‘limning ikkinchi bosqichi bo‘lgan magistratura — aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta‘lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta‘li xisoblanadi.

"Magistr" darajasini beradigan davlat malaka attestasiyasi magistrlik dasturining intixosidir. Magistrarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom beriladi.

**O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini oliy ta‘lim bilan integrasiyasini ta‘minlash uchun quyidagilar zarur:**

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi hamda oliy ta‘limning bosqichlari bo‘lgan bakalavriat va magistratura uchun kasb ta‘limining oliy ta‘lim bilan uzluksizligi va integrasiyasini ta‘minlovchi davlat ta‘lim standartlarini ishlab chikish va joriy etish;

- ta‘limning fan, ishlab chiqarish bilan hamda uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlari (turlari) o‘zaro integrasiyasini ta‘minlovchi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

## **23-MAVZU: KASB-HUNAR TA‘LIMIDA O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH**

### **Asosiy savollari**

- 1. Kasb-hunar ta‘limida o‘quvchi shaxsini shakllantirish.**
- 2. O‘qitish jarayoni davomida o‘quvchilarining bilish kuchlarini rivojlantirish.**
- 3. Mutaxassislik fanlarining o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi roli.**

#### **1-savol bayoni**

Buyuk kelajakni yaratuvchi yangi avlodni tarbiyalash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri. Fundamental o‘zgarishlar natijasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy asoslar o‘zgardi. Lekin bu o‘zgarishlar ko‘pgina hollarda “yuqori”da sodir bo‘ldi va asosan qonuniy darajalarda yuz berdi. Ammo odamlar ongi va munosabatida o‘zgarishlar juda sekinlik bilan kechmoqda. Olimlarning e‘tirof etishicha, davlat tomonidan qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yosh avlodni yangi qonunlar asosida to‘g‘ri tarbiyalash kerak.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar jarayoni, boshqarishning demokratik va bozor iqtisodiga o‘tish, shuningdek ta‘lim, ayniqsa tarbiya maqsadi va usullarining yangilanishi kasb-hunar tizimidagi o‘quvchilarning ma‘naviy qiyofasini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. Endi oldindan belgilangan stereotip (o‘xshash) bo‘yicha yosh avlodlarni tarbiyalash vaqti o‘tdi. Hozirgi vaqtda shaxsni shakllantirish uni jamiyat taraqqiyotining turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tendensiyalari bilan tanishtirish asosida amalga oshiriladi. Yangi maqsadlarga muvofiq holda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari o‘zgarimoqda, ta‘limning variativ usullari, pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad va vazifasini belgilash bu ta‘lim muassasasi pedagogik jamoasi faoliyatining mazmunini aniqlaydi.

Ta‘lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimning konseptual g‘oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo‘naltirilgan holda boshqarish. Buning uchun esa yaxshi shart-sharoit yaratilishi va avtoritarizmdan voz kechishi zarur. Bizning nazarimizda, bunday hamkorlik pedagogikasai juda qo‘l keladi. Hamkorlik pedagogikasining mazmuni o‘quvchi-yoshlarning o‘z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo‘ladi. Demak, bunda pedagogik jamoa tomonidan o‘quvchi-yosharning o‘z-o‘zini belgylash, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun vaziyatlar yaratilib



berilishi nazarda tutiladi. Bu degan soʻz, ular oʻz oldiga maqsad qoʻyish va unga erishish yoʻllarini belgilashda, oʻz faoliyatini boshqarish usullarini tanlashda ham erkin boʻladilar. Oʻqituvchi unga faqat rahbarlik qilib, yoʻl-yoʻriq koʻrsatib turadi.

Tarbiya–tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini oʻz ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega boʻlgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba oʻrganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat koʻrsatmasalar tajriba va bilim oʻrgana olmaydilar.

### **Tarbiya vazifalari**

1.Oʻz vatani fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi;

Milliy vatanparvarlik, oʻz vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuygʻusi;

Millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2.Shaxsning maʼnaviyatini shakllantirish. Maʼnaviyat-kishining ichki dunyosi boʻlib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Maʼnaviyat darajasi - bu, maʼlum maʼnoda, insoniylik mezonidir. Maʼnaviyatni shakllantirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3.Mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4.Ruhiy-jismoniy sogʻlomlikni tarbiyalash. Bu axloqiy–hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish meyoridan uzoqlashib ketishga yoʻl qoʻymaslik koʻnikmalarini shakllantirishdir.

### **Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari**

milliy tarix va madaniyatning oʻziga xos jihatlarni hisobga olish;

tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, anʼanalar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;

milliy madaniyat jahon madaniyatining bir boʻlagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

**Tarbiya prinsiplari** – umumiy qoida boʻlib unda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish mazmuni, metodlari shakllariga boʻlgan asosiy talablar aks etgan. Taʼlim prinsiplaridan farqli ravishda ular oʻqituvchilar tomonidan tarbiyaviy vazifalarni hal etishda qoʻllaniladi. Bu prinsiplarning asosiy jihatlari: majburiylik, komplekslilik( uygʻunlilik), teng ahamiyatlilik boʻlib hisoblanadi.

Tarbiya prinsiplari - tarbiyachilar uchun tayyor va har narsaga yaraydigan qoida emas, chunki uni qoʻllash bilan yuqori natijalarga erishib qolinmaydi.

Bu tarbiyachining na tajribasini, na mahoratini almashtira oladi, ularning amalga oshirishi shaxs faoliyati bilan shakllangan.

**Tarbiyaning ijtimoiy yoʻnalganligi.** Ilgʻor oʻqituvchilar tarbiyani ijtimoiy institut sifatida tushunganlar. Turli davrlarda yo ijtimoiy,yo davlat, yoki shaxsiy yoʻnalish kasb etib, uning mazmun prinsiplari oʻzgargan. Mazkur prinsip oʻqituvchining barcha faoliyati tarbiyaning davlat strategiyasiga mos holda oʻsib kelayotgan avlodini tarbiya vazifalariga boʻysundirishni talab qiladi va tarbiyachilar faoliyatini shaxsni ijtimoiylashtirishga yoʻnaltiradi. Bu prinsiplarni amalga oshirishning asosiy qoidalari tarbiyaviy (mehnat, ijtimoiy, oʻyin va b.) faoliyat jarayonida oʻquvchilarda faoliyatning ijtimoiy qimmat va muhim sababga molik, ijtimoiylashtirish suratini tezlashtirishni tashkillashtirish zaruriyati bilan bogʻlangan.

**Tarbiyani insonparvarlashtirish** Prinsipiga qoʻyiladigan asosiy talablar:

tarbiyalanuvchi shaxsiga insoniy munosabat;

uning huquqi va erkinligini hurmat qilish;

tarbiyalanuvchiga kuchi yetadigan va oqilona shakllantirilgan talablarni qoʻyish;

tarbiyalanuvchining holatini hatto u taqdim etilgan talablarni bajarishidan bosh tortgan paytda ham tushunish;

kishining o‘zi bilan o‘zi bo‘lish huquqini hurmat qilish;  
tarbiyalanuvchilar ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini yetkazish;  
talab etilayotgan sifatlarni majburiy shakllantirmaslikG’

**Shaxsiy yondoshish.** Bunday yondoshish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlariga tayanishni ko‘zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni talab etadi:

shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozi(temperamenti), qarashlari, odatlari va b.) muntazam o‘rganish va yaxshi bilish;

mohirona tashxislash va shaxsiy sifatlarning real shakllanganlik darajasini bilish;

tarbiyalanuvchini shaxsning rivojlanishini ta‘minlovchi murakkablashib boradigan faoliyatga tortish;

shaxsning aktivligiga tayanish;

shaxsni tarbiyalashdan o‘z-o‘zini tarbiyalashga o‘tish, maqsadni, mazmuni, metodlarni o‘z –o‘zini tarbiyalashning shakllarini belgilash maxoratini hosil qilish;

faoliyatning muvaffaqiyatga olib keluvchi mustaqillik, tashabbus, tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligini, mohirona tashkil etish va yo‘naltirishni rivojlantirish.

**Tarbiyaviy ta‘sirning birligi.** Bu prinsip tarbiyaga daxldor bo‘lgan barcha shaxslar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, pedagogik ta‘sirni o‘zaro to‘ldirgan holda, birlashib xarakat qilishlari tarbiyalanuvchilarga kelishilgan holda talablar qo‘yishlari, bir-birlari yordam berishlari talab etiladi.

## **2-savol bayoni**

Tarbiyaviy tizimining eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o‘zini qadrlay bilimsh va o‘zgalarga urmat qilishga o‘rgatishdir.

Tarbiyaviy tizim asosiga insonparvar psixologiya va pedagogika tamoyillari qo‘yiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘quvchilarning qiziqishi-xohishiga qarab ta‘lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;

- o‘quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazish;

- fan to‘garaklar, texnik yo‘nalishdagi to‘garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o‘zgartirish;

- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;

- ta‘lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish.

Ta‘lim muassasasida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, guruh rahbari, muhandis-pedagoglari, tarbiyachilar o‘quvchi yoshlarni tarbiyalashda asosiy shaxslar hisoblanadi. Ular o‘quvchi yoshlarning individual xususiyatlarini, hayot sharoitini o‘rganadi va tahlil etadi, o‘quvchilar jamoasining rivojlanishi borasida bashorat qiladi, ular shaxs sifatida o‘z-o‘zini belgilashga yordam beradi.

- O‘quv-tarbiyaviy jarayonida yuritiladigan asosiy hujjatlardan biri bu o‘quvchilarning psixologik pasporti - xarakteristika. Ta‘lim muassasasida har bir o‘quvchining psixologik pasporti bo‘lishi lozim. Uni muntazam ravishda to‘ldirilib borilishi tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi har qanday shaxs (ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, guruh rahbari, muhandis-pedagog, tarbiyachi o‘quvchi) ning refleksiv madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Pasport xarakteristikada qayd etiladigan ma‘lumotlar uchta manba orqali olinadi kuzatish va o‘quvchilar bilan suhbatlashish hujjat (shaxsiy varaqalar, tibbiyot ko‘rigi, kartalar, jurnallar va boshqalar) bilan test savollari treninglar o‘tkazish orqali. Tarbiyaviy masalalarni hal etishdagi qiyinchiliklar o‘quvchi-yoshlarning o‘smir yoshi bilan bog‘liq muammolar, ularning jismoniy va ruhiy o‘ziga xosligi, yoshlarning norasmiy guruhlari ommaviy axborot vositalarining o‘quvchi-yoshlarning xulq-atvoriga ta‘sirining yoritishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari o‘smirlarga ta‘sir ko‘rsatish

borasida raqobatlarining kuchayganini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bunda shubhasiz, ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar g'olib kelmog'i kerak. Ta'lim muammolarda o'quvchi-yoshlarning ota-onalari bilan ishlashga katta o'rin ajratiladi. Ota-onalar bilan muntazam ravishda psixolog suhbatlashadi va maslahatlashadi. Xolbuki, bunga doimiy ravishda ehtiyoj ortib bormokda. Shuning uchun ota-onalar lektoriyalarini muntazam (ravishda psixolog suhbatlashadi va maslahatlashadi) yo'lga qo'yishga muhimdir. Pedagoglar huquqni muhofaza etuvchi tashkilotlarning xodimlari va boshqalar ishtirokida anjumanlar tashkil etish yaxshi samaralar beradi. O'quvchilarga tarbiya berish va ular shaxsni rivojlantirishda adabiyotning tarbiyalovchi imkoniyatidan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot ta'sirida o'quvchilar shaxsini shakllantirishning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bunda ular ijodiy qobiliyatini, barcha ma'naviy imkoniyatlarini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari jamoaning ijodiy ishlari metodikasi bo'yicha tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini oshiradi. Jamoaning ijodkorlik ishlari deyilganda, ta'lim muammosida turli mavzular bo'yicha har xil anjuman yig'ilishlar, tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tushuniladi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida turli uyushma yoki jamoatchilar tashkilotlari tuzilib, ishlab chiqilgan Nizomlar asosida tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Bizning nazarimizda, o'quvchining ta'lim-tarbiyasi borasida ushbu maqsadlar hozirgi zamon o'zbek ta'limi uchun istiqbolli hisoblanadi. Darhaqiqat, tarbiyalash texnologiyalari borasida Vatanimiz fani va amaliyotida yetarli darajada katta tajribalar to'planganini e'tirof etmoq zarur. Demak, ma'naviy meros va uning natijasi o'laroq, ma'naviy kamolot maqsadga erishish kafolatdir, desak xato bo'lmaydi. Har qalay yosh avlodni oldindan belgilangan stereotiplar asosida shakllantirish payti o'tdi. Hozirgi vaqtda o'quvchilarni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tendensiyalari bilan muntazam tanishtirib borish o'ta muhimdir. Bu ularning o'z hayoti yo'lini erkin tanlashga imkoniyat yaratadi. Demak, yangi maqsadlarga muvofiq holda o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etish usullari ham o'zgaradi..

O'quvchilar bilan darsdan tashqari mashg'ulotlar va muloqotlar o'tkazish ularning jismoniy ruhiy rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasi uchun muhim, ko'p hollarda esa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar darsdan tashqari faoliyat bo'lib, tarbiyalamoq o'quvchi-yoshlarning faoliyatini tashkil qilmoq demakdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tarbiyaviy ishlarda katta samara beradi. Texnologiya - bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rag'batlantirish qonunlarini o'zida jo qilgan va yakuniy natijasini harakatlaydigan pedagogik faoliyatdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda loyiha usulida keng foydalanilmokda. Loyiha asosida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tarbiyaviy ish strategiyasini butunlay o'zgartirib yuboradi. Loyiha usullari-maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat bo'lib, maqsad oldindan belgilanadi. Tarbiyaviy yoshlar loyihasi bu o'quvchilarning ijodiy, ma'lum darajada mustaqil faoliyati:

- bunda o'quvchilarning o'zlari bevosita ishtirok etishadi, ya'ni loyihani ijro etish uchun zaruriy material-ma'lumotlar to'plashadi;
- tadqiqot-tadbirlar o'tkazish bo'yicha farazlarni ilgari surishadi;
- tadbirlarni amalda tashkil etish - o'tkazishda faoliyat ko'rsatishadi; • tadbirlarning ijtimoiy ahamiyatini bilishadi.

#### **O'quvchilarni o'rganish metodlari**

**Kuzatish** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok

etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning hatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir teleko'rsatuv, ) ni qo'llash bilan tobora ko'p qo'llanilmoqda.

**Suhbat metodi** - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodida - o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnet tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

Talabalar ijodini o'rganish – ularning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan o'quvchilarning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

**Test, so'rovnomalar** - bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanganda yaratilgan o'quvchilar tarbiyasi to'g'risidagi yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarining bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri - bu test yordamidagi sinovdir.

Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan ba'zi bir yutuqlari va kamchiliklarida keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira, intuisiya va topqirliklar qo'l keladi. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

### **3-savol bayoni**

Ta'lim-tarbiya ishida aniq didaktik maqsadlarga ko'ra tahsil beruvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqador biri ikkinchisini taqozo etuvchi hatti-harakatlari majmuasi yoki muloqotda bo'lish usullariga ta'lim-tarbiya metodlari deb yuritiladi.

Tarbiya metodlarini turkumlash:

1. Tarbiyaviy jarayonda axborotini o'zlashtirish manbaiga ko'ra:

- a) og‘zaki (so‘zlab berish, savol-javob, suhbat, ma’ruza, tushuntirish, bayon etish kabilar);
- b) ko‘rsatmali (ko‘rsatmali bayon etish, tushuntirish);
- v) amaliy (tajriba sinovlari va laboratoriya ishlari, o‘quv ishlab chiqarish mehnati);
- 2. Tarbiyaviy jarayonda axborotni uzatilishi va o‘zlashtirish mantiqiga ko‘ra:
  - a) oddiydan murakkabga (induktiv);
  - b) murakkabdan oddiyga yoki mavhumdan ma’lumga (deduktiv);
- 3. Tarbiya jarayonini o‘rganuvchilarning mustaqil tarbiya tafakkuri darajasiga ko‘ra:
  - a) mahsulsiz (reproduktiv);
  - b) mahsullik (produktiv);
- 4. Tarbiyaviy ishlarining bajarilish darajasiga ko‘ra:
  - a) Tarbiya beruvchi rahbarligidagi ta’lim-tarbiyaviy ishlar;
  - b) Tarbiya beruvchi rahbarligisiz tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishlash, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar);
- 5. Tarbiyalanuvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bo‘yicha:
  - a) tarbiyalash o‘yinlari;
  - b) tarbiya bo‘yicha munozaralari;
  - v) tarbiya bo‘yicha qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish;
- 6. Javobgarlik burchini shakllantirish va rag‘batlantirish usuliga ko‘ra:
  - a) ishontirish;
  - b) talab qo‘yish;
  - v) qo‘yilgan talabga muvofiq mashq qildirish;
  - g) rag‘batlantirish va jazolash;
- 7. Nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish usuliga ko‘ra:
  - a) yakka holda tarbiyalash;
  - b) yoppasiga (yalpi) tarbiyalash;
  - v) og‘zaki va yozma sinov yoki so‘rovnomalar;
  - g) dasturli so‘rov (testlar yordamida mashinali yoki mashinasiz);
  - d) o‘z-o‘zini nazorat qilish va shu kabilar.

Pedagogikada maqsadiga ko‘ra tarbiya metodlari quyidagi guruppalarga ajratiladi: faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari; xulq-atvor va faoliyatni rivojlantirish metodlari.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni tarbiyalash shakllari va metodlari.

O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida quyidagi shakllardan foydalaniladi.

1. Fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash.

2. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar va muloqotlar o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash.

3. Darsdan tashqari tashqari paytlarda va o‘quv yurtidan tashqarida ma’naviy – ma’rifiy va turli xil tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash.

Fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash xarbir fan va undagi xar bir mavzuni o‘rganish jarayonida uning tarbiyaviy xarakterini, tomonlarini ochib berish orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilar bilan darsdan tashqari mashg‘ulotlar va muloqotlar o‘tkazish ularning jismoniy ruhiy rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasi uchun muhim, ko‘p hollarda esa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Darsdan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulot va muloqot quyidagilarga imkon beradi:

- bir-birini bilish;
- yaxshi munosabatlar shakllanishi;
- shaxs qirralarini anglash;
- yaxshi daqiqalarni birgalikda boshdan kechirish;
- insonlarning yaqinlashuvi;
- hamkorlikdagi hissiy kechinmalar;

- do‘stlashish-ruhiy yaqinlashish;
- tarbiyachi kasbining kerakligini his etish;
- ehtiyoj-talabni his etish.

Darsdan tashqari tashqari paytlarda va o‘quv yurtidan tashqarida ma’naviy – ma’rifiy va turli xil tarbiyaviy tadbirlar tarbiyalamoq o‘quvchi-yoshlarning faoliyatini tashkil qilmoq demakdir

### **Kasb - hunar kollejlarda o‘quvchilarni tarbiyalash shakllari**

1. Dars
2. Seminar mashg‘ulotlari
3. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar
4. Sayohat (ekskursiya)
5. O‘quvchilar bilan qo‘shimcha ishlash
6. O‘quvchilarning uy ishlari
7. O‘quv sexlari va maydonlarida ta’lim berish
8. Ustoz shogird tarkibida ta’lim berish
9. Xususiy (shaxsiy) ish o‘rinlarida o‘quvchilarni o‘rgatish
10. Korxonadagi ishchilar o‘rnida ishlab chiqarish amaliyoti.

Ravshanki, bularning barchasi kollej ta’lim-tarbiya mazmuni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular ma’lum ta’limiy, tarbiyaviy maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Bu ishlarning barchasini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil eta olish uchun pedagog-tarbiyachi juda ko‘p narsalarni bilishi va uddalashi kerak. Yuqori malakali mutaxassislariga bo‘lgan talab va ehtiyojning tobora ortib borishi o‘rta maxsus, kasb-hunar tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha rahbar, muhandis-pedagog, o‘qituvchi va tarbiyachilarning zimmasiga yuksak mas’uliyat yuklaydi.

## **24- MA’RUZA.TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

### **Asosiy savollari.**

1. **Pedagogik texnologiya haqida ma’lumot.**
2. **Kasb ta’limida axborot texnologiyalari.**
3. **Muammoli ta’lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi.**
4. **Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati va zarurati.**

### **1-savol bayoni**

Ta’lim nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, uning samaradorligi pedagog va talaba-o‘quvchi faolligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, mazkur jarayonning tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmli kishilarga bo‘lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan omillarga bog‘liq. Jamiyat o‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta’lim samaradorligi yuqori bo‘lishini talab etadi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda yuksak malakali va olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o‘zining o‘rnini topadi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov «...shuni yaxshilab tushunib olishimiz zarurki, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish, avvalo, aholi siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog‘lik faol ishtirok etishi bilan uzviy bog‘liq» deb ko‘rsatdi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq bo‘lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'larini shunday tashkil etish kerakki, u bugungi kun yoshlariga chuqur va asosli ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularni keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida talabada mustaqil bilim olish ehtiyojining shakllanib borishi hozirgi kun talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o'quvchi-talabalarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch so'zlariga asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo'sinda ta'lim tizimiga kiritib bo'lmadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda talabalarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab talabaning hayotiy tajribasi avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha talabalarda bilim etarlicha bo'lmagan holda ham talabada salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu talabaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga talabalarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko'proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasini hisobga olishga qaratilgan. Bilim berishda talabaning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi etarlicha hisobga olinmagan. Dars rejasida avval o'tilgan mavzuni yakunlab, yangi mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha talabaning bilimini aniqlash, mavzuga xos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish etarlicha amalga oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarini esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash talabani faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishda uni erkin suhbat, munozara, aqliy hujum va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida uchta darajada qo'llaniladi:

1. *Umumiy pedagogik daraja.* Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya o'quv-tarbiya jarayonining yaxlit tizimliliigi, ma'lum bir mintaqa, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llanishining umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim hisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob'ekti va sub'ekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. *Xususiy metodik darajada* pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. *Lokal (modul) darajada* o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, ular bilimni nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. O'zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari, asosan, ta'lim doirasida

o'rganilmoqda. *Ta'lim texnologiyasi deb*, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi maqomini o'zgartirish, yangilash yo'li bilan ma'lumot mazmunini va modellashtirish darajalari – o'quv materialini, o'quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o'rganiladigan mavzuni o'quvchi-talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ta'lim natijasini qabul qilingan etalon darajasiga ko'tarish va baholashga oid usul va vositalar, shuningdek, ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta'lim texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning hozirgi etakchi printsiplari (subordinatsiya) ni chegaralaydi, unda koordinatsiya o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishning etakchi printsiplari aylanadi. Koordinatsiya ta'limni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishning bosh printsiplari aylanadi. O'quvchi-talaba ta'lim jarayonining o'qituvchi bilan teng huquqli sub'ektiga aylanadi, bunda ta'lim jarayonini o'qituvchi va o'quvchi-talaba birgalikda amalga oshiradi.

G'arb mamlakatlaridagi ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi dasturlashtirilgan ta'limga borib taqaladi. Dasturlashtirilgan ta'lim asoschilaridan biri Berres Frederik Skinnerning ta'kidlashicha, o'quvchi-talabalarning o'quv materialini va uni o'zlashtirishga oid xatti-harakatlari (o'quvchi-talaba faoliyati) pog'onalar (ta'lim bosqichlari)ga ajratiladi, har bir bosqichda o'quv materialining ma'lum bir qismi to'liq o'zlashtiriladi, o'quv materialining mazkur o'zlashtirilgan qismi tekshirilib, keyingi qismni o'rganishga o'tiladi. Demak, pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyili ma'lumot mazmunini to'liq o'zlashtirish taktikasidan iborat bo'lib, u dastavval dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti negizida paydo bo'lgan edi.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'pqirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning echimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashhislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Pedagogning belgilangan o'quv-tarbiya vazifalarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holati ishlash qobiliyati deb atalishi mumkin. Demak, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik nashrlarda pedagog faoliyatini baholash uchun qator ko'rsatkichlar tavsiya etiladi, jumladan:

- pedagogik natijaviylik – pedagog guruhida fan bo'yicha o'zlashtirishning o'rtacha qiymati;
- o'qitishning ilmiylik darajasi – pedagogning o'quv elementlarini fan abstraksiyasi pog'onalari bo'yicha tushuntirishi;
- ta'lim mazmunini metodik tayyorlash – umumiylik, izchilligi, harakatdaligi, ortiqcha emasligi kabi talablarning e'tiborga olinishi;
- ta'limda u yoki bu natijani qo'lga kiritish yo'llaridan samarali foydalanish – ekstensiv yoki intensiv sharoitda va hokazo.

Umuman olganda, pedagog uchun asosiy kasbiy-me'yoriy ko'rsatkich – bu birinchi navbatda o'z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab etishidir. Pedagog o'zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o'z o'rnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo'lmaydi. Demak, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir inson o'zining unga moslanuvchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishi borligini to'liq tasavvur etishi kerak.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon



psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.

Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu erda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi. Didaktik loyihani tayyorlash va uni amalga oshirish jarayonlari 4-chizmada keltirilgan.

Demak, chizmadan ko'rinadiki, maqsaddan etalonga etib kelguncha o'qituvchi va talaba ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir.<sup>1</sup> Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy sub'ektiga aylangan paytida sezishadi.

Demak, maqsaddan etalonga etib kelguncha o'qituvchi va o'quvchi-talaba ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi.

Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o'quvchi-talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O'quvchi-talabalar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy sub'ektiga aylangan paytida sezishadi.

Ta'lim texnologiyasi bo'yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta'lim loyihagini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

---

<sup>1</sup> Розиков О, Огаев С. ва бошқалар. Таълим технологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999. 11-бет.

1. Ta'lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy vazifalari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish. Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchi-talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchi-talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favquddolda va tasodifiy hodisalar ham uchray turadi. O'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asosanib loyihaga yangi o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchi-talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchi-talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir o'quvchi-talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo'shimcha topshiriqlarni berish, ularni o'quv materialini yanada atroflicha o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchi-talabalarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.<sup>1</sup>

1. Tashhislanuvchan o'rnatilgan maqsad – o'quvchi-talaba tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraktsiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

---

<sup>1</sup> Н.Сайидахмедов. Янги педагогик технологиялар. – Т.: Молия, 2003.

4. O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.
5. O'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi.
6. O'quvchi-talaba va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).
7. O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Shunday qilib, yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, o'quvchi-talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

## **2-savol bayoni**

Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad — jamiyat va inson butun hayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarni hal etishdir.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda inson faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatga ega bulgan sohalarida boyitilgan bilimlar, ishonchli axborotlar bilan to'liq, va uz vaqtida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni hamma joylarda tatbiq, etish tushuniladi. Bundan shu narsa nazarda tutilmoqdaki, zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalarini hamma joyga tatbik, etish qabul qilinajak qarorlar samarasini oshiradi. Bu faqat milliy iqtisod rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishinigina emas, balki ayni paytda ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish joylarini tashkil etish, aholining turmush darajasini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga yunaltirilgan fundamental va amaliy fanlarda sifatli ilmiy yutuqlarga erishishni ham ta'minlaydi.

Yangi XXI asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallashib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. Ya'ni milliy iqtisoddagi axborot va bilimlarning tutgan o'rni tobora yuksalmoqda va ular strategik resursga aylangan. Dunyoda jamg'arilgan axborot va bilimlarning 90%i so'nggi 30 yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi milliy iqtisodning barcha sohalarida, jumladan, ta'limda ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng ko'lamda samarali foydalanishni talab etmoqda.

Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo'lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalanadigan umumiy hajmi kelgusida davlatlarning strategik imkoniyatini, shuningdek mudofaa qobiliyatini ham belgilab beradi, deyishga jiddiy asos bor.

Axborot resurslarini oqilona tashkil etish va foydalanishda ular mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda axborot — bu boshqa barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni asrab-avaylashga ko'maklashuvchi yagona resurs turidir.

Shunday qilib, axborot resurslari zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy qismi bo'libgina qolmay, balki ular milliy daromad manbai sifatidagi tovar hamdir.

XXI asrga kelib insoniyat tarixida ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida axborot ish quroliga aylandi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat resurslarining og'ishmay axborotlar sohasiga o'tib borishi tendentsiyasi tobora yaqqol sezilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarish sur'ati o'sishi va rivojlanishi jarayonida qarorlar qabul qilish hamda boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot hajmi oshib borayapti. Bu o'sish avvalo, iqtisodiy, texnik, ilmiy, texnologik va ijtimoiy tizimlar va jarayonlarda namoyon bo'lmoqda.

Axborot tanqisligi bilan bog'liq, bo'lgan boshqaruv xatolari juda qimmatga tushadi.

Ayni paytda, boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligi, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha eng ko'p axborotga ega bo'lgan tizim yutib chiqmoqda.

Mutaxassislar, birinchi galda iqtisodchilarning axborotga erkin kirib borishini sanoat rivojlanishi sharoitida bozor iqtisodi samaradorligining asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi.

Ularning faoliyati va jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sohalari u yoki bu ma'noda axborot bilan bog'liq, bo'lib, ish bilan band bo'lganlarning 40-60 % ini tashkil etadi. Axborot xizmatlari jahon yalpi ijtimoiy mahsuloti va milliy daromadining 10% ini tashkil qilmoqda. Shuning 90%i AQSh, Yaponiya va G'arbiy Evropa hissasiga to'g'ri keladi.

Axborot intellektual faoliyatning muhim mahsuloti sanaladi. Sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda ushbu mahsulotlarni o'z foydalanuvchilariga etkazishning "usullari va vositalari"ni ishlab chiqish hamda joriy etish jadal sur'atlarda olib borilmoqdaki, bu axborot tizimlari va texnologiyalari sanoatini yaratishda o'z aksini topgan.

Axborot texnologiyalari industriyasining yuzaga kelishi ularning axborot jamiyatini yaratishni qanday ta'minlashiga bog'liq. Axborot texnologiyalari industriyasi axborot mahsulotlari va vositalarini ishlab chiqaradi hamda iste'molchilarga etkazadi. Axborot mahsulotlari deganda avvalo, an'naviy yo'l bilan yoki elektron texnika yordamida olingan turli bilimlar sohasi, shuningdek, ma'lumot va axborotning boshqa shakllari tushuniladi.

Shaxsiy kompyuterlarning ommaviy ravishda ishlab chiqarilishi ayniqsa axborot texnologiyalari sanoati uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Shaxsiy kompyuterlar inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi va mutaxassislarning bilimlar manbaiga kirib borishi hamda uni bevosita qayta ishlash jarayonida qatnashish imkoniyatini kengaytirdi.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashda shaxsiy kompyuterning tutgan o'rni oshib bormoqda. 2000 yilda AQShda 1000 kishiga 500 ta kompyuter to'g'ri kelgan bo'lsa, axborotlashgan iqtisod hali kirib bormagan mamlakatlarda ahvol ancha jiddiy. Ya'ni Braziliyada — 24, Rossiyada — 31, Turkiyada — 20, Hindistonda esa — bu raqam 3 taga to'g'ri kelmoqda. Internet orqali savdo-sotiq, qilish kundan-kunga ortib borayapti, jumladan AQShda shaxsiy kompyuter Internet tizimiga ulangan oilalarning 47%i elektron magazinlardan tovarlar sotib olishmoqda. Axborotlashgan iqtisod yangi ish o'rinlarini barpo etmoqda. Xizmatchilar o'z ish joyini AQShda o'rta hisobda 4 yilda, Evropada esa 8 yilda almashtiradi. Bunday sharoitda uzluksiz ta'limni axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarisiz yo'lga qo'yib bo'lmaydi.<sup>1</sup>

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bevosita iqtisodiy ob'ektlarning axborot tizimlaridan foydalanishi bilan bog'liq. Zamonaviy axborot texnologiyalari rahbarlarga, mutaxassislarga, texnik xodimlarga axborotni qayta ishlash va qarorlar qabul qilishda hamda to'liq va ishonchli bo'lgan zamonaviy axborot tizimini yaratishda ko'mak beradi.

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni qayta ishlashning mustaqil tizimi sifatida ham, funktsiyaviy tarkibiy qism sifatida ham ishlaydi va yanada yirik tizim doirasida boshqaruv jarayonini ta'minlaydi. Bunday tizimlar qatoriga sanoat korxonalari, firmalar, korporatsiyalar, moliya-kredit va tijorat-savdo tashkilotlari, ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarining avtomatlashtirilgan boshqarish, ilmiy tajribalar, iqtisodiy-matematik modeli, ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi, kutubxona xizmati va boshqa bir qator sohalar kiradi.

Jahonda ta'lim tizimi tezkor sur'atlarda taraqqiy etib bormoqda. Misol uchun Gollandiyani olib qaraydigan bo'lsak, yuqori saviyaga ega bo'lgan bitiruvchilar ishsiz qolmoqda. Shuning uchun ham etkazayotgan kadrlarimizga bo'lgan talab darajasini yaqindan o'rganishimiz kerak. Agar ichki bozorimizda bunday kadrlarga ehtiyoj bo'lmasa, Internet orqali tashqi bozorda ularga bo'lgan talabni qidirib topishimiz zarur. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, AQSh universitetlaridagi professorlarning 85%ini hindistonliklar tashkil qiladi. Ularning ushbu yutuqlarga erishishini avvalo aniq fanlarni chuqur bilishi, chet tillarini mukammal o'rganganligi va axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini milliy iqtisod va ta'lim sohalarida samarali qo'llay bilishi bilan izohlash mumkin.

Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasiga, balki milliy iqtisodning barcha tarmoqlariga Internet, elektron tijorat, elektron biznes, virtual tijorat, virtual ta'lim, masofaviy o'qitish, virtual stend texnologiyalari keng ko'lamda kirib kelmoqda.

---

<sup>1</sup> С.С.Фуломов ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2000.

Shunday qilib, bugungi kunda axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining hayotimiz barcha jabhalariga kirib kelishi, ayniqsa iqtisodiyot, kasbiy ta'lim, biznes va uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiyotining globallashib borayotganida Internet orqali ta'lim xizmatlarini taklif etish borasida mehnat bozorining hajmi cheksizdir.

### **3-savol bayoni**

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1. Ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) mashg'ulotlari.

2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari.

3. Modulli dars.

4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.

5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

6. Didaktik-o'yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferentsiyalar, o'yin mashqlar) darslar.

7. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida EHM nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

*Muammoli ta'lim deyilganda*, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;

2. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;

3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;

4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasa, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har

qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilardir:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik printsiplariga amal qilishi;
- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'qituvchi o'rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg'ulot turini belgilaydi, o'quv yili boshidan taqvim mavzularni rejalashtiradi.

Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu muammoli o'qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Ta'lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta'lim jarayonini, muammoli o'qitish vazifasini faol o'rganish jarayonini rag'batlantirish, tadqiqot ishlarini olib borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir. Muammoli o'qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos oliy o'quv yurtlari ish amaliyotida muammoli o'qitish bilan birgalikda illyustratsiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-ma'lumot texnologiyasi va dasturlashgan ta'lim texnologiyasi kabilardan keng foydalaniladi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchi-talabaning mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Muammoli o'qitishning maqsadi o'quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchi-talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg'ota olishdan iborat.

Professor N.N.Azizxo'jaeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan, ya'ni muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarama-qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat xususiyati quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-talabalar uchun noma'lum yangilikning mavjudligi;
- muammolarni o'zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o'zlari o'rganishga harakat qilishlari;
- nima noma'lum ekanligini bilib, ma'nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar.

<sup>1</sup> Н.Н.Азизхўжаева. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2003.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o'quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o'quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi lozim. O'quvchi-talabalar mashg'ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O'qituvchi muammoli ta'lim tizimida o'quvchi-talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqat-e'tibori yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, echimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni oldiga qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan echishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'quv muammolarini hal etishda o'quvchi-talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini;
- Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash malakalarini;
- Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg'ulotda muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va u an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, o'quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.

2. Vazifa berilganda uni echish usullarini tanlash imkoniyatini berish.

3. O'quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni;

- o'quvchi-talabalar diqqati o'quv materialiga tortiladi;
- o'quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- ularni o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;
- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalarni qo'yish;
- o'quvchi-talabalar o'rganishi zarur bo'lgan bilimlar etarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko'rsatish;
- o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;
- o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'l-yo'riqlarini topishda ularga ko'mak berish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo'linadi:

1. O'quvchi-talabalar o'z oldilarida turgan masalaning echimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi.

2. O'quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydi.

3. Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

4. O'quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o'rtasida bilimlarining etishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida muammoli o'qitish samarali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun uni o'quv jarayoni, o'quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini echishga tadqiqiy yondashish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

#### **4-savol bayoni**

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Bizningcha, bu g'oyani ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari orqali ro'yobga chiqarish mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy ijtimoiy, ma'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish



qobiliyatiga yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o'zgarishlar faqat mavjud ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta'minlamas edi. Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning printsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti, ta'limga oid xizmatlarning iste'molchisi va ularning yaratuvchisi;

- uzluksiz ta'lim – kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;

- fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste'molchisi;

- ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

- davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni respublikamiz aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalar ustuvor bo'lgan va xalq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali echimi birinchi navbatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida ta'kidlab o'tganlaridek: «Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasa, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarlarga borib kelmasa, tajriba almashtirilmasa, albatta bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi».<sup>1</sup>

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.

2. Ta'lim korxonalari va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.

3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.

---

<sup>1</sup> Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: “Шарқ” нашриёт матбаа концернининг Бош таҳририяти, 1997.

4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.

5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.

6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.

7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va ob'ektiv nazorat tizimini qo'llash.

8. Shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.

9. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bu holatlarning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi zarur.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalarining berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differentsiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differentsiyalash printsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differentsiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdin, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdin, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim

texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi hisoblanadi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, mazkur yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta'minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya'ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar kontseptsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;

- uy vazifalarini maqsadli, tashhisli va aniq o'quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korrektsiyasi;
- o'quv maqsadlari tavsiyanomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish sharti;
- internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;
- o'quv jarayoniga elektron pochadan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- reyting nazorati va talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholashni bilishi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi: ikki bosqichli ta'lim – bakalavriat va magistratura faoliyat ko'rsata boshladi; davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarning mustaqil ta'lim olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilyapti, ta'lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o'z aksini tobora ko'proq topmoqda; professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligi ayniqsa quvonarlidir.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o'qituvchi va talaba-magistr faoliyatini «sub'ekt-sub'ekt» imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'quv rejasiga kiritish lozimligini isbotladi. Endigi vazifa esa, bu fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish, pedagogik faoliyatning siru-sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo'lga kiritishdir.

Shunday qilib, mamlakatimizda shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va printsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda ko'ndalang qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

#### Qisqa xulosa

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar, tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy echimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, talaba bilan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu bobda mavzu bo'yicha qator ma'lumotlar keltirilgan va eng asosiysi talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

#### Nazorat savollari

1. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi yangiliklar haqida so'zlab bering?
2. Ta'lim texnologiyasi va uning rivojlanishi haqida fikr bildiring?
3. Ta'limda texnologik yondashish variantlari deganda nimani tushunasiz?
4. Axborot texnologiyalariga nimalar kiradi?
5. Rivojlangan jamiyatda axborot texnologiyalarining o'rni qanday?

6. Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarni izohlab bering?
7. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida fikringiz qanday?
8. Modulli ta'lim texnologiyasiga misol keltiring?
9. "Reyting", "Texnologiya", "Innovatsiya" tushunchalarini izohlab bering?
10. "Internet", "Elektron pochta", "Multimediya" ga misollar keltiring?

## **25-MA'RUZA. KASB TA'LIMI PEDAGOG XODIMLARINI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH**

### **Asosiy savollari**

Kasbiy malakaviy tuzilmada kadrlarning o'zgarishi.

Xodimlar ixtisosligini taxlil qilish metodikasi.

Keng qamrovli soxa xodimlari va yuqori malakali xodimlar haqida tushuncha.

Globallashuv sharoitida keng qamrovli va yuqori malakali xodimlar tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar

### **1-savol bayoni**

Oliy ta'lim sohasida sifat ko'p qirrali kontseptsiya hisoblanadi. U ta'lim sohasidagi barcha funktsiya va faoliyat turlari – o'quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, mutaxassis xodimlar bilan to'liq ta'minlanganlik, ta'lim oluvchilar, binolar, moddiy-texnika bazasi va jihozlarni, jamiyat va akademik muhit farovonligi yo'lidagi barcha ishlarni qamrab olishi kerak, - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov.<sup>1</sup>

Ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash ta'lim sifatining asosiy yakuniy sifatidir, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *insonlar*: professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lim oluvchilar, o'quv-yordamchi faoliyat xodimlari, ma'muriy xodimlar va boshqalar;

- *texnologiyalar*: pedagogik, tarbiyaviy, informatsiyaviy, boshqaruv, nazorat qiluvchi va boshqalar;

- *moddiy-texnikaviy ta'minot*: binolar, jihozlar, laboratoriya va amaliyot bazasi va b;

- *me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodik ta'minot*;

- *rag'batlantirishlar va asoslar*;

- *tashqi ta'sirlar*: bozor iqtisodiyoti talablari, korxonalar, jamiyat va davlat.

Ta'lim tizimining yuqorida keltirilgan tarkibiy unsurlari ustunlik qiluvchi omillar majmuini belgilaydi, bular ta'lim va xodimlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir etadi.

Ilmiy-texnika inqilobi davrida ishchi xodimlarning mehnat qilish sharoiti o'zgaradi, chunki ishlab chiqarish jarayonida ishchi xodimning bajaradigan faoliyati, dunyoqarashi, o'rni o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ya'ni ishlab chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o'sishiga olib keladi. Ishchi xodim ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni xohlaydi. Xodimlardagi o'zgarishlarni kuchaytirishda ishlab chiqarish faktorlari kuchli ta'sir etadi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya'ni insonning bajaruvchi funktsiyasi yotadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida inson asosan 4 asosiy funktsiyani bajaradi:

1. Ishchi xodim o'z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilishi uchun mehnat qurollarini ishlatishi;

2. Mehnat qurollarini boshqarishi va ularga ta'sir ko'rsatishi;

3. Ularni to'g'irlashi va ta'minlashi;

4. Ularni loyihalashtirishi va ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq qilishi.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992 йил.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy ishchi xodimga 1 va 2 funktsiyalardagi ko'rsatkichlar ahamiyatli bo'lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4 funktsiyalar ham muhimdir.

Tarixga nazar solib ko'rsak, mashinasozlikda yuqori malakali ish darajasi oshib bormoqda. Masalan, 30-yillarda chilangar ta'mirlovchi 9-10 ta stanokda ishlay olgan bo'lsa, hozirda esa 25-30 stanokda bema'lol boshqara oladi va 100 dan ortiq metall va nometall materiallar bilan ishlaydi. Bundan tashqari u payvandlashni ham bilishi kerak.

90-yillarda texnikaning rivojlanishi yangi tipdagi stanok ishchi xodimlarini yuzaga keltirdi. Keng profilli universal ishchi xodimlar vujudga keldi. Hozirda bu ishchi xodimlar 14 ta ixtisosliklarni egallagan. Bu ixtisosliklardan tokarlik avtomatlarni sozlovchilar, yarim avtomatni, avtomatlashtirilgan stanoklarni sozlovchi va boshqalar. Ishchi xodim sozlovchilarning bu guruhi elektrotexnik bilimiga ham ega.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida ham yuqori malakali ishchi xodim mutaxassislar vujudga kelmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlashga asoslangan agrar mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulotning qariyb 1G'3 qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti mamlakatga valyuta tushumlarini 55 foizidan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillari mobaynida respublika qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini bera boshladi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligi mustaqil respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanib, uning zamon talablari darajasida rivojlantirilishi xalqimizning farovon turmush tarzini va istiqbolimizning barqaror bo'lishini kafolatlaydi. Buning uchun esa, sohani zamonaviy va har jihatdan xorijiy yuksak malakaga ega bo'lgan mutaxassislar bilan ta'minlash birlamchi va muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2-savol bayoni

«Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi – degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov<sup>1</sup>, yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi».

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim xizmatlari bozorining strategik maqsadi sifatida, bozor munosabatlarining vujudga kelishi sharoitida samarali ishlashga qodir bo'lgan iqtisodchilar faoliyatining barcha darajalari va sohalari uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash va bu bilan O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining butun jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatish masalasi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash har yili 38-40 ming kishi atrofida o'zgarib turadi.

1990-2000 yillarda mutaxassislar tayyorlashning yillik o'sishi kuzatildi, 2000 yilda bu ko'rsatkich 41690 kishini tashkil qiladi. Bugungi kunda oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan qo'shimcha talab asta-sekin o'sib borib va 2003 yilda 50 ming kishini, 2005 yilga kelib esa 55-60 ming kishini tashkil qiladi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitini ko'zda tutib, mutaxassislarni tayyorlash sohasidagi tarkibiy siljishlar saqlanib qolinadi. Bu «Iqtisodiyot va boshqaruv» ixtisosligi bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishini keltirib chiqaradi. 1999-2000 yillarda iqtisodiy va huquqiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalariga o'rtacha yillik qabul qilish 16,4 ming kishini yoki umumiy qabulning 9,2%ni tashkil qiladi va 1990 yildan buyongi davrda 1,3 marta ortdi. Bu, o'z navbatida, Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarning

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи сессиясидаги маърузаси. февраль, 1995 йил.

umumiy sonida ushbu ixtisoslikdagi talablar soni ulushining 1990 yildagi 9,940% o'rniga 1997 yilda 116,5% gacha olib keldi.

O'zbekistonda 1992 yilda 53 ta davlat oliy ta'lim muassasi mavjud bo'lib, ularning ulushi oliy ta'lim muassasalari umumiy sonning 100%ini tashkil etardi. Davlat oliy ta'lim muassasalari sonining o'sish jarayoni quyidagi tarzda yuzaga keldi: 1985-1990 yillar mobaynida ularning soni oliy ta'lim muassasalarining 100%i darajasida barqarorlashdi; keyingi yillarda ularning o'sish sur'ati bir yilda taxminan 3-4 tani tashkil qildi; 1990-1996 yillarda esa ularning soni 58 taga yoki 23,4% oshdi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida 1997 yilda 158,2 ming talaba ta'lim oldi, bu 1995 yil bilan solishtirganda 68,8%ni tashkil qildi. 2000 yilga kelib talabalarning soni 172,4 ming kishi, 2002 yilda esa 198 ming kishiga etdi (yillik o'sish sur'ati 2-3%). Faqatgina 1995-2000 yillarda talabalar sonining o'sishi qayd etildi; tegishlicha, har yili o'sish sur'ati 1,5% ni tashkil qildi (1995 yil-192070, 2000 yil-198017)

Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy hududlar bo'yicha taqsimlanishi bir xil emas: masalan, ularning 31% yoki 30 ta oliy ta'lim muassasi Toshkent shahri va poytaxt viloyatida joylashgan, shulardan Toshkent shahrida 30 ta oliy ta'lim muassasi yoki 40%; Farg'ona vodiysida 11 ta yoki 17,8%; qolgan hududlarning ulushi 34,2% darajasida bo'lib, Samarqand shahrida 6 ta oliy ta'lim muassasi joylashgan, bu O'zbekiston davlat oliy ta'lim muassasalari umumiy sonining 9% iga teng.

Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalari soni oliy ta'lim muassasalarining ulushiga taxminan mos keladi, masalan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining oliy ta'lim muassasalari barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari sonining 47,2%ini qamrab oladi, bu erdagi oliy ta'lim muassasalarining ulushi esa qariyb 48% ni tashkil qiladi.

Bugungi kunda malakali mutaxassis xodimlar ish faoliyatini tekshirishda ularning ixtisosligi tahlil qilinadi, komissiyalar tuziladi. Tuzilgan komissiya a'zolari o'qituvchilar va vrachlardan iborat bo'ladi.

Reja tuziladi:

1. Mehnat turi va miqdorini aniqlash;
2. Texnik-tashkiliy sharoitlar;
3. Ishchi xodimlar bajaradigan ishlar;
4. Kvalifikatsiya;
5. Maxsus tajriba;
6. Javobgarlik;
7. Maxsus texnik talablar;
8. Maxsus jismoniy texnik talablar;
9. Tashkiliy tayyorlashga taklif;
10. Ilmiy texnik progressga etib borishi.

Bu tahlillarni sharoitni hisobga olgan holda bajarish kerak. Xodimlarning o'qishi uchun o'sha tashkilot etarli darajada o'quv materialiga ega bo'lishi kerak. Tahlilning natijasi xodimlarning tarkibiga bog'liq. Mehnatning sifati – uning mexanizatsiyalashganligi va avtomatlashtirilganligi, yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda xodim ning ma'lum bir sohadagi aniq faoliyatini belgilab beradi. Ma'lum sohadagi xodimlarning ish quroli bilan ishlashi sifatni boshqarishni belgilab beradi.

### **3-savol bayoni**

Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlarni boshqarishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi nomli yangi mehnat turi paydo bo'ldi. Ularning mehnatida bir qancha umumiyliklar bor.

Keng qamrovli mutaxassis xodim o'z faoliyatida bir qancha kasblarni qamrab oladi, zarur bilimlarga, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Bu aralash texnologiya uchastkalardagi ishlab chiqarish funktsiyalarini amalga oshirishda qo'l keladi. U ishlab

chiqarishning fan sohasidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lib, ishlab chiqarishning o'zgarib turadigan shartlariga tez ko'nikib keta oladi.

Keng ko'lamlı mutaxassis xodimning professionalligi shu bilan belgilanadiki, uning yangi joyga va yangi sharoitga tez ko'nikishidir. Bunday hollarda qayta qurish va to'g'irlash ko'nikmalari hosil bo'ladi. Amaliy ko'nikmalar o'z-o'zidan o'zgarmaydi, bular ishlab chiqarish sharoitlarining o'zgarishi, mehnat jarayonlari tuzilmalari va uning miqdori bilan o'zgaradi.

Professionallikning yuqori bosqichlarga ko'tarilishi ko'p funktsiyalarni bajarishi boshqa kompleks mehnat bilimlarida hamda ish faoliyatining kengayishi bilan kelib chiqadi. Professional ishchi xodim o'zi ishlab chiqargan mahsulotni tahlil qila oladi. Bu jarayondagi asosiy narsa, bu nazariy bilimlarni bilishda emas, balki amaliyotda ishlata olishdir.

Bugungi kunda integratsiya jarayoni texnik jarayonda yangi texnikani boshqara oladigan xodimlarni talab qiladi. Yuqori malakali xodimlar yuqori bilimlarga umumiy texnik bilimga, tajribaga ega bo'lgan, hamda ular ishlab chiqarishda yangi bilimlarni o'zining amaliy faoliyatida qo'llay oladigan ishchi xodimdir.

Alohida tarmoq korxonasi yoki tashkilot miqyosidagi iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi xususida gapiradigan bo'lsak, bu strategiyaning ham bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bunday strategiyadagi asosiy masala bo'lib tegishli tarmoq va uning korxonasi yoki tashkilot sharoitidagi yangi xo'jalik yuritish tizimida yanada samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash maqsadida ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy shakl va usullarini aniq ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish hisoblanadi. Bu strategiyaga ko'ra, tarmoqdagi ishlab chiqarish faoliyatining barcha bo'linmalariga istiqbolni to'g'ri baholay oladigan qo'l ostidagi kishilar bilan hamkorlikda ishlay oladigan va o'z mutaxassisligi sohasini puxta o'rgangan rahbar kadrlarni tanlash, shuningdek ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlari uchun yuqori malakali, vijdonli va har qanday sharoitga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtisodchi mutaxassislarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadlarda iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning turli usul va shakllari strategiyada o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, har qanday korxonasi yoki tashkilotda mutaxassislar ishini muvaffaqiyatli tashkil etishda ularni kompleks va tizimli tarzda o'qitish muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkin, mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi o'z ichiga barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarini qamrab oladigan turli xil o'qitish shakllarini olishi kerak. Shuning bilan birga mutaxassislarni tayyorlashni doimiy va uzluksiz tarzda amalga oshirishni ta'minlash ham strategiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, alohida tarmoq korxonasi yoki tashkilotlar miqyosidagi mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasidagi mutaxassislarni malakasini oshirish va o'qitish shakllarini o'zida ifodalagan model tasvirlangan.

Ko'rinib turganidek, bu strategiyada mutaxassislar tayyorlashning aniq shakl va usullarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, tarmoq, korxonasi yoki tashkilotlardagi strategiya ham ko'plab bosqichlarga ega bo'ladi, biroq imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu bosqichlarga keyingi izlanishlarda to'xtalib o'tamiz.

Yuqorida mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasini ikkiga bo'lib ko'rib chiqdik. Biroq, bu degani bular bir-biridan alohida rivojlanadigan strategiyalar ekan deb xulosa chiqarishni anglatmaydi. Zero albatta har qanday tarmoq, korxonasi yoki tashkilotdagi bunday strategiyalar, birinchi navbatda, tegishli davlat strategiyalaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga quyidagi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Mamlakatdagi tarkibiy o'zgarishlar. Ma'lumki, O'zbekiston rejali iqtisodiy boshqaruv tizimidan yangi bozor iqtisodiyoti mexanizmi sari intilmoqda. Bu esa, tabiiy ravishda, yangi iqtisodiy shart-sharoitlar va tuzilmalarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi.



Bunday sharoitda yangicha bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarisiz hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirishning zamonaviy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qilmoqda.

2. Bugungi kunda «mehnat bozori»dagi ishsizlik muammolari. Bu ayniqsa, o'tish davridagi mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonda ham alohida echim talab qiladigan muammolardan hisoblanadi. O'tish davridagi mamlakatlarda ko'plab sanoat ob'ektlarining to'liq hajmda ishlash imkoniyatlarining kamayishi, davlatning ko'plab nazorat organlarini qisqartirilishi, shuningdek, yangi ob'ektlarga aylantirilayotgan korxonalar mutaxassislarining zamonaviy bilimlarga ega bo'lmasligi oqibatida mehnatga layoqatli ishsizlarning soni ortib boradi. Buning oldini olish uchun esa, bu ishsizlarni qisqa muddatli qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali bozor talablariga mos bilim va tajribalarni oshirishga katta ehtiyoj seziladi.

Iqtisodchi kadrlar, ta'lim oluvchilar va uni ta'minlash uchun zarur resurslar o'quv-tarbiya jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi.

O'qituvchi qobiliyatida pedagogik qobiliyatning o'zni. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyaning asosiy turlari. Pedagogik muloqot qobiliyatlari. Pedagog va o'quvchi orasidagi muomala madaniyati. Kommunikativ o'zaro ta'sir etish usullari. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi konfliktlarni yuzaga keltiruvchi omillar. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; Q4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

### **3.2.3 Kasbiy pedagogik mahorat va muloqot uslublari. (4 soat)**

Kasbiy mahorat haqidagi ta'riflar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnikani o'rganish

Kasbiy pedagogik faoliyatning kontseptual asoslari. Kasbiy pedagogik faoliyat va kasbiy ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. O'MKXT pedagogining didaktik faoliyati. Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari. Kasbiy pedagogik bilimlari. Pedagogik texnika.

Individual uslubdagi faoliyat. O'qitish maqsadlari. Mutaxassis modeli o'quv maqsadlarini aniqlashning asoslari. O'qitish maqsadlarini qo'yish usullari. Maqsadlar takmonomiyasi. A3.6-12; A7.3-7; Q3.6-16; A2.17-36; A3.13-38;

#### **3.2.4 Kasb ta'limi dual tizimi (2 soat)**

Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liqligi. Ta'limni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari, turlari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashganligi. Ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish. Kasbni o'zlashtirishning boshlang'ich davrlarining o'ziga xos xususiyatlari. Kasbni o'zlashtirishning tayyorgarlik davrining mohiyati va vazifalari. Kasbni o'zlashtirish, nazorat qilish va yakunlash davrining mazmuni va ahamiyati. Germaniya Respublikasining "dual tizim" sistemasini o'rganish va xayotga tatbiq etish.. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

#### **3.2.5 . Kasb-hunar ta'limini boshqarish (4 soat)**

O'rta maxsus kas-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishni umumiy va ilmiy asoslari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga raxbarlik qilish, raxbar ishining vazifalari. Boshqaruv qoidalari. O'quv jarayonini rejalashtirish, tashkillashtirish va undagi o'qitish metodlar, xamda vositalarini o'zgartirib turish. Xozirgi kunda kasb-hunar kollejlari boshqarishning demokratiya va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi to'g'risida bilimlarni tarkib toptirish.

A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

#### **3.2.6 O'qituvchi va raxbarlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv mahoratlarini shakllantirish (2 soat)**

Pedagogik va psixalogik boshqaruv to'g'risida tushuncha. Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv usublari. Boshqaruvga xozirgi zamon talabi bilan yondashuv. Yakka shaxs va jamoa bilan ishlash usullari. Kasb-hunar kollejlari boshqarishda o'qituvchining roli, faol, tashabbuskor va ijodkor munosabati. Ta'lim tarbiya jarayonini boshqarishda o'qituvchining roli. O'qituvchining talablari orasida sog'lom psixalogik muxit yaratish yo'llari.

. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

#### **3.2.7 O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKXT) kasblari va mutaxassisliklarini turkumlash (4 soat)**

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mutaxassisliklari haqida tushuncha. Kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat klassifikatori to'g'risida ma'lumot. O'MKXT mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat klassifikatori maqsadi, ob'ektlari. Kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat soxasi. Tasniflash tuzilmasi. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

#### **3.2.8 Kasb-hunar ta'limi muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti (4 soat)**

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalash. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixalogik metodlari. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalash metodlari. KXTda guruh murabbiylari ishini rejalashtirish va tashkil etish. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

#### **3.2.9 Kasb-hunar ta'limini umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va fan bilan integratsiyalash (2 soat)**

Kasb-hunar ta'limini umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va fan bilan integratsiyalash omillari. Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi. Mavzulararo integratsiya asosida o'quv-biluv jarayonini boshqaradigan o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish xamda ularga metodik imkoniyatlar yaratish. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

#### **3.2.10 Kasb-hunar ta'limida o'quvchi shaxsini shakllantirish (4 soat)**

Kasb-hunar ta'limida o'quvchi shaxsini shakllantirish. Ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishda umumiy xamda maxsus bilim berishning eng muxim vositalari. O'qitish jarayoni davomida o'quvchilarining bilish kuchlarini rivojlantirish. Mutaxassislik fanlarining o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi roli. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

### 3.2.11 Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar (4 soat)

Kasb-hunar kollejlarda o'qitishni tashkil etishning zamonaviy usullari. O'qitishning shakl va metodlarini sinflarga ajratish. Yakka xolda va jamoa bo'lib dars o'tishni tashkil etish. Pedagogik texnologiya haqida ma'lumot. Kasb ta'limida axborot texnologiyalari. Pedagogik texnologiya turlari. Muammoli ta'lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati va zarurati. Munozara, aqliy xujum, klaster, bumerang metodlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. Didaktik o'yin texnologiyalari. A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

### 3.2.12 Kasb ta'limi pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish (2soat)

Kasbiy malakaviy tuzilmada kadrlarning o'zgarishi. Ishlab chiqarish jarayonining asosiy funktsiyasi. Xodimlar ixtisosligini taxlil qilish metodikasi. Keng qamrovli soxa xodimlari va yuqori malakali xodimlar haqida tushuncha. Globallashuv sharoitida keng qamrovli va yuqori malakali xodimlar tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar A3.9-16; A8.6-12; A9.3-7; ?4.6-16; A4.17-36; A7.13-38;

## 3. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Talabalarning ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorlanib kelishi va o'tilgan materiallarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun kafedra o'qituvchilari tomonidan ma'ruza matnlari ishlab chiqilgan, har bir talabaga ushbu materiallardan foydalanish tavsiya etaladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy nazoratda o'z aksini topadi. Shu sababli reyting tizimida mustaqil ishlarga alohida ball ajratilmaydi, ular JN, ON va YaN lar tarkibiga kiritilgan.

Mustaqil uchun fan bo'yicha jami 31 soat ajratilgan.

Ushbu soatlar taxminan quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- ma'ruza konspektini o'qib tayyorlanish – 15 soat.
- amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uy vazifalarini echish – 10 soat.
- kollokviumga tayyorgarlik ko'rish, hisobotni tayyorlash – 30 soat.
- hisob-chizma ishlarini mustaqil bajarish va topshirish - 25 soat
- kurs loyixasini mustakil bajarish –56 soat

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid masalalar echish orqali mustahkamlanadi. Kasbiy pedagogika fanini chuqur o'zlashtirish uchun talaba fanning har bir bo'limini mustaqil o'rganishi va hisob-chizma ishlarini echish orqali mustahkamlashi zarur.

Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelishi va o'qituvchining og'zaki suhbatidan o'tishi zarur. Qoldirilgan ON va YaN lar belgilangan tartib bo'yicha topshiriladi.

## 4. Reyting baholash tizimi

### 4.1. Reyting nazorati jadvali

Nazorat turi	Reyting baholashlar			Jami	Saralash bali
	1	2	3		
<b>JN ( 40 %) shu jumladan:</b>					
2.JN (Seminar mashg'uloti va tmi topshiriqlari )	10	11	12	43	24
ON (30 %) va tmi			32	32	17
YaN (30 %)			32	32	18



Jami:				107	59
-------	--	--	--	-----	----

Baho	5	4	3	2
Reyting	86-100	71-85	55-70	< 55
Fanni o'zlashtirish ko'rsatkichlari	91-107	76-90	59-75	59


**Eslatma:** 1-2 semestrda o'qitiladigan "Kasbiy pedagogika" fanining o'quv hajmi 214 soatni tashkil etib 2 semestrda bo'lib o'tilishi sababli kuzgi 107 va bahorgi semestrda 107 o'quv hajmi soatni tashkil etadi fan koeffitsenti esa 1.07 bo'ladi. Fan bo'yicha o'zlashtirishni aniqlashda talaba to'plagan bali 1,07 ga ko'paytiriladi va butungacha yaxlitlab olinadi.

### **kasbiy pedagogika fanidan reyting ishlanmasi**

Umumiy soat  (o'quv rejasida)

Mustaqil ta'lim  (o'quv rejasida)

Reyting tizimida 100 ball belgilangan



Koeffitsient: →  $\Pi = \frac{M}{IO} \cdot 100\%$

$$\mathcal{KH} = AC + MT$$

$$MT = \frac{\mathcal{KH} \cdot \Pi}{100\%} \quad 12 \text{ Ball}$$

$$AC = \mathcal{KH} - MT \quad 28 \text{ Ball}$$

JN - har 6 hafta davomida baholanadi. Dekanatga yig'indi beriladi.

$$MT = \frac{OH \cdot \Pi}{100\%} \quad 8 \text{ Ball}$$

$$OH = AC + MT$$

$$AC = OH - MT \quad 22 \text{ Ball}$$

$$P = \text{ball} \cdot \frac{IO}{100\%}$$

**ON** - oraliq nazorat  
**JN** - joriy nazorat  
**YaN** - yakuniy nazorat

**Yu** - Yuklama  
**P** - koeffitsient

**AS** - Audiditoriya soati  
**MT** - Mustaqil ta'lim

### «KASBIY PEDAGOGIKASI» kursidan reyting ishlanmasi

tg'r	Nazorat turlari	Soni	Ball	Jami ball
I.	JN Amaliy mashg'ulotni bajarish TMI (amaliy ishga tayyorgarlik) TMI topshirigi	18 18 5	1 1* 1	18 17 5
II.	ON 2.1. Oraliq test surovi 2.2. TMI - kuzatish ishi	2 2	20x1 5	20 10
III.	YaN 3.1. Yakuniy test	1	30 x 1	30
<b>Jami</b>				100 ball

### REYTING JADVALI BAHORGI SEMESTR

			Fevral				Mart				Aprel				May				Iyun						
			4-10	11-17	19-24	26-3	5-10	12-17	19-24	26-31	2-7	9-14	16-21	23-28	30-5	7-12	13-19	21-26	28-2	4-9	11-16				
1	JN 40 %	Seminar mashg'u l oti	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18					
				2	2	2		2	2	2		2	2	2	2	2	2	2	2	2					

		tmi topshiriqlari							6				6					1
2	ON	Test							11						11			2
30		Mustaqil ta'lim						4					4					8
3	YaN	- 30%															30	3
	<b>Jami</b>		<b>10</b>					<b>30</b>					<b>30</b>					7
	<b>Jami bo'yicha</b>		<b>10</b>					<b>30</b>					<b>30</b>				<b>30</b>	<b>100</b>

#### 4.2. JNni baholash mezonlari

Kasbiy pedagogika fani bo'yicha joriy baholash talabning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlaridagi o'zlashtirishini aniqlash uchun qo'llaniladi. JN har bir amaliy mashg'ulotlarida so'rov o'tkazish, savol va javob, hisob-chizma ishlari topshiriqlarini bajarish va himoya qilish kabi shakllarda amalga oshiriladi. JN har bir laboratoriya mashg'ulotlarida so'rov ya'ni kollokvium o'tkazish, laboratoriya ishlarini bajarish, savol va javob, suhbat, hamda hisobot topshirish kabi shakllarda amalga oshiriladi. Talabaga JN da butun ballar qo'yiladi.

#### Talabning amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirish darajasi quyidagi mezon asosida aniqlanadi

Baholash ko'rsatkichi	Baholash mezonlari	reyting bali
A'lo, 86-100%	Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil echgan. Berilgan savollarga to'liq javob beradi. Masalaning mohiyatiga to'liq tushunadi. Auditoriyada faol. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunalari rasmiylashtirgan.	5
Yaxshi, 71-85%	Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni echgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Masalaning mohiyatini tushunadi. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi.	4
Qoniqarli, 55-70%	Topshiriqlarni echishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalaning mohiyatini chala tushungan. O'quv tartib intizomiga rioya qiladi.	3
Qoniqarsiz 0- 54%	Talaba amaliy mashg'ulot darsi MA'RUZA.ga nazariy tifyyorlanib kelmasa, mavzu bo'yicha masala, misol va savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi	2

#### 4.3. ONni baholash

Oraliq nazorat "Kasbiy pedagogika" fanining bir necha mavzularini qamrab olgan bo'limi bo'yicha, tegishli nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng yozma ravishda amalga oshiriladi. Bundan maqsad talabalarning tegishli savollarni bilishi yoki

muammolarni echish ko'nikmalari va malakalari aniqlanadi. O'kuv yilining 2-semestrda 2-ta ON o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib 22 balddan iborat. 3-semestrda 2 ta ON o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib 22 balddan iborat. ON nazorat ishlari yozma ish va test usulida o'tkazilishi nazarda tutilgan, yozma ish va test sovellari ishchi o'quv dastur asosida tayyorlanadi. ON ga ajratilgan balddan 55% dan past ball to'plagan talaba o'zlashtirmagan hisoblanadi. ON ni o'zlashtirmagan talabalarga qayta topshirish imkoniyati beriladi. ON bo'yicha olinadigan testlar kafedra mudiri rahbarligida tashkil etiladi va kafedrada o'quv yilining oxirigacha saqlanadi.

#### **4.4. YaNni baholash**

Yakuniy nazorat "Kasbiy pedagogika" fanining barcha mavzularini qamrab olgan bo'lib, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng yozma ravishda amalga oshiriladi. Bundan maqsad talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, ya'ni bilim darajasi yoki muammolarni echish ko'nikmalari va malakalari aniqlanadi. YaN nazorat ishlari test usulida ham o'tkazilishi nazarda tutilgan, test sovellari ishchi o'quv dasturi asosida tayyorlanadi. ON va JNlarga ajratilgan balddan 55% dan past ball to'plagan talaba o'zlashtirmagan hisoblanadi va YaNga kiritilmaydi. YaNni o'zlashtirmagan talabalarga qayta topshirish imkoniyati beriladi. YaN bo'yicha olinadigan yozma ish variantlari kafedra mudiri rahbarligida tuziladi va dekanatlarga topshiriladi.

#### **Test usulida YaN ni baholash mezonlari:**

YaN test va yozma ish shaklida o'tkaziladi va talabaning javoblari 30 ballik tizimda baholanadi. Bunda testga ajratilgan 30 ball 30 savollar soniga bo'linib, bir savolga qo'yiladigan 1 balddan topiladi uni to'g'ri javoblar soniga ko'paytirib, talabaning YaN da to'plagan ballari aniqlanadi.

### **5. INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOT**

#### **5.1. ASOSIY ADABIYOTLAR**

##### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. 63 b.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: O'zbekiston, 2008. -173 b.
- 3.Avazboev O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, 1993.
- 4.Kurbanov Sh.E., Saidov X., Axliddinov R. Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq 1998.-154 s.
- 5.Tolipov O'.Q., Barakaev M., Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika (ma'ruzalar matni). –T.: "Ofset-print" matbaasi, 2001. –100 b
- 6.Kurbanov Sh.E., Seytxalilov E.A. Upravlenie kachestvom obrazovaniya. T.: Sharq 2004 g. (rusk. yaz.), 2006 y. (o'zbek tilida).
- 7.Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b. 8.Sharipov Sh. va b. Kasb pedagogikasi (metodik qo'llanma). -T.:TDPU, 2006 y.
- 9.Rashidov H.F. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
10. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
- 11.Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi.O'quv Qo'llanma.. O'MKHHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.

##### **Qo'shimcha adabiyotlar.**

- 1.Avazboev O.I. Kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2007. 30 b.
- 2.Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 52 b.

3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim integratsiyasi. Kasb ta'lim metodikasi metodik qo'llanma. -T:TDPU, 2006. 48 b.
4. Sharipov Sh. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). -T.: TDPU, 2006. 34 b.
5. Sharipov Sh., Abduraimov Sh. Kasb ta'limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun metodik qo'llanma. -T: TDPU, 2007. 147 b.
6. Eldasheva G.V. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2006. 124 b.

Test savollari

**Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi ta'rifi kaysi soxaga tegishli?**

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsipiga

Ta'lim soxasidagi davlat siyosati

Uzluksiz ta'limning isloh qilish

Ta'lim prinsipiga

**Ta'lim soxasidagi davlat boshqaruv organlari qaysilar ?**

O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi

ta'lim muassasalari

Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi

Xalq ta'limi bo'limlari

**Kadrlar tayyorlash milliy modeli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan ?**

shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish

davlat va jamiyat, ishlab chiqarish, uzluksiz ta'lim

shaxs, davlat va jamiyat, fan, ishlab chiqarish

shaxs, uzluksiz ta'lim, ishlab chiqarish

**Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsipini toping ?**

bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish

ta'limda ja'miyat boshqaruvi

o'qituvchining kasbiy nufuzini oshirish

ta'lim tizimini takomillashtirish

**D.T.S qanday talablarni belgilaydi ?**

D.T.S ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni

o'quv rejasiga qo'yilgan talablarni

barcha ta'lim muassasalari talablarini

D.T.S doirasida ta'lim oluvchilarning huquq talablarini

**Ta'lim to'g'risidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari nechta ?**

to'qqiz ta

o'n bit

o'n

Sakkiz

**Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi qaysi idoralar tomonidan belgilanadi ?**

O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan

Tarmoq vazirliklar tomonidan

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan

Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi tomonidan

**D.T.S ni bajarish qanday ta'lim muassasalari uchun majburiydir ?**

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun

Davlat ta'lim muassasalari uchun

nodavlat ta'lim muassasalari uchun

Davlat va nodavlat ta'lim muassasalari uchun

**Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiquvchi vazifasi kadrlar tayyorlash milliy**

## **modelining qaysi tarkibiga tegishli ?**

Fan

Shaxs

Davlat va jamiyat

Uzluksiz ta'lim

## **Milliy dastur bo'yicha kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

Mutaxassisning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan, shuningdek qo'shimcha mutaxassislik berishga qaratilgan

Mutaxassisning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtiri

Mutaxassisning kasb bilimlari va ko'nikmalarini puxtalash va chuqurlashtirishga qaratilgan

Mutaxassisning kasb bilimlarini boyitish, yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish

## **D.T.S ga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari Xalk ta'limining qaysi sohasiga kiradi ?**

Xalq ta'limi tizimiga

Maktabdan tashqari ta'lim sohasiga

Xalq ta'limi turiga

Korxonalariga

## **Uzluksiz ta'lim turlari nechta sohaga bo'lingan ?**

yetti ta

besh

olti

To'qqiz

## **Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar qaysi javobda to'g'ri kursatilgan ?**

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish

Ta'limning uzluksizligi va izchilligi

ta'lim tizimiga moliyaviy-moddiy texnika

Xalq ta'limi turi

## **Didaktikaning «Oltin qoidasi» kim tomonidan yaratilgan ?**

Yan Amos Komenskiy tomonidan

Aristotel tomonidan

Abu Nasr Farobiy tomoni

Beruniy tomonidan

## **“Hunarsiz kishi xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur” ushbu misralar kimga tegishli.**

Kaykovus

A.Navoiy

A.Avloniy

Farobiy

## **Ta'limning tarkibiy qismlari**

Maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita, natija

Ta'lim, tarbiya

Maqsad, mazmun

shakl, metod, vosita, baholash, tahlil, sintez

## **Kasb-hunar ta'limi tamoyillari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?**

Onglilik, nazariya bilan amaliyot birligi, politexnik, ilmiylik, tizimlilik, faollik, izchillik, uzviylik

Faollik, tirishqoqlik, tashkilotchilik, kommunikativlik

Onglilik, nazariya bilan amaliyot birligi,

Insonparvarlik, odamiylik, mehnatsevarlik

## **Kasb-hunar kollejlarning maqsadi**

DTS doirasida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lgan kichik mutaxassis

kadrlar tayyorlash.

Mutaxassis tayyorlash

Bitiruvchi tayyorlash

Kichik mutaxassis tayyorlash

**“Ta’lim to’g’risida” gi Qonunning nechanchi moddasida har kim akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o’qishning yo’nalishlarini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega deb brilgan**

o’n uch- modda

uch-modda

O’n to’rt

O’tizuch

**Ta’lim to’g’risidagi Qonunning bo’lim va boblarini aniqlang**

beshta bo’lim o’ttiz to’rt ta modda

Uch bo’lim o’ttiz to’rt ta modda

besh bo’lim o’ttiz besh ta modda

to’rt bo’lim o’ttiz to’rt ta modda

**O’rta maxsus kasb-hunar ta’lim turini aniqlang**

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji

Uzluksiz ta’lim

Umumiy o’rta ta’lim

Oliy ta’lim

**Kichik mutaxassis bu –**

Ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o’zlashtirgan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash boyicha tayyorlov yo’nalishlari

Xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi bilim, malaka va ko’nikmalarning mavjudligi.

Kasbiy bilim, malaka va ko’nimalarning qo’llanish doirasidir

**Malaka bu-**

Xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma’lum ishni bajarish uchun zarur bo’lgan bilim, malaka va ko’nikmalarning mavjudligi. Xodimning malakasini belgilovchi ko’rsatgich bo’lib, kategoriya yoki diplom, ilmiy daraja yoki unvonning mavjudligi hisoblanadi.

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash boyicha tayyorlov yo’nalishlari, kasblar va mutaxassislarning tizimlashtirilgan royxati.

Ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o’zlashtirgan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kasbiy bilim, malaka va ko’nimalarning qo’llanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

**Kasbiy faoliyat sohasi (KFS)-**

Kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalarning qo’llanish doirasidir; uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

Kichik mutaxassislarni tayyorlash boyicha tayyorlov yo’nalishlari.

Ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o’zlashtirgan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari kasbiy tayyorgarligi darajasi bilim, malaka va ko’nikmalarning mavjudligi

**O’MKHT ta’lim muassasalaridagi tayyorlov yo’nalishlari —**

Aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta’lim berish doirasidir.

Mutaxassislarning kasbiy faoliyatining aniq sohasi boyicha tayyorlov yo’nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko’nikma va malakalarni egallagan Birorta kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko’nikma va malakalar majmuasi.

Kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar boyicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan royxatining raqamli belgisidir.

**Kasb bu –**

Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir

Birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi

Kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar boyicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan royxatining raqamli belgisidir.

**Ixtisoslik—**

Birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

Aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir.

Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini

Kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar boyicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan royxatining raqamli belgisidir.

**O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar kodi -**

Kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar boyicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan royxatining raqamli belgisidir.

Aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir.

Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini

Birorta kasb doirasida bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

**Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi-**

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Ta'lim; Gumanitar fanlar va san'at; Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq

Birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik

**Davlat ta'lim standartlari DTS**

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash boyicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Qishloq xo'jaligi; Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot; Xizmatlar.

Birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus

**Tasniflagich bilim sohalari:**

Ta'lim; Gumanitar fanlar va san'at; Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq; Fan; Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari; Qishloq xo'jaligi; Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot; Xizmatlar.

o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.



**O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi yo`nalishiga qaysilar kiradi?**

akademik litsey, kasb-hunar kolleji;  
akademik litsey;  
kasb-hunar kolleji;  
institut, universitetlar;

**O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasini belgilang?**

kichik mutaxassis;  
o`rta mutaxassis;  
oliy mutaxassis;  
o`rta ma`lumotli mutaxassis.

**Kasbiy pedagogika fanining maqsadi-**

insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borish. jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, mamlakatimiz iqtisodiyotini buyuk davlat darajasiga ko`taradigan mutaxassislarni tayyorlash.

insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borish.

kasb-hunar ta`limi o`quv yurtlari o`quvchilarining ta`limi, tarbiyasi, o`qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o`rganadi, ta`lim va tarbiya, jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan

**Bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko`nikma va malakalarini egallaganligi, shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo`yicha raqobatbardoshlik darajasida o`z aksini topadi. Bu qaysi tushunchaga berilgan ta`rif.**

Kasbiy mahorat  
Pedagogik mahorat  
Pedagogik bilimdonlik  
Pedagogik vaziyat

**Kasbiy pedagogikasi qaysi fanning tarmog`i sifatida shakllanib boradi?**

Umumiy pedagogika  
Ijtmoy pedagogika  
Pedagogika tarixi  
Pedagogika nazariyasi.

**“Ta`lim tog`risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?**

1997 yil 29 avgustdagi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdan tashqari IX sessiyasida

1997 yil 29 avgustdagi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdagi IX sessiyasida

1997 yil 29 avgustdagi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdagi X sessiyasida

1997 yil 29 avgustdagi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdagi XII sessiyasida

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi?**

ta`lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish.

ta`lim tizimini o`zgartirish va tubdan isloh qilish

ta`lim tizimiga yangilik olib kirish

Ta`lim tizimini boshqarish

**Uzluksiz ta`lim tizimi qaysi ta`lim turlarini o`z ichiga oladi?**

Maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus kasb hunar ta`limi; Oliy ta`lim oily o`quv yurtidan keyingi ta`lim; Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta`lim

Oliy ta`lim oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta`lim

Maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus kasb hunar ta`limi

**“Uzluksiz ta`lim tizimi uchun davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to`g`risida”gi qaror qachon qabul qilingan?**

1998 yil 5 yanvardagi 5 sonli qarori.

1997 yil 5 yanvardagi 5 sonli qarori.

1998 yil 5 yanvardagi 6 sonli qarori.

1998 yil 5 yanvardagi 7 sonli qarori.

**Ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq xalq xo`jaligi ikkita katta sohani o`z ichiga oladi.**

**Ular qaysilar?**

Ishlab chiqarish va no ishlab chiqarish

Ishlab chiqarish va qayta qurish

No ishlab chiqarish va kichik biznes

Kichik biznes va Ishlab chiqarish

**Tasniflagichning 4-ustunida uchta yulduzcha () bilan qaysi kasbga yo`naltiruvchi ixtisosliklar berilgan?**

Akademik litseylari bitiruvchilari

Oliy ta`lim bitiruvchilari

maktablari bitiruvchilari

To`qqiz yillik

**Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs -**

Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti ta`lim sohasidagi xizmatlarning iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning bosh asoschisi.

Ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga soladigan ob`ekt

Yuqori malakali mutaxassis

**Uzluksiz ta`lim tizimi -bu?**

Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo`lib ta`limning barcha turlarini, davlat ta`lim standartlarining kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko`rsatish muhitini o`z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti ta`lim sohasidagi xizmatlarning iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg`or pedagogic va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

Ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solib turuvchi asos.

**“Loyihalash” iborasi pedagogikaga qaysi sohadan kirib kelgan?**

Texnika

Ishlab chiqarish

Sog`liqni saqlash

San`at

**Ta`lim mazmuni nimalarda aks etadi?**

DTS, O`quv reja , O`quv dasturi

DTS

O`quv reja

O`quv dasturi

**Integrativ yondashuv asosida kasb hunar ta`limi mazmunini tanlab olishda me`yoriy asos nima hisoblanadi?**

O`quv reja

O`quv dastur

Tasniflagich va DTS

DTS

**Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichdagi vazifalar-**

mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

«Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish

#### **Dasturni amalga oshirishning ikkinchi bosqichdagi vzifalar-**

milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida

rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

#### **DTS-ta'limning qaysi turlari uchun belgilanadi?**

Umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim uchun, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari) va oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura) uchun.

Umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim uchun.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari) va oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura) uchun.

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun.

#### **Davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari -ta'limning qaysi turlari uchun belgilanadi?**

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun.

Umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim uchun.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari) va oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura) uchun.

Maktabdan tashqari ta'lim

#### **Ta'lim yo'nalishi nima?**

Aniq kasb faoliyati sohasida mutaxassislariga kasb ta'limi berish doirasi

“kichik mutaxassis” malaka darajasi

Ish tajribalari asosida ma'lum faoliyat uchun o'zlashtirilgan bilim

Aniq kasb faoliyati sohasida kichik mutaxassis malakasini berish

#### **O'MKXT tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari umumdavlat tasniflagichida kichik mutaxassislarning kasb faoliyat sohasini sanab o'ting?**

Ta'lim; gumanitar fanlar va san'at; ijtimoiy fanlar, biznes va huquq; fan; muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari; qishloq va suv xo'jaligi; sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot; xizmatlar.

Sanoat; transport, aloqa; qurilish, uy-joy va kommunal xo'jaligi; qishloq va o'rmon xo'jaligi; sog'liqni saqlash.

Qurilish, uy-joy va kommunal xo'jaligi; qishloq va o'rmon xo'jaligi; sog'liqni saqlash; ta'lim, madaniyat va san'at; ijtimoiy va iqtisodiy soha;

Sanoat, transport, aloqa, qurilish, uy-joy va kommunal xo'jaligi; umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalari.

#### **Mutaxassislik nima?**

Birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus, tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi

Inson mehnat faoliyati mahsuli bo'lib, maxsus kompleks tayyorlash davrida va ish tajribalari asosida olgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan majmuidir  
Maxsus tayyorlov davrida va ish tajribalari asosida ma'lum faoliyat uchun o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir

Inson mehnat faoliyati mahsuli bo'lib, ish tajribalari asosida olgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash

**Akademik litsey qanday ta'lim beradi?**

o'rta maxsus ta'lim

kasb-hunar ta'lim

to'liqsiz oliy ta'lim

Oliy ta'lim

**Kasb-hunar kolleji qanday ta'lim beradi?**

o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

umumiy o'rta ta'lim

mustaqil ravishdagi ta'lim

oliy ta'lim

**Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga qanday hujjat beriladi?**

diplom

shahodatnoma

guvohnoma

attestat

**Umumiy o'rta ta'lim necha yillik?**

to'qqiz yillik

Uch yillik

Besh yillik

To'rt yillik

**O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishiga qaysilar kiradi?**

akademik litsey, kasb-hunar kolleji

akademik litsey

kasb-hunar kolleji

institut, universitetlar

**O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasini belgilang?**

kichik mutaxassis;

o'rta mutaxassis;

oliy mutaxassis;

mutaxassislik berilmaydi;

**«Kadrlar tayyorlash tizimi»ning asosi nima?**

uzluksiz ta'limi;

izchillik;

ilmiy texnikaviy extiyojlarni qondirish;

qishloq xo'jalik ta'limini rivojlantirish;

**“Kasbiy mahorat” tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi mezonni aniqlang.**

mehnat faoliyatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi;

o'qitishning eng maqbul samarali usuli;

ilmiy yechimlar va ixtirolarni topish;

o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik;

**Kasb ta'limida zamonaviy darslarga qoyiladigan didaktik talabni aniqlang.**

darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish; talabalarda tarbiyaviy va rivojlantiruvchi

maqsadlarni uyg'unlashtirish;

murakkablashib boruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish;

turli xil ko'rsatmali o'quv hujjatlardan foydalanish;

turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish etish.

**Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talabni aniqlang.**

tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;

murakkablashib boruvchi mashqlar yig'indisini

darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish;

**Tarbiyaviy faoliyat to'g'ri ta'riflangan variantni aniqlang.**

darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhiy ishlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

pedagogik jarayonda o'z hissiyotlarini boshqarish

xohish va istaklarni boshqarish o'zliklarini anglash talabalarning faol ishlarini qo'llab-quvvatlash.

dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;

**Kasbiy faoliyat mazmunining asosi nima?**

malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifa ishlab chiqarish ta'limi.

bilim va ko'nikmalar.

ijodiy yaratuvchanlik.

ilmiy bilimlar.

**Layoqat nimani anglatadi?**

shaxsning tabiiy tug'ma xususiyatlari bo'lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyatga aylanadi.

insonlarning qiziqishi. insonlarning xohishi

ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omil

ob'ektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilish

**Konstitutsiyaning qaysi moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega" deyilgan?**

qirq birinchi moddasida

Qirq to'rtinchi moddasida

Qirq beshinchi moddasida

Qirq uchinchi maddasida

**O'quv rejasi deb nimaga aytiladi?**

o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati

rejaga kiritilgan fanlar miqdori, kanikullar kuni, mustaqil ishlar kiritiladigan davlat hujjatidir

kasb-hunar kollejlari uchun tuziladigan darslar miqdori kiritiladigan davlat hujjati.

barcha o'qitiladigan fanlar majmuasi

**Ta'lim bu ...?**

bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga

tayyorlashning asosiy vositasi

ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilaydigan mezonlar asosida o'lchash.

o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy ish-harakatlarini kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

bilim va ko'nikmalarni hosil qilish

**«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning asosiy vazifalarini ko'rsatib bering**

chuqur bilimli, erkin fikrlay oladigan, o'zida yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan barkamol shaxsni tarbiyalash;

o'zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassam etgan barkamol shaxsni tarbiyalash;

chuqur bilimli shaxsni tarbiyalash;

erkin fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash;

**O'MKXT sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi. Ular qaysi javoblarda ko'rsatilgan?**

ichki nazorat, joriy, oraliq, yakuniy, tashqi, davlat, javoat, yakuniy davlat attestatsiyasi nazoratlari;

yakuniy, tashqi, davlat jamoat nazoratlari;

yakuniy davlat attestatsiyasi, ichki, oraliq nazoratlari;

ichki, oraliq, yakuniy, joriy nazoratlar;

### **Ta'limiy kenglik bu:**

ta'lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya'ni atrof-muhit bilan o'zaro harakatni anglatadigan kenglik.

bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish.

nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmui.

voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmui.

### **Sinf-dars tizimini birinchi bo'lib yaratgan olim**

Yan Amos Komenskiy

Abu Rayhon Beruniy

K.D.Ushinskiy

Abdulla Avloniy

### **Kasb-hunar ta'limining o'zaro bog'langan qismini ko'rsating?**

nazariy bilim va ishlab chiqarish ta'limi

pazandachilik va tikuvchilik

gazlamashunoslik va gazlama bilan ishlash

milliy hunarmandchilik va duradgorlik

### **Yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha mutaxassisliklar kodining birinchi 3ta raqami nimani ifodalaydi?**

kasbiy faoliyat sohaslarini

bakalavriat yo'nalishlarini

tayyorlov yo'nalishlarni va kasblarni

Bilim sohasini

### **Ishlab chiqarish ta'limi metodi bu-**

ta'lim oluvchilarda muayyan kasb, soha boyicha mutaxassislikni shakllantiruvchi metod.

o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning ega bo'lishlari taminlavchi metod.

Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil metod.

kasbiy fanlar boyicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish borasidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari ta'minlavchi metod.

### **Dars maqsadi qanday yo'nalishlarda belgilanadi:**

uch yo'nalishda: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

Uch yo'nalishda: ta'limiy, estetik, iqtisodiy;

Ikki yo'nalishda: estetik, ta'limiy;

Uch yo'nalishda: ta'limiy, rivojlantiruvchi, iqtisodiy;

### **Semestr davomida to'plagan ballar qanday tartibda baholanadi?**

86-100% «a'lo», 71-85% «yaxshi», 55-70,9% «o'rta», 55%dan kam qoniqarsiz;

85-100% «a'lo», 70-84,9% «yaxshi», 55-69,9% «o'rta», 55%dan kam qoniqarsiz;

85-100% «a'lo», 70-84,9% «yaxshi», 54,9-69,9% «o'rta», 54,9%dan kam qoniqarsiz;

85-100% «a'lo», 72-84,9% «yaxshi», 55-71,9% «o'rta», 55%dan kam qoniqarsiz.

### **Didaktika tushunchasi qaysi javob to'g'ri ko'rsatilgan?**

pedagogika fanining ta'lim va tarbiya nazariy asoslarini ochib beruvchi tarmog'i;

pedagogika fanining asosiy qonunlari majmuasi;

ta'lim-tarbiya nazariyasi;

ta'lim-tarbiyani amaliyotda tadbiq etish yo'llari;

### **Ta'limda proyeksion uskunalar va slaydlarni qo'llash qaysi didaktik tamoyilda o'z ifodasini topgan**

Ko'rgazmalilik

Ta'lim va tarbiyaning birligi

Nazariya va amaliyotning birligi

Onglilik va faollik

**Darsning necha xil maqsadi bir va ular qaysilar;**

uch xil: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

Ikki xil: estetik, ta'limiy;

Uch xil: ta'limiy, rivojlantiruvchi

Ikki xil: iqtisodiy, madaniy

**O'quv jarayonida o'qituvchi qanday rol o'ynadi?**

rahbarlik;

o'qituvchi;

uddaburonlik;

qobiliyatlilik;

**Taqvim mavzu reja qancha muddatga tuziladi?**

bir yilga – yarim yilga

Ikki yilga

Bir yilga

yarim yilga

**Kasb-xunar ta'limi metodlari nima?**

**ta'lim jarayonini o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi;**

mehnat faoliyati usullarini tushuntirish va ko'rsatish hamda mehnat faoliyatlarin to'g'ri va xavfsiz bajarish bo'yicha tasavvur hosil qilishdir;

Avval savol tuzilib, vaqti va o'tkazilish joyi belgilangan mashg'ulotdir;

o'qituvchi tomonidan qo'yilgan dars maqsadiga erishishga yo'naltirilgan o'quvchilar

**Kalendar-mavzuli reja kim tomonidan tuziladi?**

malakali fan o'qituvchisi;

o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini;

ta'lim vazirligi;

maktab direktori;

**Kasbiy faoliyat mazmunining asosi nima?**

malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifa

ishlab chiqarish ta'limi.

bilim va ko'nikmalar.

ilmiy bilimlar.

**Kalendar-mavzuli reja o'quv jarayonini rejalashtirishning qaysi bosqichida tuziladi?**

o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish jarayonida;

mashg'ulotiga tayyorlanishi jarayonida;

mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayonida;

o'qituvchining darsga tayyorlanishi jarayonida;

**Metodologiya tushunchasi nima ?**

Nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirish va qurishning prinsip va usullari tizimi

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar majmuasi

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

Dars jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchining muloqot shakllari

**Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

ta'lim va tarbiya insonparvar, demokratik harakatlarda ekanligi;

ta'limda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish;

unumli mehnat asosida o'qitish;

onglilik va faollik;

**Kasb-hunar ta'limining o'zaro bog'langan qismini ko'rsating?**

nazariy bilim va ishlab chiqarish ta'limi;

pazandachilik va tikuvchilik;  
gazlamashunoslik va gazlama bilan ishlash;  
milliy hunrmandchilik va duradgorlik;

**Kasb-hunar kollejlari istiqbolli kalendar-mavzuli reja tuzishda nimalarga ahamiyat beriladi?**

har bir kursda necha soatdan va qanday mashg'ulot turidan iborat bo'ladi?  
maxsus fan kollejning qaysi kurslarida o'qitiladi?  
mashg'ulotlarni tashkil etishda qanday dars tiplaridan foydalanish ma'qul bo'ladi?  
qanday ko'rgazma qurollar ishlatish kerak?

**Namunaviy dastur asosida qanday dastur ishlab chiqiladi?**

Ishchi dastur

Mualliflik o'quv dasturi

O'quv dasturi

Maxsus dastur

**O'quv rejasi deb nimaga aytiladi?**

o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati

kasb-hunar kollejlari uchun tuziladigan darslar miqdori kiritiladigan davlat hujjati.

barcha o'qitiladigan fanlar majmuasi

rejaga kiritilgan fanlar miqdori, kanikullar kuni, mustaqil ishlar kiritiladigan davlat hujjatidir

**Ta'lim-tarbiyaga tadqiqiy-ijodiy yondashuv bu-**

Bu yondashuv ta'limning maqsadi, talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'zlashtirish, yangi bilimni mustaqil o'zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatish.

Talaba o'z ilmiy ishlarini, natijalarini hayotga tatbiq etilishiga erishish.

Talabalar ijodiy ishlarini, natijalarini rahbarlariga topshirishi.

Yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatish.

**O'rta- maxsus, kasb-hunar ta'limi: bu...**

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy ta'lim

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari amalga oshiriladi.

maxsus o'rta o'quv muassasalarida amalga oshiriladi

O'quv muassasasi-gimnaziya ta'lim negizida

**Yoshlarning intellektual kamoloti nimaga bog'liq?**

Ma'naviy o'zini-o'zi anglash, kelajakka ishonish, milliy mafkurani bilishga

